**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**Muqimiy NOMIDAGI Qo'qo'n DAVLAT PEDAGOGIKA instituti**

**"Boshlang`ich ta`lim metodikasi" kafedrasi**

**ona tili**
**fanidan**

# O`quv uslubiy

# majmua

**Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim sohasi**

**Ta'lim sohasi: 140000 – O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani**

**Bakalavriyat yo`nalishlari: 5141600 - Boshlang`ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ishi**

**Qo'qo'n – 2007**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro`yxatga olindi
№БД 5141600-3.06
«13» avgust 2006-y.

«Тасдиқланди»
Ўз.Р. ОЎМТВ
186
«10» август 2006 й.

# Ona tili

# fani dasturi

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 – Ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 140000 – O`qituvchilar tayyorlash va Pedagogika fani |
| Bakalavriat yo`nalishi: | 5141600 — Boshlang`ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish |

TOSHKENT - 2007

Mazkur fan dasturi bakalavriat yo'nalishi 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish ta'limi uchun mo'ljallangan.

Ona tili fanning predmeti, maqsadi va vazifalari; tilshunoslik haqida umumiy ma'lumot, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, xalq tili va adabiy til haqida ma'lumot, dunyo tillarining tasnifi, leksikologiya, frazalogiya, leksikografiya haqida ma'lumot, hozirgi zamon ona tilining lug'at tarkibi, ona tili fonetikasi, haqida ma'lumot, hozirgi zamon ona tilining fonetik tizimi, nutqning fonetik o'zgarishi nutq tovushlarining fonetik o'zgarishi, hozirgi zamon ona tili grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, hozirgi zamon ona tilining grammatik qurilishi, morfologiya haqida ma'lumot, so'zning grammatik ma'nosi va garammatik shakli, grammatik kategoriyasi, mustaqil so'z turkumlari, ularning xususiyatlari, yordamchi so'z turkumlari, modal so'zlar, undov, taqlid so'zlar, hozirgi zamon ona tili sintaksisi, gap va uning turlari, gap bo'laklari va ularning tasnifi, gapning uyushiq va ajratilgan bo'laklari haqida ma'lumot, ko'chirma gaplar, matn sintaksisi.

Tuzuvchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.A.Muhamedova
filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.Shodmoqulova

Taqrizchilar: Nizomiy nomli TDPU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori Asqarova M.A.
Toshkent Davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Hayitova F.

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti qoshidagi "Ta'lim" o'quv-metodik birlashmasida ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

2007-y «____» ____________ dagi____ sonli majlis bayoni

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2007-yil «___»_______________ dagi _____-sonli qaydnomasi bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

## SO'Z BOSHI

1.1. Ona tili pedagogika universiteti va institutlarining boshlang'ich ta'lim, pedagogika va psixologiya, maktabgacha tarbiya va deffektologiya mutaxassisliklarining o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, mutaxasislik o'quv predmeti sifatida uni bosqichma-bosqich tizim asosida o'qitish ko'zda tutilgan.

Ona tili yuzasidan tuzilgan mazkur dastur bo'yicha ishlashdan maqsad bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga, yordamchi maktab o'qituvchilariga hamda bog'cha tarbiyachilariga ona tilimizning fonetik hususiyatlari, talaffuz me'erlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirsh (bunda lotin yozuviga asoslangan imloni ham o'zlashtira borish) yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

O'zbek adabiy tilining asoslarini, uning og'zaki va yozma shakllarini puxta o'zlashtirish jarayonida pedagogika institutlarining boshlang'ich ta'lim va defektologiya fakultetlari uchun nashr etilgan mavjud darslik, qo'llanmalar materiallariga ijodiy yondashish talab etiladi. Shuningdek, bunda o'zbek tilining davlat tili maqomini olishi hamda ta'lim haqidagi qonun materiallariga tayanish bilan bog'liq bo'lgan o'zgartishlar kiritish taqozo etiladi. Shulardan kelib chiqib, ona tilini o'qitishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritildi:

1. Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot berish, ya'ni tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati, uning paydo bo'lishi, taraqqiyot qonunlari, til va tafakkur o'rtasidagi munosabat, dunyo tillarining tasnifi, tilning ichki qurilishi, umumiy va xususiy tilshunoslik, o'zbek adabiy tili va uning taraqqiyot bosqichlari, hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berish.

2. O'zbek adabiy tili bo'limlariga oid mavzularni izchil bayon qilib borish jarayonida bilimlararo bog'lanishi, ta'limning oldingi bosqichlarida (o'rta umumta'lim maktabi, litsey, ped.bilim yurti....kabilarda) olingan bilimlarni hisobga olgan holda talabalarning til bilimini mustahkamlab borish va amaliy malakalar hosil qilish, yangi nazariy bilimlar berish.

3. Har bir nazariy ma'lumotning amaliy (laborotoriya mustaqil ish, mustaqil ta'lim) mashg'ulotlari uchun mavjud mashqlar majmuasini ishlab borish bilan birga mustaqil O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tadbiq eta borib, milliy qadriyatlar, an'analar, udumlarimiz va tariximiz, xalqimizning komil va oqil farzandlari hayoti, g'oyalari haqida hikoya qiluvchi (ma'lumot beruvchi) didaktik materiallar (grammatik kartochkalar) tayyorlashga jalb etish orqali bilimning mustahkamligiga va ta'lim tarbiya birligaga erishish.

4. O'zbek tili uslublarini til bo'limlari mazmuniga singdirib (bog'lab) o'rgatish, grammatik (Morfologik va sintaktik) sinonimlaridan nutqda o'rinli foydalanishga o'rgatish.

5. Nutq madaniyatini o'stirish maqsadida og'zaki va yozma nutqni aniq, to'g'ri (adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda), maqsadga muvofiq savodli bayon qilish.

6. Mustaqil. o'qib o'rganish va o'zlashtirish uchun ajratilgan mavzular yuzasidan umumiy nazariy materialni bayon qilish, shu bilan birga, talabalarni qo'shimcha adabiyotlardan o'rinli, to'g'ri, unumli foydalanishga va maqsadga muvofik holda shaxsiy fikr qilishlarini bayon etishga o'rgatish, shuningdek, yozma va og'zaki nutqning normativ grammatika (darslik) qamrab ololmagan til va nutq hodisalarini kuzatish, tahlil qilish, nazariy umumlashmalar qilishga da'vat etib borish orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirib borish.

7. Talabalarning til bilimiga qiziqishlarini orttirish, ularning ona tilidan olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ayrim mavzular yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, shu asosda ilmiy ma'ruzalar malakaviy bitiruv

8. O'qitilayotgan mavzu mundarijasini boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish mundarijasi hajmi bilan qiyoslab borish, bu bilan pedagogik amaliyot davrida o'z bilimlarining zarur qismidan amaliy foydalanish malakalarini rivojlantirish.

1.2. Umuman, ona tili darslarida talabalarning tilshunoslik masalalarini tahlil qilish va adabiy til me'yorlarini puxta egallashlariga, mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini mumkin qadar

rivojlantirishga, ilmiy izlanish-tadqiqot ishlari malakalarini shakllantirishga ham erishib borish ko'zda tutiltan.

1.3. Ona tili fanini chuqur o'rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Tilning lug'at boyligida yuz bergan o'zgarishlar jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o'zgarishlar asosida amalga oshadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o'rgatish lozim.

1.4. Ona tilini puxta o'rgatish maqsadida o'qituvchning dars jarayonida slaydlar, proektor, diaproektorlar kabi zamonavaiy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o'qitilayotgan fanning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mashg'ulotning qiziqarliroq bo'lishiga o'tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

**Ma'ruza**

| | **_12- bob. Sintaksis._** |
|---|---|
| 12.1. | Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. So'z birikmasi, gap bo'lagi va gap sintaksisning tekshirish ob'ekti sifatida. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi; teng va ergash bog'lanish haqida umumiy ma'lumot. Ergash bog'lanish so'z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi. |
| 12.2. | So'z birikmasi. So'z birikmasining tuzilishi va grammatik ma'nolari. Birikma tarkibidagi so'zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv, so'z birikmalarining turlari: 1.Hokim so'zning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra turalri (otli, fe'lli. ravishli, sifatli, modal so'zli birikmalar). 2.Tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra turlari (to'ldiruvchili, aniqlovchili, holli so'z birikmalari). 3.Tuzilishiga ko'ra turlari: oddiy so'z birikmalari, murakkab so'z birikmalari. |
| 12.3. | Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birligi sifatida. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar. His-hayajon (undov) gaplar, ularning turlari (darak-undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar). Gapning tuzilish jihatdan turlari: sodda gaplar, qo'shma gaplar, o'zga gapli qurilmalar, |
| 12.4. | Sodda gap. Sodda gap haqida umumiy ma'lumot, Bo'laklarga bo'linadigan va bo'laklarga bo'linmaydigan sodda gaplar; bo'laklarga bo'linadigan gap turlari: ikki sostavli (ikki bosh bo'lakli) va bir sostavli gaplar; yig'iq va yoyiq, to'liq va to'liqsiz gaplar. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gap tiplari: aniqlovchili yoyiq gap, to'ldiruvchili yoyiq gap, Holli yoyiq gap, aralash holda tuzilgan yoyiq gap. |
| 12.5. | Gap bo'laklari. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot. Ega va kesim (bosh bo'laklar) ikki sostavli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: fe'l-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi. |
| 12.6. | Gapning ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol). To'ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali to'ldiruvchilar, ularning shakllanishi. Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi aniqlovchilarning turlari ekanligi. Hol va uning ifodalanishi, turlari: ravish holi, miqdor daraja holi, payt holi, o'rin holi, sabab holi va maqsad holi. |
| 12.7. | Gap bo'laklarining joylashish tartibi. Inversiya. |
| 12.8. | Gapning uyushiq bo'laklari; uyushishning ifoda vositalari: sanash ohangi va teng bog'lovchilar. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning qo'llanishi. Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. |
| 12.9. | Gapning ajratilgan bo'laklari, ularning ajratilish sabablari. Ajratilgan bo'laklarning turlari: ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratuvchi, ajratilgan izohlovchi), |

| | |
|---|---|
| | ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. |
| 12.10. | Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot: undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgalarining ishlatilishi. |
| 12.11. | Bir bosh bo'lakli (bir sostavli) gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplar. Egasiz bir bosh bo'lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar). Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan- shaxssiz gaplar. Kesimsiz bir bosh b'ulakli gap - atov (yoki nominativ) gap ekanligi. |
| 12.12. | Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar (so'z-gaplar), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liq va to'liqsiz gaplar. To'liqsiz gaplarning tuzilish va qo'llanish xususiyatlari. |
| 12.13. | Qo'shma gap. Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot. Komponent (qism)larning birikish usuliga ko'ra qo'shma gap turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap. |
| 12.14. | Bog'langan qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap qismlarining mazmun munosabati. Komponent (qism)lar orasidagi teng aloqa bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanish usuli ekanligi. Teng bog'lovchilar, teng bog'lovchi vazifasidagi ayrim yuklamalar, "bo'lsa", "esa" so'z shakllari - bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar ekanligi. Bog'langan qo'shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi. |
| 12.15. | Ergashgan qo'shma gap. Ergashgan qo'shma gap - bosh va ergash tobelik munosabati asosida vujudga kelgan sintaktik birlik sifatida. Bosh va ergash gap, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ergashtruvchi bog'lovchilar, shu vazifadagi ayrim yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, turli fe'l shakllari (fe'lning shart, buyruq-istak formalari. shuningdek, ravishdosh, sifatdosh va to'liqsiz fe'l ekanligi.<br>Ergashgan qo'shma gapning turlari: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap, to'liqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap. Bunday gaplarda ergash gapning bosh gapdagi biror bo'lakni (qismni) yoki butun bir bosh gapni izohlash xususiyati. Ergashgan qo'shma gap komponentlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi. |
| 12.16. | Bog'lovchisiz qo'shma gap. Intonatsiya (ohang) bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarini o'zaro bog'lovchi vosita ekanligi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining birikish usullari (sanash va tobelanish ohanglari). Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi |

| | |
|---|---|
| 12.17. | komponentlarning mazmun munosabati. Bog'lovchisiz qo'shma gap turlari: bir tipdagi va turli tipdagi komponentlardan tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.<br>Ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gap. Ko'p komponentli qo'shma gap uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va intonatsiya jihatdan bog'lanishidan tuzilgan sintaktik birlik sifatida. Ko'p komponentli qo'shma gaplarning turlari: 1) bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) ko'p komponentli qo'shma gaplar; 2) ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) ko'p komponentli qo'shma gaplar; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi (bog'lovchi vositalarsiz, ohang orqali tuzilgan) ko'p komponentli qo'shma gaplar; 4) aralash tipda tuzilgan ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar. Murakkab (ko'p komponentli) qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. |
| 12.18. | O'zga gapli qurilma. O'zga gap va undan nutqda foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zga gap turlari: ko'chirma gapli qurilma, o'zlashtirma gap. Ko'chirma gapli qurilmaning tarkibiy qismlari: muallif (avtor) gapi va ko'chirma gap, ularning o'zaro bog'lanishi. Ko'chirma gapning muallif gapiga nisbatan prepozitiv, postpozitiv va interiozitiv holatlarda qo'llana olishi ko'chirma gapli qurilmalarning o'ziga xos xususiyati ekanligi. O'zlashtirma gap uning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ko'chirma gapli o'zlashtirma gapga aylantirishning o'ziga xos xususiyatlari |
| 13.1. | ***<u>13-bob. Punktuatsiya</u>***<br>***<u>(ishorat qoidalari).</u>***<br>O'zbek tili punktuatsiyasining asosi va tamoyillari (mantiqiy-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, differensiatsiya tamoyili). O'zbek tilida tinish belgilari va ularning tasnifi; tinish belgilarining qo'llanish o'rinlari. |

## 2. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAZMUNI

| | |
|---|---|
| | 6*<u>-bob. Sintaksis.</u>*<br>So'zlarning teng va ergash bog'lanishi (aloqasi), ergash bog'lanishning turlari (boshqaruv, bitishuv, moslashuv) yuzasidan mashqlar.<br>So'z birikmasi, uning turlari, birikma tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida mashqlar.<br>Gap, uning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajratish; gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari yuzasidan mashq. Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra o'zgartirishga oid mashq,<br>Yig'iq va yoyiq gaplarni, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlash |

| | |
|---|---|
| | bo'yicha mashq.<br>Gapning bosh bo'laklarini aniqlash (ega va kesimni aniqlash); sodda va tarkibli kesimlar; kesimning ega bilan moslashuvi. ularning ba'zan sonda mos kelmaslik hollari; yozuvda ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishiga ustida mashqlar.<br>Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, turlarga ajratish yuzasidan mashq. To'ldiruvchi, aniqlovchi, hollarning turlari, ifodalanishi ustida mashqlar.<br>Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash va ularni umumiy sintaktik tahlil qilish.<br>Gapning uyushiq bo'laklarini, qanday bo'lak uyushganini aniqlash, uyushiq bo'laklarning shakllanishi, bog'lovchili, bog'lovchisiz birikkanini, umumlashtiruvchi birliklar qatnashgan holatlarni, tinish belgilarning ishlatilishini belgilash yuzasidan mashqlar o'tkazish.<br>Ajratilgan bo'laklar va ularning turlarini belgilash, bunday gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan mashqlar.<br>Gap bo'lagi sanalmaydigan undalma, kirish so'z va kirish birikmalar hamda kiritma gaplarni aniqlash. Kirish so'z va kirish birikmalarining ma'nolarini aniqlash; undalma va kiritma gaplarning qo'llanish o'rni, ularda ishlatiladigan tinish belgilari yuzasidan mashq o'tkazish.<br>Bir bosh bo'lakli gap, uning turlari; bo'laklarga ajralmaydigan gap (so'z-gap); to'liq va to'liqsiz gaplarni aniqlash yuzasidan mashq.<br>Sodda gap va so'z birikmasi yuzasidan kollokvium o'tkazish.<br>Sodda va qo'shma gaplarni aniqlash, ularni farqlash yuzasidan mashq. Qo'shma gap qismlari va ularning o'zaro bog'lanishi, mazmun munosabatini aniqlash yuzasidan mashq.<br>Bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanish yo'llari, ularni bog'lovchi vositalar yuzasidan mashq.<br>Ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlash, ergash gaplarning turini ajrata bilish yuzasidan mashqlar o'tkazish. Bog'langan va ergashgan qo'shma gap qismlarining bog'lanishini sxema (chizma) orqali ko'rsata bilish.<br>Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi qismlarning mazmun munosabati, tinish belgilar ishlatilishini aniqlash bo'yicha mashq. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining bog'lanishi sxema (chizma)da ko'rsatish.<br>Murakkab (ko'p komponentli) qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanishi, mazmun munosabatini belgilash yuzasidan mashqlar. Murakkab qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanishini sxema (chizma) orqali ko'rsata bilish.<br>O'zga gap, uning turlari: ko'chirma gap, o'zlashtirma gaplarni aniqlash; ko'chirma |

| | |
|---|---|
| | gapli qo'shimchalarning qismlari (ko'chirma gap va muallif - avtor gapi), ularning o'zaro bog'lanishi, joylashish o'rnini belgilash; ko'chirma gapli qurilmada tinish belgilarining ishlatilishi, ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga (va aksincha, o'zlashtirma gapni ko'chirma gapga) aylantirish yuzasidan mashqlar.<br>Matnni yoki tanlangan gaplarni sintaktik jihatdan to'liq tahlil qilish.<br>***8-6ob. Punktuatsiya va umumiy takror***<br>Tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llash qoidalarini o'zlashtirish yuzasidan mashqlar.<br>Matnda yoki undan olingan parchada ishlatilgan tinish belgilarining qo'yilishi sababini aniqlash va izoxlash yuzasidan mashqlar.<br>Butun kurs materiallarini o'z ichiga olgan yalpi grammatik tahlil o'tkazish. |

## 3. ADABIYOTLAR


1. I. Karimov. Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. AAbduazizov. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi, Toshkent, 1992.
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari, «O'qituvchi», Toshkent, 1995-yil.
4. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil
5. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiyot tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent, 2000.
6. R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
7. K.Safaev, R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
12. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
13. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi
14. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
15. R.Yunusov. O`zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
16. O`. Sharipova, I.Yo`ldoshev. Tilshunoslik asoslari. 2006, TDPU.

| Mavzular | Soati |
|---|---|
| **6-semestr** | |
| 1. Sintaksis. So'zlarning teng va tobe bog'lanishi. So'z birikmasi, uning turlari. So'z birikmasining so'z, sintagma, ibora va gapdan farqlari. | 2 |
| 2. So'z birikmasi tarkibidagi hokim va tobe so'zlarning bog'lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. | 2 |
| 3. Gap, uning xususiyatlari. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. His-hayajonli va his-hayajonsiz gaplar. | 2 |
| 4. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar. Ega, uning ifodalanishi. | 2 |
| 5. Kesim, uning ifodalanishi, turlari. Bog'lama haqida ma'lumot. | 2 |
| 6. Kesimning ega bilan shaxs va sonda mosligi. Ega bilan kesim orasida tire (-)ning ishlatilishi. | 2 |
| 7. Ikkinchi darajali bo'laklar. To'ldiruvchi, uning turlari, ifodalanishi. | 2 |
| 8. Aniqlovchi, uning turlari, ifodalanishi. | 2 |
| 9. Hol, uning turlari, ifodalanishi. Gap bo'laklarining joylashish tartibi. | 2 |
| 10. Gapning uyushiq bo'laklari. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchi aniqlovchilar. | |
| 11. Umumlashtiruvchi bo'lak. Uyushiq bo'laklarda tinish belgilarning ishlatilishi. | 2 |
| 12. Gapning ajratilgan bo'laklari. Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarning ishlatilishi. | 2 |
| 13. Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar. Undalma va uning xususiyatlari. | **2** |
| 14. Kirish so'z, kirish birikma, kiritma gap. | |
| 15. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari. | **30** |
| **Jami** | |

| № | Mavzular | Soati |
|---|---|---|
| | **7- semestr** | |
| **1.** | Qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar | **2** |
| **2.** | Ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar. | **2** |
| **3.** | Ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar. | **2** |
| **4.** | Bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar. | 4 |
| **5.** | Murakkab qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar. | **2** |
| **6.** | O'zga gap, uning turlari yuzasidan mashqlar. | **2** |
| **7.** | Punktuatsiya yuzasidan mashqlar. | 4 |
| **8.** | Qo'shma gap, o'zga gap, punktuatsiya yuzasidan mashqlar. | **2** |
| **9.** | **Jami** | **20** |

# ЎЗБЕК ТИЛИДАН

# МАЪРУЗАЛАР

# МАЖМУАСИ

**Кукон** -2007

**1 - М А Ъ Р У З А**

**С И Н Т А К С И С**

**ежа:**

1. Синтаксис ҳақида умумий маълумот.
1. Сўз бирикмаси ҳақида маълумот
2. Сўз бирикмасининг сўз, ибора, синтагма ва гапдан фарқи
3. Эргаш сўз билан бош сўзнинг бирикиш усуллари

## 1. Синтаксис ҳақида умумий маълумот.

Синтаксис грамматиканинг иккинчи қисми бўлиб, унда сўзларнинг бир-бирига боғланиб, сўз бирикмалари ҳосил қилиниши, гап турлари ўрганилади. "**Синтаксис**" грекча сўз бўлиб, "**тузиш**" демакдир.

Синтаксис ўз навбатида **а) сўз бирикмаси синтаксиси** ва **б) гап синтаксиси** каби иккита бўлимга ажралади.

## 1-§. Сўз бирикмаси ҳақида маълумот

Мустақил сўзлар маъно ва грамматик жиҳатдан бир-бирига боғланиб, сўз қўшилмасини ҳосил қилади. *Майдонда эркаклар ва аёллар тўпланишди* деган гапда қуйидаги сўз қўшилмалари мавжуд: *1) эркаклар ва аёллар; 2) эркаклар тўпланишди; 3) аёллар тўпланишди; 4) майдонда тўпланишди.*

Сўз қўшилмасидаги сўзлар бир-бири билан икки хил боғланади:
**1) тенг боғланиш; 2) тобе боғланиш**. Тенг боғланишда бир сўз бошқасига тобе бўлмайди, бир-бири билан санаш оҳанги ёки тенг боғловчилар ёрдамида боғланади: *эркаклар ва аёллар; эркаклар, аёллар*. Тобе боғланишда бир сўз бошқасига тобе бўлади: *майдонда тўпланишди*. Тобеликнинг асосий белгиси: бир сўз бошқа сўзни изоҳлаб келади. Бир-бирига тобе боғланган сўзлар сўз бирикмасини ҳосил қилади. Эга ва кесимнинг бир-бири билан боғланиши сўз бирикмаси ҳисобланмайди, балки гап ҳисобланади: *Одамлар тўпланишди*.

Икки ёки ундан ортиқ мустақил сўзнинг маъно, грамматик ва оҳанг жиҳатдан бирининг бошқасига тобе бўлиб боғланиши **сўз бирикмаси** дейилади.

Тобе боғланиш ёрдамида шаклланган сўз бирикмасида ҳар доим иккита қисм - ***тобе*** ва ***ҳоким*** қисм мавжуд бўлади. Сўз бирикмасидаги маъноси изоҳланаётган сўз **ҳоким (бош) сўз**, унинг маъносини равшанлаштириб келаётган, изоҳлаётган, тўлдираётган сўз **тобе (эргаш) сўз** ҳисобланади. Сўроқ ҳамма вақт ҳоким сўзга қараб берилади, сўроққа жавоб бўлган сўз эргаш(тобе) сўз ҳисобланади: *Ширин олма (қандай олма?)8.*

Бош сўз от, сифат, сон, олмош, равиш, модал сўз ва отлашган тақлид ҳамда ундов сўзлар билан ифодаланса, **отли бирикма** ҳисобланади: *баланд бино, асалдай ширин, интизомда биринчи, болаларнинг ҳаммаси, менда кўп, сенга керак, тўпларнинг гумбур-гумбури, аскарларнинг урраси.*

Бош сўз феъл ва унинг равишдош, сифатдош ва ҳаракат номи шакллари билан ифодаланса, **феълли бирикма** ҳисобланади: *китобни ўқиш, ишни бажариб, тез келган.*

Сўз бирикмалари тузилишига кўра икки хил бўлади:
**1. Содда сўз бирикмалари** бошқа бирикмаларга ажралмайдиган сўз бирикмаларидир (бунда ёрдамчи сўзлар ҳам иштирок этиши мумкин): *бешта дафтар, бугун келди, ўзининг уйи, шаҳарда яшайди, акаси ҳақида сўради*. Ажралмас бирикмалар, қўшма сўзлар, иборалар қатнашган бирикмалар ҳам содда сўз бирикмаси ҳисобланади: *қилич бўйин от, борса келмас ороли, туриб жавоб бермоқ*. **2. Мураккаб сўз бирикмалари** таркибида учта ва ундан ортиқ мустақил сўз қатнашиб, шаклан камида иккита сўз бирикмасидан иборат бўлади, мазмунан эса бу сўз бирикмаларини ажратиб бўлмайди: *ғайратли ёш болалар, янги оммабоп китоб, катта*

*қора қўй, асфальт ётқизилган кенг кўчалар, катта мевали дарахт, бугун келган ишчилар.* Бунда содда сўз бирикмаси кенгаяди.

Айрим дарсликларда **сўз бирикмалари занжири** деб аталган бирликлар ҳам ажратилади (21; 39). Бунда айрим сўз бир сўз бирикмасида ҳоким сўз саналса, бошқа сўз бирикмаси таркибида тобе сўзга айланиши мумкин, натижада бу сўз бир неча сўз бирикмаларини боғловчи воситага айланади ва сўз бирикмалари занжири ҳосил бўлади: *Далаларда етиштирилган асалдан ширин қовун ва тарвузлар халқимиз дастурхонига етказиб беріляпти.* Мазкур гапдаги *етиштирилган* сўзи *далаларда* сўзига нисбатан ҳоким сўз ҳисобланса, *қовун ва тарвуз* сўзларига нисбатан тобе сўз саналади, шунингдек, *ширин* сўзи *асалдан* сўзига нисбатан ҳоким сўз ҳисобланса, *қовун ва тарвуз* сўзларига нисбатан тобе сўз ҳисобланади.

**Д и қ қ а т !** Эга ва кесими қатнашган гап таркибида нечта мустақил сўз мавжуд бўлса, шундан 2 та кам миқдорда сўз бирикмаси мавжуд бўлади: *Мен бугун мактабга бордим* (4 та муст. сўз).Сўз бирикмалари: 1) *бугун бордим; 2) мактабга бордим.* Эгасиз гапларда эса сўз бирикмалари сони мустақил сўзлар сонидан **битта** кам бўлади: *Эртага тонг билан жўнаймиз* (3 та муст. сўз). Сўз бирикмалари: *1) эртага жўнаймиз; 2) тонг билан жўнаймиз.*

## 2-§. Сўз бирикмасининг сўз, ибора, синтагма ва гапдан фарқи

**Сўз** нарса, белги, шахс, иш-ҳаракатни умуман ифодалаш учун хизмат қилади: *Китоб* деганда умуман китобларни, *борди* деганда умуман борилганликни тушунамиз.

Сўз бирикмаси ҳам нарса, белги, иш-ҳаракатни ифодалайди ва бу жиҳатдан сўзга ўхшаб кетади, аммо сўз бирикмаси нарса, белги, иш-ҳаракатни бошқа нарса, белги, иш-ҳаракатлардан ажратиб, аникроқ қилиб ифодалайди: *ўқувчи - аълочи ўқувчи, ёзиш - тез ёзиш.* Қўшма сўз ва сўз бирикмаси ўзаро қуйидагича фарқланади: қўшма сўз бир сўроққа жавоб бўлади, сўз бирикмаси таркибидаги ҳар бир сўз алоҳида-алоҳида сўроқларга жавоб бўлади, сўз бирикмасидаги ҳар бир сўз ўз урғусига эга бўлади, қўшма сўз эса яхлит битта урғуга эга бўлади: *сотиб олмоқ* (нима қилмоқ?) – қўшма сўз; *жўшиб куйламоқ* (***қандай*** куйламоқ? жўшиб ***нима қилмоқ?).*** Сўз бирикмалари қўшма сўзларнинг биринчи босқичидир: *кўзнинг ойнаги – кўзойнак, сарв қоматли – сарвқомат, дунёга қараш – дунёқараш* ва ҳ.

**Ибора(турғун бирикма)** маъно жиҳатидан бир сўзга тенг, ажралмас ҳолатга келиб қолган бирликдир. Унинг таркибидаги сўзларни ҳоким ёки тобе бирликларга ажратиш мумкин эмас. Қиёсланг: *тош йўл* (сўз бирикмаси*) – оқ йўл* (ибора, яъни омон-эсон бориб келишни тилаш). Сўз бирикмаси таркибидаги сўзларни алмаштириш мумкин, иборадаги сўзларни эса алмаштириш мумкин эмас: *мактабга бормоқ – театрга бормоқ* (сўз бирикмалари); *кўзи тўрт бўлиб кутмоқ* (*кўзи беш бўлиб кутмоқ* деб алмаштириб бўлмайди). Баъзан гап таркибида сўз бирикмаси ва иборалар шаклий жиҳатдан тенг келиб қолиши мумкин, бунда сўз бирикмаси ўз маъносида, ибора эса кўчма маънода келади: *оёқ тирамоқ*: *У деворга **оёғини тираб*** (сўз бирикмаси) *арқонни тортди – Менинг гапимга кўнмай, **оёғини тираб*** (ибора) *туриб олди.*

**Синтагма** фонетик ҳодиса бўлиб, унда икки сўз ўзаро бирикканда мазмун етакчи ҳисобланмайди, битта мустақил ёки битта ёрдамчи сўз ҳам синтагмани ташкил этиши мумкин ёхуд бир сўзнинг ўзи ҳам синтагмани ташкил этиши мумкин. Сўз бирикмаси эса энг камида иккита мустақил сўздан иборат бўлади: - *Бу китоблар ким учун олинди? - Мен учун эмас, укам учун* (иккинчи гапда иккита синтагма мавжуд бўлиб улар битта мустақил, битта ёрдамчи сўзлардан ташкил топган: *мен учун, укам учун*).

**Гап** фикр, тасдиқ ёки инкор ҳукмни билдириб, тугалланган оҳанг билан айтилади: *Кўча катта*. Сўз бирикмаси эса аташ оҳанги билан айтилади: *катта кўча*. Гап битта сўздан ҳам иборат бўлиши мумкин ва у кесимлик қўшимчалари билан шаклланган бўлади, сўз бирикмаси эса ҳар доим энг камида иккита мустақил сўздан иборат бўлади: ***Баҳор*** (гап). *Атроф **ям-яшил либосга*** (сўз бирикмаси) *бурканган.* Шу хусусиятлари билан улар ўзаро фарқланади.

## 3-§. Эргаш сўз билан бош сўзнинг бирикиш усуллари

Эргаш сўз бош сўз билан қуйидаги усуллар ёрдамида бирикади:

**1. <u>БОШҚАРУВ</u>**. Бош сўзнинг талаби билан эргаш сўзнинг маълум грамматик воситани олиши **<u>бошқарув</u>** дейилади. Бошқарувда эргаш сўз билан бош сўзнинг бирикиши икки хил бўлади:

1) улар ўзаро тушум, жўналиш, ўрин-пайт ёки чиқиш келишиги қўшимчаси ёрдамида бирикади (келишикли бошқарув): *Илғорлар**<u>ни</u>** табриклаш, уй**<u>га</u>** кетиш, шаҳар**<u>да</u>** яшаш , қишлоқ**<u>дан</u>** келиш.*

2) улар ўзаро кўмакчилар ёрдамида бирикади (кўмакчили бошқарув): *Сайр **ҳақида** суҳбат, пахта **учун** кураш, саёҳат **тўғрисида** гапириш.*

Айрим ҳолларда грамматик восита (қўшимча) бўлмаслиги ҳам мумкин: *Олма териш, шаҳар бориш.*

Бошқарувда тобе сўз от ёки от ўрнида қўлланадиган сўзлардан, шунингдек, ҳаракат номи *(юришдан чарчамоқ)* ва сифатдошдан *(ўтирганида сезмоқ)* иборат бўлади. Бош сўз вазифасида эса кўпинча феъл қўлланади. Баъзан бу вазифада от *(мендан совға),* сифат *(асалдан ширин),* равиш *(шамолдан тез)* ва модал сўзлар *(менда бор)* ҳам қўлланиши мумкин:

Бошқарувда кўпинча эргаш сўз аввал, бош сўз кейин келади *(мактабда ўқимоқ),* шеърий асарларда қофия талаби билан бош сўз олдин, эргаш сўз кейин келиши мумкин: *...Бир ажиб ҳис **бор эди менда.** (Ҳ.О.)*

**2. <u>МОСЛАШУВ</u>** бош сўз билан эргаш сўзнинг шахс-сонда мослигидир. Бунда бош ва эргаш сўз қаратқич келишиги ҳамда эгалик қўшимчаси ёрдамида бирикади: қаратқич келишиги қўшимчаси эргаш сўзга, эгалик қўшимчаси бош сўзга (баъзан ҳар иккаласига ҳам) қўшилади: *ука**<u>м</u>**нинг китоб**<u>и</u>**.* Эга ва кесим ҳам мослашув усули ёрдамида боғланади: *Мен кетдим.* (1-шахс)

Мослашувда одатда эргаш сўз аввал, бош сўз кейин келади. Баъзан шеърий асарларда бош сўз аввал, эргаш сўз кейин келади: ***Қалбим менинг** қувончга тўлди.*

Мослашувда баъзан қаратқич келишиги ёки эгалик қўшимчаси туширилиши мумкин: *мактаб <u>ҳовлиси</u>, бизнинг <u>мактаб</u>* каби.

Мослашув усули билан шаклланган бирикмалар асосан отли бирикмалар ҳисобланади, чунки от билан от қаратқич келишиги ёрдамида боғланиши маълум.

Нутқимизда учрайдиган *аъзойи бадан, ойнаи жаҳон* каби форс-тожик тилидан кирган бирикмалар бир сўз сифатида қўлланаверади.

**3. <u>БИТИШУВ</u>.** Эргаш сўзнинг бош сўз билан грамматик воситасиз, фақат маъно жиҳатдан ёки сўз тартиби ёрдамида бирикиши **<u>битишув</u>** дейилади. Битишувда доимо эргаш сўз аввал, бош сўз кейин келади: *тиниқ <u>сув</u>, катта <u>кўча</u>*. Уларнинг ўрни ўзгартирилса, гап ҳосил бўлади: *Сув тиниқ. Кўча катта.*

Битишувда эргаш сўз вазифасида сифат, равиш ҳамда улар вазифасидаги бошқа сўзлар келади: *қизил гул, тез юрмоқ, тилла билагузук, бундай одам, ўқиган одам, жўшиб куйламоқ.* Бош сўз от ва феъл сўз туркумидан иборат бўлади.

*Бирга ўқиш, бирдан гапириш, қунт билан тинглаш, завқ билан куйлаш, ёлғондан гапирмоқ* каби бирикмалар ўрин-пайт, жўналиш, чиқиш келишиги қўшимчалари, кўмакчилар билан боғланган бўлишига қарамай, бошқарув эмас, балки битишув саналади, чунки бу бирикмалар таркибидаги келишик ва эгалик қўшимчалари “қотиб” қолган ва уларнинг иккита сўзни боғлашда ҳеч қандай роли йўқ..

*Девор соат, уй вазифа, от тўрва, нон завод* каби хослик, мансублик муносабатини билдирадиган бирикмалар ҳам битишув муносабатига мисол бўлади.

| Сўз бирикмаси таҳлили | |
|---|---|
| 1. Гапдаги сўз бирикмалари аниқланади.<br>2. Бош ва эргаш сўзлар аниқланади.<br>3. Бош ва эргаш сўзларнинг боғланиш усули (мослашув, бошқарув, битишув). | 4. Ҳоким ва тобе сўзларни боғловчи восита (келишик қўшимчаси, кўмакчи ёки оҳанг) аниқланади.<br>5. Сўз бирикмасининг бош сўз туркуми бўйича тури аниқланади.<br>6. Сўз бирикмасидаги эргаш сўзнинг вазифаси бўйича тури аниқланади.<br>6. Сўз бирикмасининг тузилиш тури аниқланади |

## 2–МАЪРУЗА
## ГАП ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ
**Режа:**

1. Гап ва унинг асосий белгилари
2. Гапнинг ифода мақсадига кўра турлари
3. Гапларнинг ҳис-ҳаяжон иштирокига кўра турлари

### 1-§. Гап ва унинг асосий белгилари

Муомала воситасининг энг кичик бирлиги **гапдир.**

Гап орқали тугалланган фикр ифодаланади: *Пахта терими қизғин давом этяпти. Олтин куз қандай гўзал!*

Гап ҳосил қилиш учун сўз ва сўз бирикмаларини грамматик жиҳатдан боғлаш керак: *Хатни қалам билан ёзди* гапида *-ни* ва *билан* боғловчи воситалар ҳисобланади. Бу гапнинг грамматик жиҳатдан шаклланганлигидир.

Гап оҳанг жиҳатдан тугалланган бўлиши керак: *Куз. Ҳамма ёқда иш қайнаяпти.* Бу гапдаги *Куз* сўзи тугалланган оҳанг билан айтилгани учун гап ҳисобланади.

Шундай қилиб, гапнинг қуйидаги белгилари мавжуд:

1. Муомаланинг энг кичик бирлигидир. 2. Нисбий тугалланган фикрни ифодалайди. 3. Грамматик жиҳатдан шаклланган бўлади.
4. Тугалланган оҳанг билан айтилади.

Юқоридаги белгиларга таянган ҳолда гапнинг қуйидаги таърифини келтириб чиқариш мумкин:

**Тугалланган оҳанг ва фикрга эга бўлиб, кесимлик шакллари воситасида грамматик жиҳатдан шаклланган, муомаланинг энг кичик воситаси ҳисобланган якка сўз ёки сўзлар йиғиндиси гап деб аталади.**

### 2-§. Гапнинг ифода мақсадига кўра турлари

**1. Дарак гап** орқали бирор нарса ҳақида маълум қилинади, хабар берилади, унинг охирига доимо нуқта қўйилади: *Эртага мактабга бораман.*

Дарак гаплар дарак-хабар, орзу-умид, ишонч, таъкид, ғурур, маслаҳат, ташвиқ, севинч, таажжуб, гумон, ачиниш ташвиш, ғазаб, норозилик, киноя каби мазмун турларини ифодалайди.

**2. Сўроқ гап** орқали сўзловчи ўзи баён қилган фикрга суҳбатдошини фикр билдиришга ундайди, тасдиқлаш ёки инкор қилишга ундайди: *Бугун келдингизми?* Ёзувда сўроқ гапнинг охирига сўроқ белгиси қўйилади. Бу гаплар кўпроқ **диалогик** нутқда учрайди.

Сўроқ гаплар сўроқ олмошлари *(ким? нима? қандай? қанча? неча? қайси?* – бундай гаплар сўроққа жавоб бўлувчи сўзни талаб қилади), сўроқ юкламалари (*-ми, -чи, -а, -я)* ёки сўроқ оҳанги билан ҳосил бўлади. Бундай гаплар *ҳа* ёки *йўқ* деган жавобни талаб қилади. Қуйидаги мисолда сўроқ оҳанги қатнашган: *Соат икки бўлди. Икки бўлди?*

Сўроқ гаплар икки гуруҳга бўлинади: 1) **<u>соф сўроқ гаплар</u>** жавоб талаб қиладиган гаплардир: *Сиз эртага келасизми?*
2) **<u>риторик сўроқ гаплар</u>** сўроқ гапларнинг жавоб талаб қилмайдиган тури бўлиб, жавоби ўз ичида яширинган ва барча учун маълум бўлади: *Мен унинг тўсатдан келиб қолишини қайдан билай?* Риторик сўроқ гаплар қуйидаги маъноларни маъноларини ифодалаши мумкин: *Бу Ватанда нималар йўқ* (тасдиқ). *Ўзингдан чиққан балога, қайга борасан давога* (инкор). *Бу нимаси?!* (таажжуб) *Мени ташлаб кетмайсанми?!* (ташвиш) *Мақсад нима, мақсад?!* (ғазаб) *Пахталар ҳам яхши очилмагандир?* (гумон) *Токайгача эзиламиз, ота?!* (кучли ҳаяжон)

**3. <u>Буйруқ гапларда</u>** суҳбатдошни нимадир қилишга ундаш мақсад қилиб қўйилади. Бундай гапларда илтимос, буйруқ, таклиф, маслаҳат, ҳайратланиш, ташвиқ, гумон, ташвиш, ҳаяжон, ғазаб, ялиниш тарзида бўлиши мумкин: *Аввал ўйла, кейин сўйла* (маслаҳат). *Дадил ҳаракат қил!* (буйруқ) *Ашуладан яна бўлсин* (илтимос). *Қани ҳамма одамлар сиздай бўлса!* (орзу) *Наҳотки, бу сиз бўлсангиз!* (ҳайратланиш) *Совқотиб қолма, иссиқроқ ёт* (ғамхўрлик). *Куннинг тиғида нима қиласан, бу ерга келиб, салқинда ўтирсанг-чи!* (ташвиқ) *Қўрққан бўлса керак!* (гумон) *Хатдан ўчир ўғлимни ҳозир!* (ғазаб, дўқ) Ёзувда буйруқ гапларнинг охирига кўпинча нуқта, оҳангига қараб эса ундов белгиси ҳам қўйилиши мумкин.

Айрим дарсликларда (23; 34) гаплар ифода мақсадига кўра тўрт турга ажратилади: дарак гаплар, сўроқ гаплар, буйруқ гаплар, истак гаплар. **<u>Истак гапларга</u>** қуйидагича таъриф берилган: "Кесими ***–са*** шаклидаги феъллар билан ифодаланган гаплар истак гап ҳисобланади. *Қани энди хоҳлаган ўқишимга кирсам*. Истак гаплар охирига нуқта (.) қўйилади." (23; 34) Истак гаплар буйруқ гапларнинг ичидан ажралиб чиққанлиги мисолдан кўриниб турибди.

## 3-§. Гапларнинг ҳис-ҳаяжон иштирокига кўра турлари

Гаплар оҳангига, ҳис-туйғуни ифодалашига кўра 2 хилдир:
**1. Ҳис-ҳаяжонли гап**. **2. Ҳис-ҳаяжонсиз гап**. Ҳис-ҳаяжон гаплар (баъзан **ундов гаплар** деб ҳам юритилади) *эҳ, оҳ, уҳ, о, уф, оббо* каби ундовлар, *қандай, қанча, нақадар, шундай* каби сўзлар ёки фақат ҳис-ҳаяжон оҳанги билан ҳосил бўлади: *Эҳ, баҳорнинг гаштига нима етсин! Фарғона водийси нақадар гўзал! Пахта терими бошланди!* Ҳис-ҳаяжон оҳанги билан айтилган дарак, сўроқ, буйруқ гаплар ҳис-ҳаяжон гапга айланади: *Далада қанча одам бор? Далада қанча одам бор!*

Кундалик турмушда одамларнинг ўзаро саломлашиши, хайрлашиши каби вазиятларда қўлланадиган гаплар ҳам ундов гаплар ҳисобланади: *Ассалому алайкум, ҳурматли талабалар! Хайр, жонажон шаҳрим!*

Ҳис-ҳаяжон гап сўроқ гапдан ҳосил бўлган бўлса, тиниш белгилари қуйидагича қўйилади:

1) сўроқ мазмуни кучли бўлса, олдин сўроқ, кейин ундов белгиси қўйилади: *Нима бўлди, гапирсангиз-чи?!*

2) ҳис-ҳаяжон кучли бўлса, олдин ундов, кейин сўроқ белгиси қўйилади: *Фарзанд қандай оқлар она ҳаққини!?*

3) айрим ҳолларда ҳис-ҳаяжоннинг ўта кучлилигини ифодалаш учун учта катта ундов белгиси кетма-кет қўйилади: *Ўлим ёвга!!!*

4) бирор сабаб билан узилиб қолган ҳис-ҳаяжон гапнинг охирига ундов белгиси ва ундан кейин кетма-кет иккита нуқта қўйилади: *Мен етим ўсганман, оҳ, у етимлик!.. (Ғ.Ғ.)*

### <u>Такрорлаш учун саволлар</u>

1. Синтаксисда нималар ўрганилади? 2. Сўз єўшилмаси нима? 3. Тенг бојланиш іаєида гапиринг. 4. Тобе бојланиш іаєида гапиринг. 5. Сўз бирикмасининг таърифини айтинг. 6. Бош ва эргаш сўзлар іаєида гапиринг. 7. Отли сўз бирикмаси іаєида гапиринг. 8. Феълли сўз бирикмаси іаєида сўзланг. 9. Содда сўз бирикмаси іаєида гапиринг. 10. Мураккаб сўз бирикмалари іаєида гапиринг. 11. Сўз бирикмасининг сўздан фарєи іаєида гапиринг. 12. Сўз бирикмасининг синтагмадан фарєи іаєида гапиринг. 13. Сўз бирикмасининг гапдан фарєи іаєида гапиринг. 14. Бошєарув усули іаєида гапиринг. 15. Мослашув усули іаєида гапиринг.

16. Битишув усули іаєида гапиринг. 17. Єайси усул билан бирикишда бош ва эргаш сўзнинг ўрни єатъий бўлади? 18. Шаклан бошєарув, мазмунан битишув усули билан бириккан сўз бирикмаларига мисоллар келтиринг. 19. Гап ва унинг асосий белгилари. 20. Дарак гаплар іаєида сўзланг. 21. Сўроє гап ва унинг турлари іаєида сўзланг. 22. Сўроє гаплар єандай воситалар ёрдамида шаклланади? 23. Буйрує гап ва унинг турлари іаєида сўзланг. 24. Іис-іаяжон гаплар іаєида сўзланг. 25. Іис-іаяжон гапларда тиниш белгиларининг єўлланиши іаєида гапиринг.

## 3 - М А Ъ Р У З А
## ГАП БЎЛАКЛАРИ

**Режа:**

1. Гап бўлаклари ҳақида умумий маълумот.
2. Бош бўлаклар:
   а) эга ва унинг ифодаланиши;
   б) кесим ва унинг ифодаланиши, турлари.
3. Боғлама.
4. Кесимлик сўзлари.
5. Эга билан кесимнинг шахс ва сонда ўзаро мослиги.
6. Эга билан кесим орасида тиренинг ишлатилиши.

### 1-§. Гап бўлаклари ҳақида умумий маълумот

Гапда бирор сўроққа жавоб бўлган ва ўзаро тобе боғланган сўз ёки сўз бирикмаси **гап бўлаги** дейилади. Гап бўлакларини белгилашда асосий хусусият улар орасидаги синтактик алоқадир. Сўзларга сўроқ бериш, уларнинг қайси туркумга мансублиги, уларнинг гап ичида жойлашиш тартиби, уларнинг қандай қўшимчалар олиши том маънода уларнинг турларини белгилашда асос бўла олмайди. Гап бўлакларининг тури одатда бир-бирига нисбатан аниқланади: эга кесимга нисбатан, аниқловчи аниқланмишга нисбатан, ҳол ҳолланмишга нисбатан, тўлдирувчи тўлдирилмишга нисбатан аниқланади. Нисбат берилувчи бўлак бўлмас экан, у ёки бу гап бўлаги ҳақида гапириш мумкин эмас. Гап бўлаклари икки турли бўлади: **бош бўлаклар** ва **иккинчи даражали бўлаклар**. **Эга** ва **кесим** гапнинг **бош бўлакларидир**. Улар ўзаро фақат тобе боғланади. Бош бўлаклар гапнинг грамматик асосини ташкил этади.

Гап бўлакларини тузилишига кўра ҳам икки турга бўлишади:

**1. Оддий бўлаклар** якка сўз билан ифодаланади (қўшма, жуфт сўзлар билан ифодаланса ҳам, оддий бўлак ҳисобланади): *Дарс бошланди.*

**2. Мураккаб бўлаклар** турғун боғланмалар (тўғри маъноли ва кўчма маъноли), эркин боғланмалар билан ифодаланган бўлаклардир: *Аравани қуруқ олиб қочиш (нима?) сизга ярашмайди* (турғун боғланма). *Уч оғайни (ким?) ширин суҳбат қуришяпти* (эркин боғланма).

### 2-§. Бош бўлаклар

#### 1. Эга ва унинг ифодаланиши

Гапда кесим билан боғланиб, шу кесимдаги қўшимчалар ифодалаган шахс-сонни билдирувчи ва *ким? нима? қаер?* сўроқларига жавоб бўладиган бўлак **эга** деб аталади. ***Одам*** *(ким?) кўп,* ***иш*** *(нима?) кам.* ***Атроф*** *(қаер?) жимжит.*

Эга бош келишикда бўлиб, одатда, қуйидагича ифодаланади:

1. **От билан**: ***Шамол*** *гул ҳидларини атрофга таратди.*
2. **Олмош билан**: ***Улар*** *тўгарак машғулотларига мунтазам қатнашадилар.*
3. **Ҳаракат номи билан:** ***Ўқиш*** *тугади.*

**4. Отлашган сўзлар билан:**
**а) сифат билан:** ***Яхшилар*** *кўпайсин,* ***ёмон*** *қолмасин.*
**б) сон билан:** ***Икковимиз*** *дала айландик.*
**в) сифатдош билан:** ***Ўқиган*** *ўзар,* ***ўқимаган*** *тўзар.*
**г) равиш билан:** ***Кўплар*** *қатнашди.*
**д) тақлид сўз билан:** *Тўпларнинг* ***гумбур-гумбури*** *эшитиларди.*
**е) модал сўзлар билан**: ***Бор*** *борича,* ***йўқ*** *ҳолича.*
**5. Ибора билан:** ***Унинг юзига оёқ қўйиш*** *ахлоқимизга зид.*
**6. Синтактик бирликлар билан:** ***Отларнинг отхонага олиб ўтилмагани*** *Зиёдиллани таажжублантирди.*

Айрим пайтларда тенг алоқадаги бир неча сўз ҳам бутунича ёки бўлак-бўлак равишда эга бўлиб келиши мумкин: ***Отам билан акам*** *бозорга кетишди.*

Баъзан эга чиқиш келишигидаги сўзлар билан ҳам ифодаланиши мумкин. Бундай пайтларда ҳақиқий эга туширилган бўлиб, ундан олдин келаётган чиқиш келишигидаги сўз эга вазифасини ифодалайдиган бўлиб қолади: *Унда ҳам бу* ***китоблардан*** *бор*. Бу гапдаги ҳақиқий эгани тиклаш мумкин: *Унда ҳам бу китоблардан* ***бири*** *бор*.

## 2. Кесим ва унинг ифодаланиши, турлари

Гапнинг марказини ташкил этиб, тасдиқ-инкор, замон, майл, шахс-сон маъноларини ифодалаб, ҳукм билдирадиган ва гапнинг бошқа бўлакларини (эга, тўлдирувчи, аниқловчи, ҳол) ўз атрофига бирлаштириб келадиган бўлак **кесим** деб аталади. Кесим *нима қилди? нима қилади? нима қилар? қандайдир? (у) ким? (у) нима? (у) нечта?* сингари сўроқларга жавоб бўлади. *Сафаров айтган гапларни ҳаммамиз* ***тушундик***. *Ҳаво* ***майин****, осмон* ***тип-тиниқ***.

Кесим гапнинг мазмуний марказини ташкил этади, шу сабабли бошқа бўлаклар қатнашмасдан ҳам кесим орқали гап ҳосил қилиш мумкин: *Келяпти. Борамиз*.

Кесим ифодалаган ҳукм икки хил (тасдиқ ва инкор) бўлганлиги учун кесим ҳам т а с д и қ кесим ва и н к о р кесимга ажралади: *Мен бордим. Мен бормадим.* Агар гап таркибида *сира, асло, ҳеч, зинҳор, бирорта ҳам* сўзлари иштирок этган бўлса, кесим ҳам инкор шаклида бўлади. Кесимлар мустақил ва номустақил турларга бўлинади. Шарт майлидаги феъллар, равишдош шакллари билан ифодаланиб, қўшма гап қисмларидан бирининг кесими бўлиб келган шакллар **номустақил кесимлар** деб аталади: *Довул* ***кўтарилиб****, ёмғир ёғадиган бўлиб қолди. У* ***келса****, мен кетаман.* Ҳар доим алоҳида қўллана оладиган гаплар таркибида қатнашадиган кесимлар эса **мустақил кесимлар** ҳисобланади: *Дарс бошланди.*

Кесимлар қайси сўз туркуми билан ифодаланишига қараб 2 хил бўлади:

**1. Феъл-кесим** қуйидагича ифодаланади:
**1) соф феъл** билан: *Каримжон мактабдан* ***келди***.
**2) сифатдош** билан: *Бу китобларнинг барчаси* ***ўқилган***.
**3) равишдош** билан: *Болта* ***тушгунча****, тўнка дам олади. (Мақол)*

**2. От-кесим** қуйидагича ифодаланади:
**1) бош, жўналиш, ўрин-пайт, чиқиш келишигидаги отлар** билан: *Ўзбекистоннинг пойтахти -* ***Тошкент****. Бу совга* ***укамга****. Уйнинг калити* ***онамда****. Буларнинг ҳаммаси* ***севинчдан***.
**2) сифат** билан: *Шаҳар* ***гўзал.***
3) олмош билан: *Бу нарса* ***ўз-ўзимники.***
4) отлашган сон билан: *Икки ўн беш -* ***бир ўттиз.***
5) равиш билан: *Дангасанинг важи* ***кўп***.
6) ундов сўз билан: *Буйруқни бажармаганнинг ҳоли* ***вой***.
7) модал сўз билан: *Унинг эзгу ниятлари* ***бор***.

Кесимлар тузилишига кўра ҳам икки турга бўлинади:
1. Содда кесим бир сўздан иборат бўлади:
**1) содда феъл-кесим**: *Мен* ***келдим***.
**2) содда от-кесим**: *Уят ўлимдан* ***қаттиқ***.

**2. Мураккаб кесим** камида иккита сўздан тузилган бўлади:

**1) мураккаб феъл-кесим** қуйидагича тузилади:

а) кўмакчи феълли сўз қўшилмасидан иборат бўлади: *Одамлар* ***тарқала бошлади.***

б) сифатдош ва тўлиқсиз феълдан иборат бўлади. *Машғулот ҳафтада бир марта* ***ўтадиган бўлди****. У* ***келган эди.***

в) ибора билан ифодаланади: *Собир* ***сўзининг устидан чиқди.***

**2) мураккаб от-кесим** қуйидагича тузилади: а) от, сифат, сон, олмош, равиш ҳамда "*бўлмоқ*" феъли ёки тўлиқсиз феълдан иборат бўлади: *Меҳнат қанча* ***қийин бўлса****, нони шунча* ***ширин бўлади.***

б) *йўқ, бор, оз, кўп, зарур, лозим, керак, даркор* каби сўзлар ҳамда *бўлмоқ* феъли ёки тўлиқсиз феълдан иборат бўлади: *Узоқда кўринган шарпа бир зумда* ***йўқ бўлди.***

в) ҳаракат номи ҳамда *керак, лозим* каби сўзлардан иборат бўлади, бунда кесимни эга билан мослаштирувчи шахс-сон қўшимчалари ҳаракат номига қўшилади: *Чойхона янги солинган қишки бинога кўчиб кириши ва байрамда очилиши керак эди.*

## 3-§. Боғлама

От-кесимни эга билан боғловчи восита **боғлама** деб аталади. Боғлама ***-дир*** кесимлик қўшимчаси *( Меҳнатнинг нони шириндир)*, шу қўшимчага синоним бўлган *бўлмоқ, ҳисобланади, саналади* феъллари *(У киши менинг устозим* ***ҳисобланади****.)*, тўлиқсиз феъллар *(У менинг дўстим* ***эди****.)*, шунингдек, от-кесимларга қўшилган шахс-сон қўшимчалари *(Мен* ***ўқувчиман.)*** билан ифодаланади.

## 4-§. Кесимлик сўзлари

Айрим мустақил сўз туркумига мансуб бўлган сўзлар *–моқ,* *–ш(-иш)* қўшимчали ҳаракат номлари билан келиб кесим таркибида қатнашади. Бундай ўз мустақил маъносидан узоқлашиб, гапнинг фикрий маркази вазифасида келган сўзлар **кесимлик сўзлари** деб аталади (17; 96). Улар от (*шарт*), сифат (*керак, зарур, лозим, даркор, мумкин, муҳим*) туркумларига тегишли бўлиши мумкин: *Бу ишни бажариш керак (лозим, зарур…)*

## 5-§. Эга билан кесимнинг шахс ва сонда ўзаро мослиги

### 1. Шахсда мослиги

Эга ва кесим бир-бири билан шахсда ҳамма вақт мос бўлади: ***Биз*** *мактаб жамоат ишларида фаол* ***қатнашамиз****.*

**Д и қ қ а т !** Нутқда "*Ҳайрон бўласан* ***киши****"* тарзидаги гаплар қўлланади. Бу гапда эга ва кесим шахсда мослашмаган: эга ***(киши)*** 3 -шахсда, кесим эса 2-шахсдадир.

### 2. Сонда мослиги

I. Феъл-кесим I ва II шахсда эга билан ҳамма вақт сонда мос бўлади. ***Биз ёрдам бердик****.*

II. Кесим III шахсда эга билан ҳамма вақт сонда мослашавермайди:

1. Кимсани билдирган III шахсдаги эга билан феъл-кесим сонда мос бўлади: ***Деҳқонлар*** *ишни* ***бошлаб юбордилар****.*

2. Кўпликдаги кимсани эмас, нарса-буюмни билдирса, феъл-кесим, одатда, эга билан сонда мослашмай, бирликда ишлатилади: ***Китоблар*** *олинди.*

3. От-кесим кўпликдаги эга билан кўпинча мослашмайди: *Уйда* ***акам, опам ва синглим*** *бор эди.*

4. Гапда эганинг аниқловчиси миқдор сон билан ифодаланса, кесим ва эга бирлик шаклида бўлади: ***Учта қиз*** *келди*.

## 6-§. Эга билан кесим орасида тиренинг ишлатилиши

I. Қуйидаги ҳолатларда эга билан кесим орасига тире қўйилади:

1. Гапнинг кесими бош келишикдаги от билан ифодаланиб, боғлама ёки кесимлик қўшимчаси бўлмаса, эгадан кейин тире қўйилади: *Тошкент – гўзал шаҳар.*

2. Гапнинг эгаси ёки кесими ёхуд уларнинг ҳар иккаласи ҳаракат номи билан ифодаланса ва боғлама бўлмаса, эгадан сўнг тире қўйилади: *Кулиш – умрни узайтириш воситаси.*

3. Гапнинг эгаси ёки кесими бирикмалар билан ифодаланиб, тенглик, ўхшатиш, каби маъноларни билдирса ва боғлама бўлмаса, эгадан кейин тире қўйилади: *Яхши қиз – ёқадаги қундуз.*

4. Эга ёки кесим кўрсатиш олмоши ёхуд миқдор сон билан ифодаланиб, алоҳида ажратиб кўрсатилса, боғлама ёки кесимлик қўшимчаси бўлмаса, эгадан кейин тире қўйилади: *Ана шу – менинг уйим. Уч карра уч – тўққиз.*

5. Эга билан кесим ***бу, у, мана бу*** сўзлари билан ажратилган ҳолатларда тире шу сўзлардан олдин қўйилади: *Истиқлол –* ***бу*** *ўзбек халқининг азалий орзуси.*

II. Қуйидаги ҳолатларда эга билан кесим орасига тире қўйилмайди:

1. Эга кишилик олмоши билан ифодаланган бўлса, боғлама бўлмаса ҳам, тире қўйилмайди: *У тажрибали иқтисодчи.*

2. Кесим келишик қўшимчасини олган бўлса: *Бутун умидимиз* ***сендан***.

3. Эга билан кесим ўртасида *ҳам* ёрдамчи сўзи бўлса: *Мен* ***ҳам*** *кичик пахтакор.*

4. Кесим сифат, сон (миқдор сондан ташқари), равиш билан ифодаланса: *Шаҳримиз* ***гўзал***. *Китоблар сони* ***бешта***. *Менинг орзуларим* ***кўп***.

| |
|---|
| **Д и қ қ а т !** Баъзан таъкидлаш маъносини кучайтириш учун кесимлик қўшимчаси бўлишига қарамай, эгадан кейин тире қўйилиши мумкин: *Адабиёт – ҳаётнинг инъикосидир.* |

### Такрорлаш учун саволлар

1. Єандай сўзлар гап бўлаги бўла олади? 2. Гап бўлакларининг тури єандай аниєланади? 3. Гап бўлаклари гапда тутган мавєеига кўра єандай турларга бўлинади? 4. Гап бўлакларининг тузилишига кўра турлари іаєида гапиринг. 5. Эганинг таърифи ва сўроєлари. 6. Эга єандай сўз-лар билан ифодаланади? 7. Эга єандай келишикдаги сўзлар билан ифодаланиши мумкин? 8. Кесимнинг таърифи ва сўроєлари. 9. Ифодалаган іукм турлари бўйича кесим єандай гуруіларга бўлинади? 10. Кесимнинг єандай сўз туркумлари би-лан ифодаланиши бўйича турлари. 11. Феъл-кесим єандай ифодаланади? 12. От-кесим єандай ифодаланади? 13. Бојлама іаєида гапиринг. 14. Эга билан кесимнинг шахсда мослиги іаєида гапиринг. 15. Эга билан кесимнинг сонда мослиги іаєида гапиринг. 16. Єандай іолатларда эга билан кесим орасига тире єўйилади? 17. Єандай іолатларда бојлама бўлишига єарамай эга билан кесим орасига тире єўйилади?

## 4 - М А Ъ Р У З А
## ИККИНЧИ ДАРАЖАЛИ БЎЛАКЛАР

**Режа:**

1. Тўлдирувчи, унинг турлари ва ифодаланиши:
   а) воситали тўлдирувчи;
   б) воситасиз тўлдирувчи.
2. Аниқловчи ва унинг турлари, ифодаланиши.
   а) сифатловчи-аниқловчи;
   б) қаратқич-аниқловчи;
   в) изоҳловчи.

Гапнинг иккинчи даражали бўлаклари бош бўлакларга тобе бўлиб, уларни тўлдириб, аниқлаб, изоҳлаб келади. Иккинчи даражали бўлаклар 3 хил: **тўлдирувчи, аниқловчи ва ҳол.**

## 1-§. Тўлдирувчи, унинг турлари ва ифодаланиши

Гапдаги бирор бўлакни тўлдириб, унга бошқарув йўли билан тобе ҳолатда боғланган бўлак **тўлдирувчи** дейилади. Тўлдирувчи асосан феъл-кесимга боғланади: *Мен бу гапни укамдан эшитдим*.

Тўлдирувчи икки хил бўлади:

**1. Воситасиз тўлдирувчи** ҳаракатни ўзига қабул қилган, ҳаракат бевосита ўзига ўтган предметни билдиради ва *кимни? нимани? қаерни?* сўроқларига жавоб бўлади. Бу тўлдирувчи кўпинча тушум келишиги шаклидаги сўз билан ифодаланади, бунда у ҳаракатни бутунлай ўзига қабул қилган предметни ифодалайди:

1) от билан: *Ёш ҳаваскорлар ашулани завқ билан айтдилар.*
2) олмош билан: *Сизни чақиришяпти.*
3) отлашган сўзлар билан:
а) отлашган сифат билан: *Яхшини мақтасанг ярашади.*
б) отлашган сон билан: *Учни учга кўпайтиринг.*
в) отлашган сифатдош билан: *Бўлинганни бўри ер.*
г) отлашган равиш билан: *Кўпини сиздан ўрганган.*
д) отлашган тақлид сўз билан: *Этигининг ғарч-ғурчини эшитди.*
е) отлашган ундов сўз билан: *Оҳ-воҳини ҳеч ким сезмасин.*
ё) отлашган модал сўз билан: *Борини сарфлади.*
4) ибора билан: *Ўзига бировнинг оз-моз тил тегизишини кўтармасди.*
5) сўз бирикмаси билан: *Сен кўрганни у ҳам кўрган.*

Воситасиз тўлдирувчи тушум келишик қўшимчасиз ҳам қўлланади*: Ўқувчилар ҳозир китоб ўқишяпти.*

Воситасиз тўлдирувчи баъзан чиқиш келишигидаги сўз билан ҳам ифодаланади, бунда у ҳаракатни қисман ўзига қабул қилган предметни ифодалайди: *Қани ошдан олинг!*

**2. Воситали тўлдирувчи** *кимга? нимага? кимда? нимада? кимдан? нимадан? ким билан? нима билан? ким ҳақида?* каби сўроқларга жавоб бўлади ва қуйидагича ифодаланади:

1) от билан: *Хатни қалам билан ёзди.*
2) олмош билан: *Равшан сен билан боради.*
3) отлашган сўзлар билан:
а) отлашган сифат билан: *Яхшига ёндаш, ёмондан қоч.*
б) отлашган сон билан: *Бешдан иккини айириш керак.*
в) отлашган сифатдош билан: *Айтганимга кўнишмади.*
г) отлашган равиш билан: *Камига узр сўраймиз.*
д) отлашган тақлид сўз билан: *Замбаракларнинг гумбур-гумбурига қулоқ солди.*
е) отлашган ундов сўз билан: *Унинг дод-войига қулоқ солмади.*
ё) отлашган модал сўз билан: *Борига шукур қилиш керак.*
4) ибора билан: *Оғзи бўшга ишониб бўлмайди.*
5) сўз бирикмаси билан: *Кеча келмаганларга хабар бериш керак.*

Кўмакчилар ёрдамида шаклланган воситали тўлдирувчилар билан худди шу кўринишда шаклланган вазият ҳоллари саволларига қараб фарқланади: *Пахта машина билан терилди (нима билан? -* тўлд.). *Пахта завқ билан терилди (қандай? -* ҳол). Жўналиш, ўрин-пайт ва чиқиш келишигидаги сўзлар доимо тўлдирувчи бўлиб келавермайди, улар ҳол вазифасини ҳам бажаради, бунда ҳам улар саволга қараб фарқланади: *У ёлғондан* (ёлғондакамига, жўрттага) *ҳайрон бўлди (қандай? -* ҳол*). У акасидан эшитди (кимдан? -* тўлд.*). У мактабга борди (қаерга? -* ҳол*). Менга гапирди (кимга? -* тўлд.*).*

## 2-§. Аниқловчи ва унинг турлари.

Гапдаги бирор бўлакнинг белгисини ёки бир нарса-буюмнинг бошқасига қарашли эканлигини билдирган бўлак **аниқловчи** дейилади. Аниқловчи гап ичида ҳар доим отга ёки отлашган сўзга боғланади: ***Майда*** *қор ёғяпти.* ***Қовуннинг*** *оғири,* ***тарвузнинг*** *енгили ширин бўлади.*

Аниқловчи гап ичида эгага ҳам, кесимга ҳам, тўлдирувчига ҳам, ҳолга ҳам тобе бўла олади. ***Оппоқ*** *машина* ***кенг*** *кўчада* ***навбатдаги*** *чорраҳани кесиб ўтмоқда эди. Тошкент* ***жуда чиройли*** *шаҳар.*

Аниқловчи икки хил бўлади:

### 1. Сифатловчи-аниқловчи

**Сифатловчи-аниқловчи** предметнинг белгисини, миқдорини, тартибини билдиради ва *қандай? қанақа? қайси? қанча? нечанчи? неча? қаердаги?* каби сўроқларга жавоб бўлади.

Сифатловчи-аниқловчи томонидан аниқланган бўлак **сифатланмиш** деб юритилади. Сифатловчи ва сифатланмиш ўзаро **битишув** йўли билан боғланади: ***Нотаниш*** *киши унга қаради.*

Сифатловчи-аниқловчи қуйидагича ифодаланади:

1. Сифат билан: *Биз* ***сержун*** *ва* ***сергўшт*** *қўйларни кўпайтиряпмиз.*
2. От билан: ***Асфальт*** *йўлдан машиналар ғиз-ғиз ўтиб турибди.* Бундай аниқловчилар баъзан мажозий (кўчма) маънони ифодалаши мумкин: ***Кумуш*** *чойшаб ёпиб далалар...*
3. Сон билан: *Тўйга* ***уч қоп*** *ун олинди.*
4. Олмош билан: ***Бу*** *китоб меники.*
5. Сифатдош билан: ***Ўқиган*** *одам ҳаётда қийналмайди.*
6. Равиш билан: ***Кўп*** *гапнинг ози яхши,* ***оз*** *гапнинг ўзи яхши.*
7. Тақлид сўз билан: ***Шитир-шитир*** *овоз эшитилди.*
8. Модал сўз билан: ***Бор*** *уйда бол томади.*
9. Ибора билан: *Унда* ***оғзининг таноби қочадиган*** *одат бор.*
10. Сўз бирикмаси билан (бунда сифатловчи ва сифатланмиш, қаратувчи ва қаралмиш, тўлдирувчи ва тўлдирилмиш, ҳол ва ҳолланмиш бирикмалари сифатловчи-аниқловчи бўлиб келади): *У* ***биринчи кунги*** *ишни якунлади.* ***Укамнинг уйидаги*** *молларни ҳам олиб кетишибди.* ***Менга тегишли*** *бўлакни қолдиринг.* ***Эртага бўладиган*** *мажлис қолдирилди.*

Баъзан сифатловчи аниқловчилар сўз бирикмалари билан ифодаланиб, **ёйиқ ҳолда** келиши мумкин: ***Мисдек қизариб турган*** *юзини икки кафти орасига олиб, пешонасига юзини босди.* Бунда сифатдош бошқа сўзлар билан бирикма ҳосил қилиб, **сифатдош қурилмани** (18; 95) ташкил этади.

### 2. Қаратқич-аниқловчи

Қаратқич-аниқловчи бирор нарса тегишли, қарашли бўлган шахс ёки предметни билдиради ва *кимнинг?, ниманинг?, қаернинг?* сўроқларига жавоб бўлади. Қаратқич-аниқловчи томонидан аниқланган бўлак **қаралмиш** деб юритилади. Қаратқич ва қаралмиш **мослашув** орқали бирикиб, шахс ва сонда албатта мослашган бўлади: ***Одамнинг*** *қўли - гул.*

Қаратқич-аниқловчи, одатда қуйидагича ифодаланади:

1. Қаратқич келишигидаги от билан: *Гулнор* ***йигитнинг*** *сўзларини диққат билан тинглади.*
2. Қаратқич келишигидаги олмош билан: ***Бунинг*** *фойдаси катта.*
3. Ҳаракат номи билан: ***Ўқишнинг*** *қийинчилиги ҳам бор.*
4. Отлашган сўзлар билан:

1) отлашган сифат билан: ***Бахилнинг*** *боғи кўкармас.*
2) отлашган сон билан: ***Ўннинг*** *ярми - беш.*

3) отлашган сифатдош билан: ***Уларнинг*** *берари ҳам бор.*
4) отлашган равиш билан: *Ишимиздан* ***эртанинг*** *нафаси сезилади.*
5. Ибора билан: ***Оғзи бўшнинг*** *ичида гап ётмас.*
Қаратқич-аниқловчи *-нинг* қўшимчасисиз ҳам қўлланади: ***Болалар*** *хонаси озода эди.*

### 3. Изоҳловчи

Изоҳловчи аниқловчининг алоҳида бир кўриниши бўлиб, бунда изоҳловчи от бошқа бир отни изоҳлайди. Изоҳловчи изоҳлаган от **изоҳланмиш** бўлади: ***Генерал*** *Собир Раҳимов.*
Изоҳловчилар қуйидаги маъноларни ифодалайди:
1) илмий, ҳарбий унвонни билдиради: ***доцент*** *Долимов,* ***майор*** *Аҳмедов.*
2) касб-ҳунарни билдиради: *Салим* ***бўзчи, машинист*** *Бўронов.*
3) лақабни билдиради: *Али* ***тажанг****, Асқар* ***полвон****.*
4) қариндошликни билдиради: *Карима* ***хола****, Қобил* ***бобо****.*
5) жинсни билдиради: ***эркак*** *тарбиячи,* ***аёл*** *ҳайдовчи.*
6) ўхшатишни билдиради: ***Она****-Ватан, қизчалар-****гулчалар****.*
7) тахаллусни билдиради: *Абдулла Қодирий* ***(Жулқунбой)***
Изоҳловчи ва изоҳланмиш умумий ва аниқ маънони билдирувчи турдош отдан иборат бўлса, аниқ маънони билдирувчи от изоҳловчи, умумий маънони билдирувчи от изоҳланмиш бўлади. Ёзувда улар орасига чизиқча қўйилади: *механик -* ***ҳайдовчи****.* Ўхшатишни билдирган изоҳловчи билан изоҳланмиш орасига чизиқча қўйилади: ***она****-Ватан .*
Газета, журнал, корхона, муассаса ва ҳоказоларнинг номини билдирган атоқли отлар ҳам изоҳловчининг бир тури ҳисобланади: *"****Ёшлик****" журнали, "****Туркистон****"* газетаси. Бундай изоҳловчилар шахс номи билан ифодаланса, қўштирноққа олинмай *номли, номидаги* сўзлари билан бирга қўлланади: ***Ойбек номли*** *мактаб.*

## 5–МАЪРУЗА
## Ҳ О Л

**Режа:**

1. Ҳол ҳақида умумий маълумот.
2. Ҳолнинг маъно жиҳатдан тулари.
3. Гап бўлакларининг тартиби

### 1-§. Ҳол ҳақида умумий маълумот

Кўпинча феъл-кесимга боғланиб, унинг белгисини билдирган бўлак **ҳ о л** деб аталади: ***Минбарга*** *нотиқлар* ***бирин-кетин*** *чиқа бошладилар.*
Ҳол баъзан феълдан бошқа туркум билан ифодаланган кесимга ҳам боғланади: ***Кўчада*** *одам* ***к ў п****.*
Ҳол маъносига кўра қуйидаги турларга бўлинади:
**1) вазият (равиш, тарз) ҳоли** *қандай? қай ҳолда? қай тарзда?* каби сўроқларга жавоб бўлади ва ҳар доим феълга боғланади. Вазият ҳоллари равиш, равишдош, от, сифат, олмош, тақлидий сўзлар, ибора билан ифодаланади: *У* ***диққат билан*** *тинглади. Укам* ***чиройли*** *ёзади. У* ***шошмасдан*** *жўнади. Раис билан иккиси* ***дўстларча*** *хайрлашди. У* ***қоровул бўлиб*** *турди. Дарахт барглари* ***дув*** *тўкилди. Буни* ***қандай*** *бажарасиз?* ***Бошини эгган ҳолда*** *келарди.*
Равишдош билан ифодаланган вазият ҳоли ўзига тобе бўлган бўлаклар билан сўз бирикмасини ҳосил қилиши мумкин: *Эшикни* ***секин очиб****, ичкарига қаради.* Бу **ёйиқ вазият ҳоли** дейилади.

**2) ўрин ҳоли** *қаерга? қаерда? қаёққа? қаердан?* каби сўроқларга жавоб бўлади ва кўпинча ўрин равиши, от, олмошлар билан ифодаланади: *Болалар* ***кўчага*** *чиқиб кетишди. У* ***орқадан*** *қочди.* ***Бунда*** *булбул китоб ўқийди...(Ҳ.О.)*

**3) пайт ҳоли** *қачон? қачонгача? қачондан бери? қайвақт?* каби сўроқларга жавоб бўлади ва кўпинча от, пайт равиши, олмош, пайт равишдоши, сифатдош, ҳаракат номи, сон, сифат билан ифодаланади: *Имтиҳонлар* ***ёзда*** *бўлади.* ***Бугун*** *мактабим ёнидан ўтдим.* ***Шунда*** *мен бир сапчиб тушганман. Нафасимни* ***ростлагач****, тикилиброқ қарадим. Буни* ***ўқиётганимда*** *сезиб қолдим.* ***Қайтишда*** *сизникига кириб ўтамиз.* ***Кўлим бўшида*** *ўқийман. Йиғилиш* ***учда*** *бўлади.*

**4) миқдор ҳоли** *қанча?, қанчалаб?, нечалаб?, неча марта?* каби сўроқларга жавоб бўлади ва кўпинча миқдор-даража равишлари, сон, сифат ва миқдор-даража маъносини билдирган сўз бирикмалари билан ифодаланади: *Мен* ***жуда кўп*** *қайғурдим.* ***Ўн марта*** *эшитгандан,* ***бир марта*** *кўрган афзал. Бир онда ўз кучининг* ***ўлчовсиз даражада*** *ўсга-нини сезди. Сиз* ***қанча*** *тердингиз? Булар* ***қоп-қоп*** *териб қўйишди. Мен* ***ўйлаган даражада*** *қилишармикан?*

**5) сабаб ҳоли** *нима сабабдан? нима сабабли? нима учун? нимага? нега?* каби сўроқларга жавоб бўлади ва қуйидагича ифодаланади:

а) сабаб равиши билан: *Отаси* ***noилож*** *кўнди.*

б) *-лик, -сиз+лик, -ган+лик* қўшимчали чиқиш келишигидаги отлар, сифатдошдан кейин *-дан* қўшимчасини келтириш билан: *Салима опа* ***қувонганидан*** *ҳеч гапира олмас эди.*

в) *-гани, -ганлиги* қўшимчали сўзлардан кейин сабабли, туфайли, учун сўзларидан бирини келтириш билан: *У* ***ўқимагани учун*** *билмади.*

**6) мақсад ҳоли** *нима мақсадда? нима учун? нима қилгани? нима қилгали? нега?* сўроқларига жавоб бўлиб, қуйидагича ифодаланади:

а) мақсад равиши билан: *Мен* ***атайин*** *гапирмадим.*

б) жўналиш келишигидаги ҳаракат номи ёки ҳаракат номидан кейин учун кўмакчисини келтириш билан: *У* ***ўқиш учун*** *келди.*

в) мақсад равишдоши билан: *У* ***ўқигани*** *келди.*

г) феълдан сўнг *учун*, *деб* сўзларини келтириш билан: ***Ўқийман деб*** *келди.*

г) ҳаракат номидан кейин *мақсадида, мақсадда, мақсади билан* сўзларини келтириш ёрдамида: *Гулнор опа бафуржа* ***гаплашиш мақсадида*** *келди.*

**7) шарт ҳоли** *нима қилса(-м , -нг, -к , -нгиз)* сўроғига жавоб бўлади ва бир ҳаракатнинг бажарилиши учун шарт бўлган иш-ҳаракатни билдиради: ***Эксанг*** *ўрасан.* ***Қайтариш шарти билан*** *олди.*

**8) тўсиқсизлик ҳоли** *нима қилса (-м, -нг, -к , -нгиз) ҳам, -да?* сўроқларига жавоб бўлиб, бир иш-ҳаракатнинг бажарилиши учун тўсиқ бўла олмайдиган иш-ҳаракатни билдиради ва шарт феъли+*ҳам(-да)*, равишдош, сифатдош+*билан* кўмакчиси, *қарамай, қарамасдан* сўзлари қатнашган қурилма орқали ифодаланади: ***Чақирилмаса ҳам*** *қатнашди.* ***Кичик бўлгани билан*** *анча оғир эди.* ***Шошганига қарамай*** *кутиб турди.*

## 2-§. Гап бўлакларининг тартиби

Бу тартиб икки хил: **1. Одатдаги тартиб** :

1) эга ( ўз аниқловчиси билан) олдин, кесим гапнинг охирида келади: *Ёш ҳаваскорлар тўпландилар.*

2) пайт ҳоли эгадан олдин келади: *Бугун ёш ҳаваскорлар тўпландилар.*

3) тўлдирувчилар ўз аниқловчиси билан эгадан кейин келади: *Бугун ёш ҳаваскорлар деҳқонларга катта томоша кўрсатдилар.*

4) вазият ҳоли кесимдан олдин келади: *Дарё узоқдан товланиб кўринарди.*

Одатдаги тартиб илмий услубга кўпроқ хосдир: *Изоҳловчилар кўпинча от сўзлар билан ифодаланади. (Дарсликдан)*

**2. Ўзгарган тартиб (** бу **инверсия** ҳам дейилади**):**

1) эга кесимдан кейин келади: *Яшасин мустақиллик!*

2) тўлдирувчи кесимдан кейин келади: *Тўхтат сувни!*

3) вазият ҳоли феъл-кесимдан кейин келади: *Шамол эсади гир-гир.*

Ўзгарган тартиб сўзлашув ва бадиий услуб учун хосдир: *Бир ажиб ҳис бор эди менда...(Ҳ.О.)*

**Такрорлаш учун саволлар**

1. Тўлдирувчининг таърифини айтинг. 2. Воситасиз тўлдирувчи ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 3. Воситали тўлдирувчи ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 4. Воситали тўлдирувчи ва вазият іоли ўхшаш бўлган іолатлар іаєида гапиринг. 5. Аниєловчининг таърифини айтинг. 6. Аниєловчи гапда єайси бўлакларга тобе бўлиб келади? 7. Сифатловчи аниєловчи ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 8. Ёйиє сифатловчи аниєловчи іаєида гапиринг. 9. Єаратєич аниєловчи ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 10. Изоіловчи іаєида гапиринг. 11. Іолнинг таърифини айтинг. 12. Ўрин іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 13. Пайт іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 14. Миєдор іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 15. Вазият іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 16. Сабаб іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 17. Маєсад іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 18. Шарт іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 19. Тўсиєсизлик іоли ва унинг ифодаланиши іаєида гапиринг. 20. Гап бўлакларининг одатдаги тартиби іаєида гапиринг. 21. Гап бўлакларининг ўзгарган тартиби іаєида гапиринг.

## 6 - М А Ъ Р У З А
## УЮШИҚ БЎЛАКЛИ ГАПЛАР

**Режа:**

1. Уюшиқ бўлаклар ҳақида умумий маълумот
2. Уюшиқ бўлакларда кўплик, эгалик ва келишик қўшимчаларининг қўлланиши
3. Умумлаштирувчи бўлак (қисм) ва унда тиниш белгиларининг ишлатилиши
4. Уюшиқ ва уюшмаган сифатловчи-аниқловчи ҳамда ҳоллар

### 1-§. Уюшиқ бўлаклар ҳақида умумий маълумот

Ҳар бир гап бўлаги гапда бирдан ортиқ бўлиши мумкин. Бундай гаплар **уюшиқ бўлакли гаплар** деб юритилади. Бир хил сўроққа жавоб бўлиб, ўзаро тенг алоқада, бошқа бўлаклар билан тобе алоқада бўладиган ва гапдаги бир бўлакка боғланган бўлаклар **гапнинг уюшиқ бўлаклари** деб аталади. Бу бўлаклар ўзаро тенг боғловчилар ёки санаш оҳанги билан боғланади: *Бола гоҳ **менга**, гоҳ **унга** қарар эди.* Гапнинг барча бўлаклари уюшади:

1) эга уюшади: *Бугун **Анвар** ёки **Собир** навбатчилик қилади.*

2) Кесим уюшади: а) феъл-кесим: *У аста жойига **ўтирди** ва **гапира бошлади.*** б) от-кесим: *Йўл **кенг** ва **текис эди.***

3) тўлдирувчи уюшади: а) воситасиз тўлдирувчи: *Китоб(ларни) ва дафтарларни келтирди.* Б) воситали тўлдирувчи: *Акамга ва опамга хабар қилдик.* 4) аниқловчи уюшади: а) сифатловчи-аниқловчи: *Салқин ва баҳаво боғда дам олдик.* Б) қаратқич-аниқловчи: *Олма(нинг) ва шафтолининг ҳосили мўл бўлди.*

5) ҳол уюшади: а) вазият ҳоли: *Топшириқни тез ва пухта бажардик.* б) пайт ҳоли: *Бугун ва эртага мен навбатчилик қиламан.* в) ўрин ҳоли: *Шаҳар ва қишлоқларда қурилишлар авжига чиққан.* г) сабаб ҳоли: *Қувонч(дан) ва шодликдан тили гапга айланмас эди.* д) мақсад ҳоли: *У шаҳарга ўқиш ёки ишлаш мақсадида келган эди.* е) миқдор ҳоли: *Мен сизга ўн марта, юз марта гапирдим.* ё) шарт ҳоли: *Агар меҳнат қилмасанг, интилмасанг ўз мақсадингга эриша олмайсан.* ж) тўсиқсизлик ҳоли: *У чарчаса ҳам, йиқилиб қолгудек бўлса ҳам юришдан тўхтамади.*

Уюшиқ эгалар шахсни англатса, кесим бирликда ҳам, кўпликда ҳам бўлиши мумкин: *Карим, Салим ва Аҳмад келди(лар).* Уюшиқ эгалар жонсиз нарсаларни ифодаласа, кесим одатда, бирликда бўлади: ***Стол** ва **стуллар** тартибга келтирилган.*

Гапда кўмакчи феълли сўз қўшилмалари уюшиқ кесим бўлиб келганда баъзан кўмакчи феъл етакчи феълларнинг энг сўнггисига боғланиб келиши мумкин: *У аллақачон ёзиб, чизиб бўлди*.

Уюшиқ бўлаклар ёйиқ ҳолда ҳам бўлади: *Маърузачига **қизиқ, кишини ҳайратда қолдирадиган** саволлар беришди.*

Уюшиқ бўлаклар жуфт-жуфт бўлиб ҳам қўлланади: *Шаҳримизда кенг ва текис, тоза ва ёруғ кўчалар кўпаймоқда.*

## 2-§. Уюшиқ бўлакларда кўплик, эгалик ва келишик қўшимчаларининг қўлланиши

Бу қўшимчаларнинг қўлланиши икки хил бўлади:

1. Сон (кўплик), эгалик ва келишик қўшимчалари уюшиқ бўлакларнинг охиргисига қўшилади: *Нома ва ариза**ларнинг** баъзилари мирзо, муфти**ларга** ҳавола қилинар эди.*
2. Гапдаги уюшиқ бўлакларнинг ҳар бирида сон, эгалик, келишик қўшимчалари алоҳида-алоҳида такрорланади: *Қор совуғи қўл**лариmни** ва оёқ**ларимни**, пешона**мни** ялаб турса-да, менга жуда ёқимли туюлди.*

Нутқда сон, эгалик ва келишик қўшимчаларнинг уюшиқ бўлакларда ҳар хил ишлатилиш ҳоллари ҳам учрайди: *Болалар яслилари ва боғчаларида, мактабларда меҳнаткашларнинг фарзандлари тарбияланмоқдалар .*

Гапда уюшиқ бўлаклар боғловчиларсиз, санаш оҳанги ёрдамида, бириктирув боғловчилари *(ва, ҳамда),* улар вазифасидаги *-у, -ю* юкламалари, *билан* кўмакчиси, зидлов боғловчилари *(аммо, лекин, бироқ), на* юкламаси, *-да* юкламаси, *гоҳ, ёки, ёхуд, дам, баъзан, ё* каби айирув боғловчилари билан боғланиб келади: *Машина секинлади, лекин тўхтамади*.

Гапнинг уюшиқ бўлаклари гуруҳ-гуруҳ бўлса, бу гуруҳлар бир-биридан нуқтали вергул билан ажратилади: *Ютиб чиқиш учун от **чопқир**, **зотдор бўлиши**, яхши **тобланиб**, **совитилиши;** чавандоз **уста, эпчил бўлиши керак**.*

## 3-§. Умумлаштирувчи бўлак (қисм) ва унда тиниш белгиларининг ишлатилиши

Уюшиқ бўлакли гапларда сўзларни жамловчи умумлаштирувчи бўлак бўлиши мумкин. Кўпинча белгилаш, бўлишсизлик олмошлари ва жамловчи от, жамловчи сонлар, шунингдек, сўз бирикмалари, кенгайган бирикмалар **умумлаштирувчи бўлак** бўлиб келади: *Уйлар, дарахтлар, кўчалар – **ҳаммаси** қоронғилик қаърига чўмди. **Ишга янги қабул қилинганлар:** Аҳмад, Салим ва Акбар бошилиқнинг олдига киришсин.* Умумлаштирувчи бўлак қандай вазифани бажарса, уюшиқ бўлаклар ҳам шундай вазифани бажаради.

Умумлаштирувчи бўлаклар уюшиқ бўлаклардан олдин келса, ундан кейин икки нуқта қўйилади: *Қудратнинг олдидан **икки ўртоғи:** Илҳом ва Рустам чиқиб келди.* Умумлаштирувчи бўлак уюшиқ бўлаклардан кейин келса, ундан олдин тире қўйилади: *Шу ҳовли-жой, мана шу дарахтлар, курси, сўри - **ҳаммаси** меники.*

## 4-§. Уюшиқ ва уюшмаган сифатловчи-аниқловчи ҳамда ҳоллар

Санаш оҳанги билан айтиладиган ва ёзувда вергул билан ажратиладиган аниқловчи ёки ҳоллар **уюшиқ аниқловчи ва ҳоллар** ҳисобланади (бу ҳақда юқорида сўз юритилди). Санаш оҳанги билан айтилмайдиган, ёзувда орасига вергул қўйилмайдиган аниқловчилар ва ҳоллар **уюшмаган аниқловчи ва ҳоллар** ҳисобланади. Уюшмаган сифатловчи-аниқловчи ва ҳоллар ўзи боғланган бўлакнинг турли томонига оид белгиларни англатади: ***Қоп-қора ширин** узумлар ғарқ пишган. **Бугун мактабда** ота-оналар мажлиси бўлади.*

**8–МАЪРУЗА**
# АЖРАТИЛГАН БЎЛАКЛАР
**Режа:**

1. Ажратилган бўлаклар ҳақида умумий маълумот:
   а) ажратилган бош бўлаклар;
   б) ажратилган иккинчи даражали бўлаклар.
2. Ажратилган изоҳ бўлакларда тиниш белгиларининг ишлатилиши

## 1-§. Ажратилган бўлаклар ҳақида умумий маълумот

Ўзидан олдинги бўлакнинг маъносини изоҳлаб, бўрттириб, тўлдириб, аниқлаштириб келган бўлак **ажратилган изоҳ бўлак** дейилади: *Мен ишни мана шундан,* ***яъни тушунтиришдан*** *бошладим.*

Ажратилган бўлакларнинг уюшиқ бўлаклардан фарқи шундаки, улар бир тушунчанинг иккита номидир, яъни бир шахс ёки бир нарса икки марта номланади, уюшиқ бўлаклар эса бир неча шахс ёки нарсани ифодалайди.

Гап бўлакларининг ажратилишида гапда сўз тартибининг ўзгариши, гап бўлакларининг кенгайиши, бир бўлакнинг ўзидан олдинги бўлакни изоҳлаши бир бўлакни бошқаларидан ажратиб бўрттириб кўрсатиш зарурияти кабилар сабаб бўлиши мумкин. *Кўчада борар,* ***ғамгин ва ўйчан****. Укаси,* ***кўзлари чақнаган****, унга ғазаб билан қаради. Олдинда,* ***муюлишда****, бир қора кўринди. У ҳар куни,* ***қуёш тикка келганда****, шаҳарга тушади.*

Қуйидаги гап бўлаклари ажратилади:

**1. Ажратилган эга** ўзидан олдин кишилик олмошлари, от ва отлашган сўзлар билан ифодаланиб келган эгани изоҳлайди: *Биз,* ***ёшлар****, буни эсдан чиқармаслигимиз керак*

**2. Ажратилган кесим** ўзидан олдин келган кесимни изоҳлайди: 1) феъл-кесим: *Мен уни кўндиришга ҳаракат қилдим –* ***ялиндим, ёлвордим, ҳатто тиз чўкдим****.* 2) от-кесим: *У шоир –* ***инсон руҳининг билимдони.***

**3. Ажратилган изоҳ тўлдирувчи** ўзидан олдинги тўлдирувчини изоҳлаб келади: *Менга, яъни университет талабасига, шундай ишонч билдиришяптими, демак, мен бор кучимни ишга солишим керак.*

Тўлдирувчи *ташқари, бошқа, ўрнига, билан, бирга* каби сўзли бирикмалар билан ифодаланганда ҳам ажратилади: *Мендан ташқари, у ҳам бор.*

**4. Ажратилган изоҳ аниқловчи** ўз навбатида қуйидаги турларга бўлинади:

1) **ажратилган изоҳ қаратқич-аниқловчи** ўзидан олдинги қаратқич-аниқловчини изоҳлайди: *Бир неча кишиларнинг, аёл ва эркакларнинг қораси кўринди.*

2) **ажратилган сифатловчи-аниқловчи** сифатланмишдан кейин келиб уни изоҳлайди (баъзи дарсликларда бу **терс сифатловчи-аниқловчи** деб аталади (18; 72): *Гуллар тердим, чиройли.*

**5. Ажратилган изоҳ ҳол** гапда ўзидан олдинги ҳолни изоҳлаб келади. Қуйидаги ҳол турлари ажратилади:1) ўрин: *Унинг қўлидан ушлаб ичкарига, меҳмонхонага, бошлади.* 2) пайт: *Анжуман бугун, соат бешда, бошланади.* 3) равиш(вазият): *Қуллар ишлар тез – мўъжизакор.* 4) мақсад: *Шаҳарга бориш учун, яъни ўғлини кўриш учун, улов қидирди* 5) миқдор-даража: *Бугун сизни яна, иккинчи марта кечиришди.*

Кўпинча равишдош ва сифатдош билан ифодаланган ҳоллар ҳам кенгайган ҳолда ажратилиши мумкин: *Ўзидан ўзи ҳадиксираб, атрофга олазарак боқади. Отаси, икки қўлтиғида нарса кўтарган ҳолда, йўлга тушди.*

## 2-§. Ажратилган изоҳ бўлакларда тиниш белгиларининг ишлатилиши

Ёзма нутқда изоҳ бўлаклар кўпинча вергул ва тире билан ажратилади:

1. Изоҳ бўлаклар икки томонидан вергул билан ажратилади: *Канал бўйидаги чойхонада,* ***автобус бекатида****, Аъзамжон учради.*
2. Изоҳ бўлакларнинг ўз ичида вергул бўлса, икки томонига тире қўйилади: *Энди одамлар –* ***отлиқ, пиёда, ёш-қари*** *- учрай бошлади.*
3. Ажратилган бўлак кенгайиб, уюшиб, гап охирида келса, ундан олдин тире қўйилади: *Менинг ўз муҳаббатим бор – тоза ва мусаффо!*
4. Бош келишикдаги кишилик олмошини изоҳлаган бўлаклардан аввал тире, кейин вергул қўйилади: *Мен - Фозилова Фотима, VII синфда ўқийман.*
5. Ёзма нутқдаги *Отам - Илёс Тоҳиров, заводда ишлайди* каби гапларда ҳам шундай.

**<u>Такрорлаш учун саволлар</u>**

1. Уюшиє бўлакли гаплар іаєида гапиринг. 2. Уюшиє бўлаклар таърифини айтинг. 3. Єандай бўлаклар уюшиб келади? 4. Уюшиє бўлаклар єандай кўринишларда бўлиши мумкин? 5. Уюшиє бўлакларда эгалик, келишик, кўплик єўшимчалари єандай єўлланади? 6. Уюшиє бўлаклар ўзаро єандай воситалар ёрдамида бојланиши мумкин? 7. Умумлаштирувчи бўлак ва унда тиниш белгиларининг ишлатилиши іаєида гапиринг. 8. Уюшиє ва уюшмаган сифатловчи аниєловчилар іаєида гапиринг. 9. Ажратилган изоі бўлакларнинг таърифини айтинг. 10. Гап бўлакларининг ажратилишига нима сабаб бўлади? 11. Ажратилган изоі тўлдирувчи іаєида гапиринг. 12. Ажратилган изоі сифатловчи аниєловчи іаєида гапиринг. 13. Ажратилган изоі єаратєич аниєловчи іаєида гапиринг. 14. Ажратилган изоі іол іаєида гапиринг. 15. Равишдош ўрам ва сифатдош ўрам кўринишида ажратилган іоллар іаєида гапиринг. 16. Кесимнинг ажратилишига мисоллар келтиринг. 17. Ажратилган изоі бўлакларда тиниш белгиларининг єўлланиши іаєида гапиринг. 18. Уюшиє бўлакларнинг ажратилган бўлаклардан фарєини айтинг.

# 9 - М А Ъ Р У З А
# ГАПНИНГ ТУЗИЛИШ ЖИҲАТДАН ТУРЛАРИ

**Режа:**

1. Гапларнинг тузилиш турлари ҳақида умумий маълумот
2. Содда гаплар ва уларнинг турлари
3. Икки бош бўлакли гапларнинг турлари
4. Бир бош бўлакли гапларнинг турлари
5. Сўз-гаплар ҳақида маълумот
6. Тўлиқ ва тўлиқсиз гаплар ҳақида маълумот

## 1-§. Гапларнинг тузилиш турлари ҳақида умумий маълумот

Гаплар тузилиш жиҳатдан икки хил бўлади ва улар ўзаро грамматик асослар миқдорига кўра фарқланади:

1. **<u>Содда гапларда</u>** битта эга ва кесим муносабати, яъни битта грамматик асос мавжуд бўлади: *Дарс эрта бошланди. Бугун ёмғир ёғмади. Баҳор келди.* Баъзан содда гап эгасиз, фақат битта кесимдан иборат бўлиб, бошқа бўлаклар шу кесим атрофига бирлашади: *Бугун Москвадан укам билан учиб келдим.*
2. **<u>Қўшма гапларда</u>** икки ва ундан ортиқ эга ва кесим муносабати, яъни грамматик асос мавжуд бўлади: *<u>Қўнғироқ</u> <u>чалинди</u> ва <u>дарс</u> <u>бошланди</u>.*

Шуни назарда тутиш керакки, **кесимлик белгиси** гапнинг асосий белгисидир. Бунга кесим орқали ифодаланган замон, шахс-сон, майл хусусиятлари киради. Демак, битта кесимлик

белгисига эга бўлган гапни содда гап, иккита ва ундан ортиқ кесимлик белгисига эга бўлган гапни эса қўшма гап деб аташ мумкин.

## 2-§. Содда гаплар ва уларнинг турлари

Содда гаплар грамматик асосига кўра икки гуруҳга бўлинади (грамматик асос – бу эга ва кесимдир):

**1) бир бош бўлакли** гапларнинг грамматик асосида бир бош бўлак мавжуд бўлади: *Ота-оналарга **ёрдам бердик**.*

**2) икки бош бўлакли гапларнинг** грамматик асосида ҳар иккала бош бўлак ҳам, яъни эга ва кесим ҳам қатнашади: ***Биз** мактабга **бордик**.*

## 3-§. Икки бош бўлакли гапларнинг турлари

**1. Йиғиқ икки бош бўлакли гаплар** таркибида бош бўлакларгина мавжуд бўлади: *Ўқувчилар йиғилдилар.* Баъзан эга ва кесим бирикма билан ифодаланиб, кенгайиб келади ва иккинчи даражали бўлаклар борга ўхшаб кўринади, лекин бу гаплар ҳам йиғиқ гаплар ҳисобланади: *Йигит ҳам шунақа бўладими? Икки дугона термилиб қолишди.*

**2. Ёйиқ икки бош бўлакли гаплар** таркибида бош бўлаклардан ташқари, иккинчи даражали бўлаклар ҳам қатнашади: *Ўқувчилар майдончага йиғилдилар.*

## 4-§. Бир бош бўлакли гапларнинг турлари

**1. Шахси маълум (аниқ) гаплар** кесимига қараб эгани аниқлаш мумкин бўлган гаплардир: *Ютуқлар олдида эсанкирамайлик (Биз).*

**2. Шахси номаълум (ноаниқ) гаплар** кесимига қараб иш-ҳаракатнинг ҳақиқий бажарувчисини аниқлаш мумкин бўлмаган гаплардир: *Яхшини мақтайдилар, ёмонни уялтирадилар.* (кесим 3-шахсдаги феъл билан ифодаланганда, шахси маълум ва шахси номаълум гаплар қуйидагича фарқланади: шахси маълум гапда сўзловчи ўзига таниш шахс ҳақида сўз юритади, шахси номаълум гапда эса ўзи шахсан танимаган шахс(лар) ҳақида сўз юритади: *Бугун келди* - шахси маълум гап. *Севгини чидаганга чиқарган* – шахси номаълум гап)

**3. Шахси умумлашган гаплар** мазмунан ҳар учала шахсга тааллуқли бўлган гаплардир: *Санамай саккиз дема.*

Бундай гапларнинг кесими одатда, II шахс бирликда буйруқ майлидаги феъл билан ифодаланса ҳам, мазмунан барчага қаратилган бўлади, шунинг учун эга ифодаланмайди. Халқ мақоллари шахси умумлашган гаплар орқали ифодаланади: *Бугунги ишни эртага қўйма.*

**4. Шахси топилмас (шахссиз) гаплар** эгасини топиб ҳам, гап таркибига киритиб ҳам бўлмайдиган гаплардир: *У ерда интизом ҳақида сўзлашга тўғри келди.*

Шахси топилмас гапларнинг кесимлари 3-шахс мажҳул нисбатдаги феъллар, *бўлади, бўлмайди* сўзлари орқали, *-мас* қўшимчали сўз орқали, ҳаракат номидан кейин *керак, зарур, лозим, мумкин* сўзларини келтириш орқали ифодаланади: *Раиснинг ўзи ҳақида гапирилсин! Меҳнатсиз роҳатга эришиб бўлмайди. Ойни этак билан ёпиб бўлмайди. Эрталабки салқинда етиб бориш керак.*

**5. Атов (номинатив) гаплар** бош келишикдаги от орқали ифодаланган грамматик асос ёрдамида ифодаланган нарса-буюмнинг борлигини, мавжудлигини англатади ва кўпинча бадиий ва публицистик асарларда пайт ва ўринни ифодалаш учун ишлатилади: ***Куз**. Изғирин шабада эсяпти.* Атов гаплар матнда ёлғиз қўлланмайди, улардан кейин унинг мазмунини очувчи бошқа бир гап келиши зарур.

Атов гапларнинг охирига, одатда нуқта қўйилади, агар кучли оҳанг билан айтилса, ундов белгиси қўйилади: *Тоғлар! Баланд тоғлар!*

Атов гаплар бир сўздан иборат бўлиши *(**Кўча**. Машиналар ғиз-ғиз ўтмоқда)* ёки ўз аниқловчиси билан кенгайиб *(**Катта кўча**. Одамлар тўлқини уни ўз қаърига тортиб кетди)* келиши мумкин:

**6. <u>Инфинитив гаплар</u>** грамматик асоси ҳаракат номи билан ифодаланадиган, якка сўз ёки сўз бирикмасидан иборат бўлган гаплардир: ***<u>Севиш</u>****! Бу қандай бахт!* ***<u>Бировни кутиш!</u>*** *Бундан азоблироқ нарса бўлмаса керак!*

## 5-§. Сўз-гаплар ҳақида маълумот

Бир сўз билан ифодаланиб, бўлакларга бўлинмайдиган ва бошқа сўзлар билан кенгаймайдиган гаплар сўз-гаплар деб юритилади. Бу гаплар содда гапларнинг бир тури ҳисобланади: *Эртага уникига борасизми?* - ***Ҳа.***

Сўз-гаплар қуйидаги турларга бўлинади: **1) модал сўз-гаплар** қатъий ишонч, тахмин, гумон, маъноларини ифодалаб келадиган гаплардир: - *Эртага келасизми? – Албатта.* 2) **ундов сўз-гаплар** ҳис-туйғу ва ҳайдаш-чақириш ёки жавоб маъноларини ифодалайдиган гаплардир: - *Оҳ, - деди-ю, секин диванга ўтириб қолди.* 3) **тасдиқ сўз-гапларга** *ҳа, майли, хўш, хўп* каби сўзлар киради; 4) **инкор сўз-гапларга** *йўқ, мутлақо, асло, сира, аксинча* сўзлари киради; 5) **таклиф сўз-гаплар** тингловчига қаратилиб, бирор иш-ҳаракатни бажаришга ундайдиган гаплардир. Буларга *ма, манг, қани, марҳамат* каби сўзлар киради. Ёзувда сўз-гапларнинг охирига нуқта, ундов белгиси, кўп нуқта қўйилиши мумкин. *Ҳа, йўқ, майли* сўзларидан кейин вергул қўйилиб, кейин гап бўлаклари қўлланса, бу сўзлар кириш сўзлар ҳисобланади ва сўз-гаплар ҳисобланмайди: - *Кеча музейга бордингизми? - Ҳа, бордик.*

*Офарин, ташаккур, раҳмат, баракалла, салом, марҳамат, узр* каби сўзлар билан ифодаланиб, миннатдорлик, саломлашиш, кечирим, илтимос кабиларни ифодалайдиган гаплар ҳам сўз-гаплар ҳисобланади.

Сўз-гаплар кўпинча диалогик нутқда қўлланади.

## 6-§. Тўлиқ ва тўлиқсиз гаплар ҳақида маълумот

Фикрни ифодалаш учун зарур бўлган гап бўлакларининг барчаси қатнашган гаплар **<u>тўлиқ гаплар</u>** дейилади: *Улардан хат келдими?*

Нутқ вазиятидан маълум бўлган айрим бўлаклари туширилган гаплар **<u>тўлиқсиз гаплар</u>** дейилади: - *Сиз мактабга борасизми?* - ***Бораман*** (эга - *мен*, ҳол – *мактабга* туширилган). Тўлиқсиз гапларда қайси бўлакнинг туширилиши нутқ вазиятига қараб амалга оширилади. Бундай гапларда навбати билан барча бўлаклар туширилиши мумкин. Қайси бўлакнинг туширилганлиги тўлиқсиз гапдан олдин келган тўлиқ гапга қиёслаган ҳолда аниқланади: - *Ражаббекникида бўлган мажлисни сен биласанми?.. – деб сўради.* (Тўлиқ гап) – *Биламан.* (тўлиқсиз гап) *(А.Қод.)* Юқоридаги тўлиқ гап таркибида аниқловчи *(Ражаббекникида бўлган)*, тўлдирувчи *(мажлисни),* эга *(сен)* ва кесим *(биласанми)* мавжуд бўлса, кейинги тўлиқсиз гапда шу бўлаклардан фақат кесимгина *(Биламан)* қолдирилган.

Тўлиқсиз гапларнинг турлари: 1) диалогик нутқ таркибидаги тўлиқсиз гап: *Ким келмади?* ***Аҳмад.*** 2) ибора тарзидаги тўлиқсиз гап: *Туғилган кунингиз билан! Наврўзингиз муборак! Байрамингиз билан!*
3) қўшма гап таркибидаги тўлиқсиз гап: *Яхшидан от қолади, ёмондан дод (қолади).*

Тўлиқсиз гаплар суҳбатда, сўзлашув нутқида ва бадиий асарларда кўпроқ қўлланади.

**<u>Такрорлаш учун саволлар:</u>**

1. Содда гапларнинг таърифини айтинг. 2. Єўшма гапларнинг таърифини айтинг. 3. Содда гапларнинг грамматик асосга кўра турлари іаєида гапиринг. 4. Икки бош бўлакли гапларнинг турлари іаєида гапиринг. 5. Шахси маълум гап іаєида гапиринг. 6. Шахси номаълум гап іаєида гапиринг. 7. Шахси умумлашган гап іаєида сўзланг.
8. Шахси топилмас гап іаєида гапиринг. 9. Атов гаплар іаєида гапиринг. 10. Сўз-гаплар іаєида гапиринг. 11. Тўлиєсиз гаплар таърифини айтинг. 12. Тўлиєсиз гапларнинг турлари іаєида гапиринг. 13. Тўлиєсиз гапларда єандай бўлаклар туширилиши мумкин?

14. Єандай бирликлар гап бўлаклари билан бојланмаслиги мумкин? 15. Ундалманинг таърифини айтинг. 16. Ундалма єайси шахсларга єаратилган бўлади? 17. Йиjиє ундалма іаєида гапиринг. 18. Ёйиє ундалма іаєида гапиринг. 19. Ундалмалар єандай сўзлар билан ифодаланади? 20. Кириш сўз ва кириш бирикмалар іамда уларнинг маъно турлари іаєида гапиринг. 21. Кириш гап іаєида гапиринг ва мисол келтиринг. 22. Кириш гап турлари іаєида гапиринг. 23. Ундалма, кириш сўз, кириш бирикма ва кириш гапларда тиниш белгиларининг ишлатилиши іаєида гапиринг.

## 10–МАЪРУЗА

## ГАП БЎЛАКЛАРИ БИЛАН АЛОҚАГА КИРИШМАЙДИГАН “БЎЛАКЛАР”

**Режа:**

1. Гап бўлаклари билан алоқага киришмайдиган “бўлаклар” ҳақида умумий маълумот.
2. Ундалма
3. Кириш сўз, кириш бирикма ва кириш гаплар ҳақида

Нутқда гап бўлаклари билан грамматик боғланмайдиган сўзлар қатнашадиган гаплар ҳам қўлланади. Бундай сўзлар маъно жиҳатдан бутун гапга ёки унинг бирор бўлагига алоқадор бўлади. Булар **ундалма, кириш сўз**, **кириш бирикма** ва **кириш гаплардир**. Бундай бирликларга синтактик алоқа амал қилмайди, улар бошқа гап бўлаклари билан синтактик жиҳатдан боғланмайди.

### 1-§. Ундалма

Сўзловчининг нутқи қаратилган шахсни билдирган сўз ёки сўз бирикмаси **ундалма** дейилади. Ундалма одатда иккинчи шахсга қаратилган бўлади. Шеърий асарларда шоир баъзан ўзига, яъни сўзловчига ҳам қарата мурожаат қилиши мумкин: *Назм туз, Эркин, ахир, эркин замондур бу замон.* Ундалма бошқа гап бўлаклари билан фақат мазмунан боғланган бўлади.

Ундалма кўпинча бош келишикдаги от билан ифодаланганлиги учун эгага ўхшаб кетади, лекин эга кесим билан шахс ва сон(бирлик ва кўплик)да мослашган бўлади, ундалма эса мослашмайди: ***Каримжон*** (эга -3-шахс, бирликда) *эртага келадими* (кесим – 3-шахс бирликда)*?* ***Каримжон*** (ундалма – 3-шахс, бирликда)*, эртага келасизми* (2-шахс, кўпликда)*?*

Айрим ҳолларда, айниқса, шеърий асарларда ҳайвонлар, қушлар, жонсиз нарсаларнинг номини билдирган сўзлар ҳам ундалма бўлади: ***Қуёш****, нуринг тўка бер мўл-кўл!* ***Баҳор****, кетма бизнинг боғлардан!* Бир сўз билан ифодаланган ундалма **йиғиқ ундалма** дейилади: ***Ўғлим****, катталарни ҳурмат қил.* Ўзининг аниқловчиси билан келган ундалма **ёйиқ ундалма** дейилади: ***Азиз биродарлар****, эзгу ишларни қилишдан чарчаманглар.* Ундалмани кучли ифодалаш учун ундалмадан олдин *э, эй, ҳой, оббо* каби ундовлар ҳам қўлланади, бу сўзлардан кейин вергул қўйилади.

Ундалмалар қуйидагича ифодаланади: 1) от: ***Ҳамид****, бадиий ўқиш тўгарагига қатнашасанми?* 2) олмош: ***Ҳой сен,*** *менга қара-чи.* 3) отлашган сўзлар: *Шундай демайсизми,* ***азизим****! (сифат)* ***Тўртинчи****, биринчига жавоб беринг (сон).* 4) ундов сўзлар: ***Ҳой****!* *Бери келинг!* 5) сўз бирикмалари билан: *Ҳой,* ***соқолинг кўксингга тўкилгур!*** 6) иборалар билан: *Ҳой,* ***йигит тушмагур****, нима қилиб қўйдинг!*

Ундалма гапнинг бошида келса, ундалмадан сўнг, гап ўртасида келса, икки томонига, гапнинг охирида келса, ундалмадан олдин вергул қўйилади: *Сўзла, **қўзгужон**, Ҳақиқатни эт баён!*

## 2-§. Кириш сўз, кириш бирикма ва кириш гаплар ҳақида

Сўзловчининг ўзи баён қилган фикрига муносабатини билдирган сўз **кириш сўз**, шундай сўз бирикмаси эса **кириш бирикма** деб юритилади. Кириш сўзлар ва кириш бирикмалар асосан модал сўзлар билан ифодаланиб, қуйидаги маъноларни билдиради:

**1. Ишонч ва тасдиқни:** *Албатта, шубҳасиз, маълумки, ҳақиқатан, дарҳақиқат, ҳақиқатан ҳам, сўзсиз.*

**2. Гумонни**: *эҳтимол, шекилли, чамаси, балки, тахминимча, мумкин.*

**3. Шодлик ёки ачинишни**: *Бахтимга, бахтга қарши, аттанг, афсус.*

**4. Баён қилинган фикрнинг кимга қарашли эканлигини:** *Менимча, менинг фикримча, унинг айтишича, айтишларича, сизнингча.*

**5. Баён қилинган фикрнинг тартибини:** *биринчидан, иккинчидан...*

**6. Баён қилинган фикрнинг олдинги фикр билан боғлиқлигини:** *демак, шундай қилиб, умуман, аксинча, баъзан, акс ҳолда, хуллас, шунингдек, айниқса, асосан, бинобарин, хусусан.*

**7. Тасдиқ ёки инкорни**: *ҳа, йўқ, майли, тўғри.*

Кириш сўз ёки бирикма гапнинг бошида келса, ундан кейин, гапнинг ўртасида келса, икки томонига, гапнинг охирида келса, ундан олдин вергул қўйилади: ***Ниҳоят**, улар жўнашди. Улар, **назаримда**, кетишди. Ҳали-бери қишнинг охири кўринмайди, **шекилли**.*

| |
|---|
| ***Диққат!*** Баъзи дарсликларда кириш сўз ва кириш бирикмалар **киритмалар** деган умумий ном остида берилиб, кейин улар иккита гуруҳга бўлинган: **1) содда киритмалар** бир сўз ёки сўз-гаплар билан ифодаланади; **2) мураккаб киритмалар** сўз бирикмалари, кенгайган бирикмалар ва гаплар билан ифодаланади.(1; 122) |

Сўзловчининг ўзи баён қилган фикрга қўшимча мулоҳазасини билдирган гап **кириш (киритма) гап** дейилади. Кириш гап асосий фикрни тўлдириш, изоҳлаш учун ишлатилади. Кириш гап, одатда, вергул билан ажратилади: *Биз, **синф раҳбаримиз айтди**, эртага саёҳатга борамиз.*

Кириш гап ёйиқ бўлса, тире билан ажратилади ёки қавс ичига олинади: *Кўп ўтмай у ерда бир қишлоқ пайдо бўлди ва сув чиқарган одамнинг шаҳардаги отахони номига аталиб “Парпи чеки” бўлди (нойиб тўранинг номи Фёдор, сартлар “Парпи ота” дейдилар.)*

Кириш гапларнинг тузилиш жиҳатдан турлари: 1) бир бош бўлакли кириш гап: *У ёгини сўрасанг, **айтайми**, мен бунга рози эмасман.*

2) икки бош бўлакли кириш гап: *Иброҳимов, **Қурбон ота айтмоқчи**, гулларни ўз илмидан баҳраманд қилди.*

Киритма гаплар кўпинча драматик асарларда **ремаркалар** (драма муаллифининг изоҳи) кўринишида учрайди: ***Пири Зиндоний** (қаҳқаҳа солиб кулади) – Майли, бизлар ҳурриятнинг фидойилари, Ҳуррият деб бандиликка кўнган эркинлар.(М.Ш.)* Мисолдаги қавс ичидаги гап ремарка кўринишидаги киритма гапдир.

# 11 - М А Ъ Р У З А
# ҚЎШМА ГАП
### Режа:

1. Қўшма гап ҳақида умумий маълумот
2. Боғланган қўшма гаплар
3. Боғловчисиз қўшма гаплар

## 1-§. Қўшма гап ҳақида умумий маълумот

Икки ёки ундан ортиқ содда гапнинг мазмун, грамматик ва оҳанг жиҳатидан бирикувидан тузилган гап **<u>қўшма гап</u>** дейилади: *Эшик секин очилди-ю, Қаландаровнинг юзи кўринди.*

Содда гап таркибида битта эга ва кесим бирлиги иштирок этса, қўшма гап таркибида икки ва ундан ортиқ эга ва кесим бирлиги қатнашади.

Қўшма гап таркибидаги содда гаплар ўзаро боғловчилар, юкламалар, кўмакчилар ва феъл шакллари ҳамда оҳанг орқали боғланади.

Мазмун муносабати ва боғловчи воситаларининг қўлланишига кўра қўшма гаплар 3 хил бўлади: **боғланган қўшма гаплар, эргаш гапли қўшма гаплар** ва **боғловчисиз қўшма гаплар.**

Айрим дарсликларда қўшма гаплар қуйидаги гуруҳларга бўлинади:
1) тенг боғловчилар воситасида боғланган қўшма гаплар;
2) эргаштирувчи боғловчилар воситасида боғланган қўшма гаплар;
3) боғловчи-юкламалар воситасида боғланган қўшма гаплар; 4) нисбий сўзлар воситасида боғланган қўшма гаплар; 5) фақат оҳанг воситасида боғланган қўшма гаплар (22; 21).

## 2-§. Боғланган қўшма гаплар

Тенг муносабатдаги содда гапларнинг ўзаро тенг боғловчилар ёрдамида боғланишидан тузилган қўшма гап **боғланган қўшма гап** дейилади: *Кечаси қалин қор ёғди, лекин ҳаво совимади.*

Таркибидаги содда гапларнинг ўзаро мазмун муносабатига кўра боғланган қўшма гаплар қуйидаги турларга бўлинади:

**1. Бириктирув муносабатли боғланган қўшма гаплар:**
Бундай боғланган қўшма гаплар таркибидаги содда гаплар ўзаро *ва, ҳамда* боғловчилари, *ҳам, -у(-ю), -да* юкламалари ёрдамида боғланади ва бир пайтда ёки кетма-кет рўй берган воқеа-ҳодисаларни ифодалайди: *Машғулотлар тугади ва ҳамма ўз уйига тарқалди. Одам қўли тегди-ю, ташландиқ ерлар обод бўлди. Қаттиқ изғирин кўтарилди-да, ҳеч ким уйдан чиқмай қўйди.*

**2. Зидлов муносабатли боғланган қўшма гаплар** ва уларда тиниш белгиларининг ишлатилиши. Бундай гаплар таркибидаги содда гаплар ўзаро *аммо, лекин, бироқ* боғловчилари, *-у(-ю)* ёрдамида боғланади: *Юртимизнинг бу куни чиройли, лекин эртаси, индини яна чиройлироқ, бахтлироқ бўлади. Ҳаво очилди-ю, ҳарорат сезилмади.*

Баъзан зидлик мазмунини кучайтириш учун зидлов боғловчиси ва бу вазифада қўлланган -*у(-ю)* юкламаси бирга ишлатилади: *Кечаси қор ёғди-ю, лекин ҳаво унчалик совимади.* Ёзувда зидлов боғловчиларидан олдин, юкламалардан кейин вергул қўйилади.

**3. Айирув муносабатли боғланган қўшма гаплар** ва уларда вергулнинг ишлатилиши. Бундай гаплардаги содда гаплар ўзаро айирув боғловчилари *гоҳ...гоҳ, ё...ё, ёки...ёки, баъзан...баъзан, дам...дам, ёхуд...ёхуд* ёрдамида боғланади. Айирув боғловчили боғланган қўшма гаплар воқеа-ҳодисаларнинг галма-гал бўлишини ёки улардан бири бўлишини ифодалайди: *Гоҳ осмонни тутиб ашула янграр, гоҳ аллақаердан гармонь товуши эшитилиб қолар эди.*

Такрорланиб қўлланган айирув боғловчиларнинг иккинчисидан олдин вергул қўйилади, айирув боғловчилар якка қўлланса, ҳеч қандай тиниш белгиси қўйилмайди.

**4. Инкор муносабатли боғланган қўшма гаплар**. Бундай гаплар қисмлари ўзаро **на** инкор юкламаси орқали боғланади ва орасига вергул қўйилади: *На сув бор, на бирон емиш қолибди.*

**5. *Бўлса, эса* сўзлари ёрдамида боғланган қўшма гаплар**. Бундай гапларда қиёслаш ва зидлаш муносабатлари мавжуд бўлади: *Отабек сукутда, Ўзбек ойим* ***бўлса*** *боши билан "шундоғ" ишорасини берар эди.(А.Қод.)*

## 3-§. Боғловчисиз қўшма гаплар

Махсус боғловчи воситаларсиз, асосан оҳанг ёрдамида бириккан содда гаплардан тузилган қўшма гаплар **боғловчисиз қўшма гаплар** дейилади: Бундай қўшма гап қисмлари оҳангдан ташқари айрим сўзларнинг такрорланиши, гап қурилиши, умумий бўлаклар воситасида

бирикади: *Кеч кирди, теварак-атрофга қоронғилик туша бошлади.* Бу қўшма гапдаги содда гаплар ўзаро фақат оҳанг ёрдамида боғланган, уларнинг ўрнини алмаштириб бўлмайди.

Боғловчисиз қўшма гаплар қуйидаги турларга бўлинади:

1. Боғланган қўшма гапга синоним бўлган боғловчисиз қўшма гап: *Тиғ яраси тузалади, тил яраси тузалмайди.*
2. Эргашган қўшма гапга синоним бўлган боғловчисиз қўшма гап: *Қор ёғди – дон ёғди. (ўхшатиш)*
3. Боғловчили қўшма гапга синоним бўлмаган боғловчисиз қўшма гап: *Хушхабар олиб келдим: гарнизон янчилди.(Ш.)*

Боғловчисиз қўшма гаплар таркибида тиниш белгилари қуйидагича қўлланади:

1. Агар боғловчисиз қўшма гап қисмлари бир пайтда ёки кетма-кет юз берган воқеа-ҳодисаларни ифодаласа, улар орасига вергул қўйилади: *Арава ғижирлаб борар, аравакаш хиргойисини бир зумга ҳам тўхтатмас эди.*
2. Агар боғловчисиз қўшма гап қисмлари ўзаро мазмунан бир-биридан анча узоқ бўлса, улар орасига нуқтали вергул қўйилади:
*Ёмғир челакдан қуйгандай шариллаб ёғарди; унинг хаёли узоқ ёшлик пайтларида кезар эди. Полицмейстер зинада тўхтади; унинг башараси ёвуз ва қутурган эди.(О.)*
3. Боғловчисиз қўшма гапнинг иккинчи қисми биринчи қисмнинг сабабини билдирса, изоҳласа, тўлдирса, улар орасига икки нуқта қўйилади: *Гап шу: эртага мен билан йўлга чиқасиз.*
4. Агар боғловчисиз қўшма гап қисмлари ўзаро зидлик, ўхшашлик ёки шарт муносабатига киришган бўлса, улар орасига тире қўйилади: *Қор ёғди – дон ёғди. Ёшим етмиш иккида – ўзим йигитман.*

**<u>Такрорлаш учун саволлар</u>**

1. Бојланган єўшма гап таърифини айтинг. 2.Бојланган єўшма гап турларини сананг. 3. Бириктирув муносабатли бојланган єўшма гаплар іаєида гапиринг. 4. Зидлов муносабатли бојланган єўшма гаплар іаєида гапиринг. 5. Айирув муносабатли бојланган єўшма гаплар іаєида гапиринг. 6. Инкор муносабатли бојланган єўшма гаплар іаєида гапиринг. 7. Бојловчисиз єўшма г. таърифини айтинг. 8. Бојловчисиз єўшм. гап оіангдан ташєари єандай воситалар билан бојланади? 9. Бојланган єўшма гапларга синоним бўладиган бојловчисиз єўшма гапларга мисоллар келтиринг. 10. Эргашган єўшма гапларга синоним бўладиган бојловчисиз єўшма гапларга мисоллар келтиринг. 11. Бојловчили єўшма гапларга синоним бўлмайдиган бојловчисиз єўшма гапларга мисол келтиринг. 12. Бир неча эргаш гапли єўшма гапларнинг таърифини айтинг. 13. Тўјридан-тўјри (биргалик) эргашув іаєида гапиринг. 14. Кетма-кет эргашув іаєида гапиринг. 15. Аралаш турдаги єўшма гапларнинг таърифини айтинг. 16. Бојланган єўшма гапнинг єайси турида иккинчи содда гапнинг кесими кўпинча бўлишсиз шаклда бўлади? 17. Бојланган єўшма гапларда тиниш белгиларининг ишлатилишини гапиринг. 18. Бојловчисиз єўшма гапларда тиниш белгиларининг ишлатилиши іаєида гапиринг.

## 12-МАЪРУЗА
## ЭРГАШ ГАПЛИ ҚЎШМА ГАПЛАР ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

**Режа:**

1. Эргаш ва бош гаплар ҳақида маълумот
2. Бош гапдаги маълум бир бўлакни изоҳлаб келадиган эргаш гаплар

### 1-§. Эргаш ва бош гаплар ҳақида маълумот

Бирдан ортиқ содда гапларнинг мазмун жиҳатдан тобе-ҳоким муносабати асосида, яъни бирининг бошқасига эргашишидан тузилган қўшма гап **<u>эргаш гапли қўшма гап</u>** дейилади: *Илдиз озиқ берса, новда кўкарар.* Эргашган қўшма гапда бош гап ва эргаш гап бўлади.

Мазмуни изоҳланадиган гап **<u>бош гап</u>** ҳисобланади. Бош гапга эргашиб, унинг мазмунини изоҳлаб келган гап **<u>эргаш гап</u>** дейилади: *Ҳамма йиғилгач, мажлис бошланди.* Бу гапда *Ҳамма йиғилгач* гапи эргаш гап бўлиб, *Мажлис бошланди* деган бош гап орқали ифодаланган воқеа-ҳодисанинг бажарилиш пайтини изоҳлаб келган.. Эргаш гап бош гапни бутунича ёки унинг бирор бўлагини изоҳлайди: *Раис киргач, ҳамма тинчланди* гапида эргаш гап бош гапни бутунича изоҳлаяпти. *Сиз шуни унутмангки, курашчилар ёлғиз эмас* гапида эса эргаш гап бош гап таркибидаги олмош билан ифодаланган тўлдирувчини *(шуни)* изоҳлаяпти. Эргаш гап бош гапдан олдин, ундан кейин ёки унинг ичида кела олади: *Ўқитувчи, қўнғироқ чалингач, синфга кирди.* Бу гапда эргаш гап бош гап ичида қолган.

Эргаш гаплар бош гапларга *чунки, шунинг учун, -ки, агар, гарчи, мабодо, гўё(ки)* (айрим дарсликларда *гўё* боғловчиси **<u>боғловчи вазифасидаги сўз</u>** деб аталган (16; 345) каби эргаштирувчи боғловчилар, феълнинг равишдош, сифатдош, ҳаракат номи шакллари, шунингдек, юклама, кўмакчилар, кўмакчили қурилмалар *(шунинг учун, шу сабабли, шу туфайли)* турли вазифадаги кўрсатиш олмошлари, *ким - у, қандай – шундай, қанча – шунча, қайси – ўша, қаерда – у ерда,* каби бир-бирига ишора маъносини билдирадиган сўроқ олмошлари ва кўрсатиш олмошларидан иборат **нисбий сўзлар**, *сабабли, туфайли, деб* сўзлари орқали боғланади*: 1. Биз китобни севамиз,* ***чунки*** *у билим манбаидир. 2. Ҳосил тўкин бўл**<u>са</u>**, тўйлар тўхтамас.*

**Д и қ қ а т !** Кесими таркибида *–ки,* таркибида *шунинг учун* боғловчиси қатнашган гаплар к ў п и н ч а бош гап ҳисобланади, кесими таркибида *–са, -са ҳам, -б(-иб), -гач, -гунча, -ганда, -р(-ар) экан* боғловчи воситалари, шунингдек, кўмакчилар, *чунки, агар, гўё(ки), токи* боғловчилари қатнашган гаплар эса ҳ а р д о и м эргаш гап ҳисобланади.

## 2-§. Бош гапдаги маълум бир бўлакни изоҳлаб келадиган эргаш гаплар

**1. Эга эргаш гап** бош гапдаги олмош билан ифодаланган эгани изоҳлаган эргаш гапдир. Эга эргаш гап бош гап билан биргаликда **эга эргаш гапли қўшма гап** ҳисобланади. Эга эргаш гап *-ки* боғловчиси ва феълнинг шарт майли қўшимчаси *-са* ҳамда сўроқ ва кўрсатиш олмошлари *(кимки – у, кимки – ўша, кимки- ўзи, нима – ўша, нимаики – ҳаммаси)* ёрдамида боғланади: ***Кимки*** *ёмонлар суҳбатидан қоч**са**,* ***у*** *яхшилар суҳбатига эришади.* Баъзан бош гап таркибидаги кўрсатиш олмоши билан ифодаланган эга тушририлиши мумкин: *Сизга аён**ки**, сиз ўз оилангиздасиз.* Бу гапда <u>шу</u> (эга) туширилган. Схемаси қуйидагича:

| | |
|---|---|
| *1. Ким ...............-са, у ............* | *5. Нимаики .........-са, ўша ........ .* |
| *2. Ким ..........-са, ўзи ............* | *6.Нима .............-са, ўша............. .* |
| *3. Кимки .........-са, у .............* | *7. Шуниси ............-ки, ............... .* |
| *4. Кимда-ким ......-са, у .........* | *8. ....................-ки, ................... .* |

**2. Кесим эргаш гап** бош гапдаги олмош билан ифодаланган кесимни изоҳлаган эргаш гап бўлиб, у бош гап билан биргаликда **кесим эргаш гапли қўшма гапни** ҳосил қилади: *Уч оға-ини ботирларнинг энг яхши фазилати шуки, улар халқдан ажралиб қолишни истамайдилар.* Кесим эргаш гаплар бош гапга *-ки* боғловчиси, ўрин-пайт ва бош келишигидаги *шу, кимсан* олмошлари ёрдамида боғланади. Баъзан бош гапдаги олмош билан ифодаланган кесим туширилади: *Яхшиси, сен дарсингни тайёрлагин.* Схемаси қуйидагича:

| | |
|---|---|
| *1. ............шуки, ................ .* | *4. ............шундаки, .............. .*<br>*5. ......... шундайки, ............... .* |
| *2. ..........шу ердаки, .......... .* | *6. ........шундан иборатки, ............... .* |
| *3. ......... шудирки, ............ .* | |

**3. Тўлдирувчи эргаш гап** бош гапдаги кўрсатиш олмоши билан ифодаланган тўлдирувчини изоҳлаган эргаш гапдир. Тўлдирувчи эргаш гап бош гап билан биргаликда **тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гапни** ташкил этади. Тўлдирувчи эргаш гап, одатда, бош гапга *-ки* боғловчиси, шарт майли қўшимчаси *-са* ёрдамида боғланади. *Шуни билингки, ҳар бир янгилик бехосият бўлмайди. Кимда гумонинг бўл**са**, **уни** кўздан қочирма.(О.)* Бош гап таркибида *шуни, шунга, шундан* каби тўлдирувчилар қатнашади. Баъзан бу тўлдирувчилар туширилиши мумкин. *Илтимос қиламан**ки**, олдин раис сўзласинлар.* Бу гапда *шуни* туширилган. Схемаси қуйидагича:

1. *Шуни...........-ки, .............* .
2. *Шундан........-ки, ............* .
3. *Шунга...........-ки, ............* .
4. *................-ки, ..............* .
5. *Нима (ни) ......са, шуни .....* .
6. *Кимда...........-са, уни........* .
7. *Нима билан....-са, ўшани..* .
8. *Буни............-ки, ................* .

**4. Аниқловчи эргаш гап** бош гапда аниқловчи бўлиб келган олмош ва айрим сифатларни изоҳлаб келган эргаш гапдир. Аниқловчи эргаш гап бош гап билан биргаликда **аниқловчи эргаш гапли қўшма гап** деб юритилади. Аниқловчи эргаш гап бош гап билан *-ки* боғловчиси билан (бунда бош гап таркибида кўпинча аниқловчи бўлиб келган *шундай*, *айрим*, *баъзи* сўзлари иштирок этади) ёки шарт майли қўшимчаси *-са* билан (бунда эргаш гап таркибида *қандай*, *қайси*, *кимнинг* каби олмошлар, бош гап таркибида эса *шу, шундай, ўша, унинг, баъзи, бир хил, айрим, бир, бир қанча,* каби олмошлар бўлади) боғланади: *1. **Шундай** инсон ҳақида хабар келтирдим**ки**, унинг ҳар бир сўзи гавҳардир. 2. **Кимнинг** кўнгли тўғри бўл**са**, **унинг** йўли ҳам тўғри.* Баъзан бош гапдаги олмош билан ифодаланган аниқловчи туширилиши мумкин: *Одам борки, ҳайвон ундан яхшироқ.* Схемаси қуйидагича:

*1.Шундай...........-ки, ..........* .
*2. ....... шундай.......-ки, ......* .
*3. ...шундай....-ни.....-ки, ундай . ...* .
*4. .....шундай (аниқл.) .....-ки, .....* .
*5. .....шундай(ҳол).........-ки, .......* .
*6. ....қайси....... – са, ўша..........* .
*7. Кимнинг .....– са, унинг........* .

## 13–МАЪРУЗА
## БОШ ГАПНИ ТЎЛАЛИГИЧА ИЗОҲЛАЙДИГАН ЭРГАШ ГАПЛАР

**Режа:**

1. Ҳол тобе (эргаш) гаплар.
2. Ўхшатиш эргаш гаплар.
3. Натижа эргаш гаплар.
4. Қўшма гап турларининг ўзаро маънодошлиги.

### 1-§. Ҳол тобе (эргаш) гаплар

**1. Равиш эргаш гап** бош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг қай тарзда бажарилганлигини билдирган эргаш гапдир. Равиш эргаш гап бош гап билан бирга **равиш эргаш гапли қўшма гапни** ташкил этади: Боғловчи воситалар: *-б(-иб), -май, -масдан, деб. Юлдузлар битта-битта сўниб, уфқ оқара бошлади. Наимийнинг бирор иши ўнгидан келмасдан, умри бекорга ўтиб кетди.(Ас.М.) Чамбил обод бўлди деб, келаётир Авазхондай зўравон.(Ф.Й.)*

Схемаси қуйидагича:

*1. ..............-иб, ...................* .
*2. ............-май, ..................* .
*3. ................-масдан, .............* .
*4. ................деб, ................* .

**2. Пайт эргаш гап** бош гапдаги иш-ҳаракатнинг пайтини билдирган эргаш гапдир. Пайт эргаш гап бош гап билан **пайт эргаш гапли қўшма гапни** ташкил этади. Пайт эргаш гапни

бош гапга боғловчи воситалар: *У келгунча, ҳамма тарқалган эди. Отлиқлар жарлик оша тепаликлардан кўтарилгандан кейин, чўл бошланди. Собиржон приёмникни энди қўйган эди, эшик тақиллаб қолди. Қушлар тўп-тўп бўлиб учса, ҳаво очиқ бўлади.* Схемаси қуйидагича:

*1. .............-ганда, ............... .*
*2. ..........-ган заҳоти, ............ .*
*3. ........-ган вақтда, ........... .*
*4. .........-ган пайтда, .......... .*
*5. ...........-ган замон, ........... .*
*6. ..........-гандан кейин, ....... .*
*7. ......-гунга қадар, ..........*
*8. ...........-ган эди, ............... .*
*9. .........-ганича йўқ эди, ....... .*
*10. ...........-ар экан, .............. .*
*11. ...........-са, ........................ .*
*12. ...........-масдан аввал, ........ .*
*13. .............-иб, ...................... .*
*14. ............-гач, ...................... .*
*15. ...........-гунча, .................... .*
*16. ...........-май, ..................... .*
*17. .........—иши билан(оқ),........ .*

**3. Ўрин эргаш гап** **б**ош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг бажарилиш ўрнини билдирган эргаш гапдир. У бош гап билан биргаликда **ўрин эргаш гапли қўшма гап** дейилади: *Қаерда интизом кучли бўлса, шу ерда тартиб бўлади.* Боғловчи воситалар: *-са (қаердан, қайга, қаерга, қаерда, шу ерда, ўша ерда, шунда, шу ерга, шу ердан, у ерда) –манг, масин, экан: Қаерда сув бўлса, ўша ерда ҳаёт бўлади.* Схемаси қуйидагича:

*1. ......қаерга ...-са, ўша ерга..... .*
*2. ......қаерда ...-са, ўша ерда, .... .*
*3. .......қайга........-са ўша ерда, .... .*
*4. .......-манг, у ерда .......... .*
*5. ......-масин, ўша ерда....... .*
*6. .........қаерда, шу ерда...... .*

**4. Сабаб эргаш гап** **б**ош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг сабабини билдирган эргаш гапдир**.** У бош гап билан бирга **сабаб эргаш гапли қўшма гап** деб номланади. *Қайрилишлар тобора кўпайиб, машинанинг тезлиги сусая бошлади. Бу уйлар илгари бедахона бўлганидан, дарчаси ҳам йўқ эди.* Схемаси қуйидагича:

*1. ..........., шунинг учун.......... .*
*2. ...........-ганидан ................ .*
*3. ..........-гани учун, ............. .*
*4. ..........-ганидан кейин,......... .*
*5. ..........-ганидан сўнг,.......... .*
*6. ..........шекилли, ................ .*
*7. ..........-гунга қадар, ............ .*
*8. ..........-ган бўлса керак...... .*
*9. ..............-ми, .................... .*
*10. ..........., чунки ............... .*
*11. ............., негаки............. .*
*12. .........-масдан аввал, .......... .*
*13. ............, сабабки................ .*
*14. ...........-гач, ..................... .*
*15. .....шунинг учун......-ки, ...... .*
*16. ..........-май, .................... .*
*17. .........-ки, ........................ .*
*18. .........-иб, .......................... .*

**5. Мақсад эргаш гап** **б**ош гапдан англашилган иш- ҳаракатнинг нима мақсадда юзага келишини билдирган эргаш гапдир. У бош гап билан бирга **мақсад эргаш гапли қўшма гап** деб номланади. Боғловчи воситалар: *деб, -син деб, -ди деб, -ар деб, -са деб, -ми экан (деб, дея, учун), токи: Одамлар яхши яшасин деб, тинчликка имзо чекдик. Ғўза мирикиб ичсин учун, сув текис оқизилди.* Схемаси қуйидагича:

*1. .............деб, .................... .*
*2. ...........-син деб, ............... .*
*3. ...........-ди деб , ................ .*
*4. ...........-ар деб, ................ .*
*5. ...........-са деб, ............... .*
*6. ...........-ми экан деб, ......... .*
*7. ................-дея, ................... .*
*8. ..............учун, .................... .*
*9. ............. , токи.................... .*
*10. ............., ..............-син деб.*

**Д и қ қ а т !** *–деб* ярим боғловчиси буйруқ ва шарт майли, келаси замон феълидан кейин келса, мақсад маъносини, ўтган замон феълларидан кейин келса, сабаб маъносини билдиради(22; 29).

**6. Шарт эргаш гап** бош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг қандай шарт билан бажарилишини билдирган эргаш гапдир. У бош гап билан бирга **шарт эргаш гапли қўшма** гап дейилади. Боғловчи воситалар: *-са, -са эди, агар, мабодо, борди-ю, -ганда(эди), -р(-ар) экан, -ган экан, -ми, бўлмаса, йўқса, -май, бўлай десанг, -синки: Агар сув бўлса, чўлу саҳролар бўстонга айланади.* Схемаси қуйидагича:

*1. (Агар) ............-са, ............. .*
*2. (Агар)..........-са эди, ........... .*
*3. (Агар)..........-ганда, ...............*
*4. (Агар)..........-ганда эди, ...... .*
*5. (Борди-ю).....-р(-ар) экан, ... .*
*6. (Мабодо).....-ган экан, ....... .*
*7. (Агар)........-моқчи экан, ...... .*
*8. ..............-ми, .................... .*
*9. .........., бўлмаса ................ .*
*10. .........., йўқса ................ .*
*11. ..........-май, .................... .*
*12. .......-масдан аввал, ........ .*
*13. ........бўлай десанг, ........ .*
*14. ...........-синки, ................ .*

**7. Тўсиқсиз эргаш гап** бош гапнинг мазмунига зид бўлса ҳам, унда ифодаланган воқеа-ҳодисанинг юзага келишига тўсиқ бўла олмайдиган фикрни англатган эргаш гапдир. У бош гап билан бирга **тўсиқсиз эргаш гапли қўшма гап** дейилади. Боғловчи воситалар: *-са ҳам(ки), қанча, қанчалик, нақадар, гарчи, гарчнд, -ганда ҳам, -са-да, -ганда-да, -гани билан, -масин, қарамай, қарамасдан, -и(-иб), -гани ҳолда, -ди ҳамки, хоҳ...хоҳ (-са -маса), -са: Қуёш яширинган бўлса ҳам, кундузнинг ёруғлиги ҳали сўнмаган эди.* Баъзан *гарчи* сўзи қўлланиши мумкин. Схемаси қуйидагича:

*1. Қанча .......-са ҳам, ........ .*
*2. Қанча ....-са ҳамки, ........ .*
*3. .............-ганда ҳам, ...... .*
*4. ..............-са-да, .......... .*
*5. .........-гани билан, ......... .*
*6. ..........-масин, .............. .*
*7. ...........-қарамай, ......... .*
*8. ............қарамасдан, .......... .*
*9. ...........-гани ҳолда,.............. .*
*10. .........ҳамки, ................. .*
*11. Хоҳ.......хоҳ..., .................. .*
*12. ..........-са...-маса, ............. .*
*13. .............-са... -дики, .......... .*
*14. ...............-са, ..................... .*

**8. Миқдор-даража эргаш гап** бош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг бажарилиш миқдор-даражасини билдирган эргаш гапдир. Бу гаплар бош гап билан бирга **миқдор-даража эргаш гапли қўшма гап** деб юритилади: *У қанча қизишса, мен шунча совуққон тус олардим.*

*1. ....қанча.....-са, ....шунча.... .*
*2. ...қанчалик...-са, ..шунчалик..*
*3. ...қанча.....-са, ...шунчалик.... .*
*4. қанчалик..-ган сайин,..шунчалик..*

## 2-§. Ўхшатиш эргаш гаплар

**Ўхшатиш эргаш гап** бош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг қай тарзда бажарилишини ўхшатиш йўли билан билдирган гапдир. У бош гап билан бирга **ўхшатиш эргаш гапли қўшма гап** деб номланади: *Чирилдоқларнинг майин мусиқаси ҳамма ёқни тўлдирган, гўё кечанинг ўзи куйлайди.* Схемаси қуйидагича:

*1. ..............каби, ................ .*
*2. ................-дай, ............... .*
*3. .............-сингари, ............. .*
*4. ............. янглиғ, ............. .*
*5. ................-ки, гўё .......... .*
*6. ...........-ки, худди......... .*
*7. Гўё..........-гандай, ........... .*
*8. ...............дегандек, ............. .*
*9. ....қандай....-са, шундай ...... .*
*10. ...........-гунча, .................. .*
*11. ............-гандан кўра, ....... .*
*12. ...........-ишдан кўра, .......... .*

## 3-§. Натижа эргаш гаплар

**Натижа эргаш гап** бош гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг натижасини билдирган эргаш гапдир. У бош гап билан бирга **натижа эргаш гапли қўшма гап** дейилади. Натижа эргаш

гап бош гапга *-ки* боғловчиси ёрдамида боғланади. Бош гап таркибида *шундай, шу қадар, шунчалик, шу даражада, шунча, чунон* каби сўзлар, эргаш гаплар таркибида эса *натижада, оқибатда, ҳатто* каби сўзлар қўлланиши мумкин: *Дўл бир зумда шундай ёғдики, ер оппоқ бўлиб кетди. Азимбой шундай зулм ўтказдики, оқибатда халқнинг сабр-косаси тўлди.* Схемаси қуйидагича:

*1. ...шундай.....-ки, натижада... .* *4. ...шу даражада......-ки,.... .*
*2. ...шу қадар....-ки, оқибатда... .* *5. ...шунча.........-ки, .......... .*
*3. ...шунчалик.......-ки, ............ .* *6. ...чунон..........-ки, ........... .*

## 4-§. Қўшма гап турларининг ўзаро маънодошлиги

Қўшма гапларнинг ҳар учала турида (боғланган, эргашган, боғловчисиз) ҳам зидлик, сабаб, шарт, пайт муносабатлари ифодаланиши мумкин: *Ёмғир тинди, биз сафар анжомларини тайёрлай бошладик.* (боғловчисиз қўшма гап) - *Ёмғир тинди ва биз сафар анжомларини тайёрлай бошладик.* (боғланган қўшма гап) - *Ёмғир тинди, шунинг учун биз сафар анжомларини тайёрлай бошладик.*(эргашган қўшма гап)

**Диққат!** Айрим дарсликларда эргашган қўшма гаплар боғловчи воситалар тури бўйича қуйидаги гуруҳларга ажратилган:
1) эргаштирув боғловчили эргашган қўшма гаплар; 2) кўмакчили қурилмалар ёрдамида шаклланган эргашган қўшма гаплар; 3) *деб* сўзи ёрдамида эргашган қўшма гаплар; 4) шарт майли воситасида эргашган қўшма гаплар; 5) кўрсатиш олмошли эргашган қўшма гаплар; 6) нисбий сўзли эргашган қўшма гаплар (27; 38-47);

**<u>Такрорлаш учун саволлар</u>**

1. Єўшма гапнинг таърифини айтинг. 2. Содда ва єўшма гап ўртасида єандай фарє бор? 3. Єўшма гап таркибидаги содда гаплар ўзаро єандай воситалар била бојланади? 4. Єўшма гапнинг єандай турлари бор? 5. Эргаш гапли єўшма гапнинг таърифини айтинг. 6. Бош гап деб єандай гапга айтилади? 7. Эргаш гап деб єандай гапга айтилади? 8. Эргаш гапнинг бош гапни изоілаши єандай кўринишларда бўлади? 9. Эргаш гапнинг жойлашиш ўринлари іаєида гапиринг. 10. Эргаш гаплар бош гапларга єандай воситалар ёрдамида бојланади? 11. Бош ва эргаш гапларни ўзига хос фарєлантирувчи єандай белгилар бор? 12. Эргаш гапларнинг турларини санаб кўрсатинг. 13. Эга эргаш гапли є. г. гап іаєида гапиринг. 14.Кесим эргаш гапли є. г. іаєида сўзланг. 22. Шарт эргаш гапли єўшма гап іаєида гапиринг. 23. Тўсиєсиз эргаш гапли єўшма гап іаєида гапиринг. 24. Натижа эргаш гапли єўшма гап іаєида гапиринг. 25. Ўрин эргаш гапли є. г. іаєида сўзланг. 26. Миєдор-даража эргаш гапли єўшма гап іаєида гапиринг. 27.**–ки** бојловчиси єайси эргаш гапларни бош гапга бојлайди? 28. **–са** бојловчиси єайси эргаш гапларни бош гапга бојлайди? 29. Єайси эргаш гапли єўшма гапларда бош гап доим олдин, эргаш гап доим кейин келади? 15. Аниєловчи эргаш гапли єўшма гап іаєида гапиринг. гапли єўшма гап іаєида

# 14–МАЪРУЗА
# МУРАККАБ ҚЎШМА ГАПЛАР

**Режа:**

1. Мураккаб қўшма гаплар ҳақида умумий маълумот
2. Бир неча эргаш гапли мураккаб қўшма гап
3. Бир неча бош гапли мураккаб қўшма гап
4. Аралаш мураккаб қўшма гаплар
5. Қисмлар уюшган мураккаб қўшма гаплар
6. Мураккаб синтактик бутунлик ҳақида маълумот

## 1-§. Мураккаб қўшма гаплар ҳақида умумий маълумот

Нутқимизда камида учта содда гапнинг боғланишидан тузилган қўшма гаплар ҳам мавжуд. Мактаб дарслигида уларга қуйидагича таъриф берилади: "Уч ва ундан ортиқ содда гапларнинг

бирикишидан таркиб топган гаплар мураккаб қўшма гаплар дейилади (19; 44)". Айрим дарсликларда (15; 389) мураккаб қўшма гаплар қуйидаги турларга бўлинади:

1) боғланиш йўли билан тузилган мураккаб қўшма гаплар, яъни таркибидаги содда гаплар тенг боғловчилар ёки шу боғловчилар вазифасидаги юкламалар ёрдамида боғланган қўшма гаплар: *Ҳамма келди-**ю**, Саттор кечикаётган эди, **лекин** биз ишни бошлашга қарор қилдик.* 2) эргашиш йўли билан тузилган мураккаб қўшма гаплар (бу ҳақда кейинги мавзуда сўз юритилади); 3) боғловчисиз тузилган мураккаб қўшма гаплар, яъни таркибидаги содда гаплар махсус боғловчи воситаларсиз, фақат оҳанг ёрдамида боғланган мураккаб қўшма гаплар: *Нонлар ёпилди, қўйлар сўйилди, ўчоқларга ўт ёқилди.* 4) аралаш мураккаб қўшма гаплар. (Бу ҳақда ҳам кейинги мавзуларда сўз юритилади)

Кейинги пайтларда нашр қилинаётган дарсликларда мураккаб қўшма гаплар қуйидаги турларга бўлинган: 1. Бир неча эргаш гапли қўшма гаплар. 2. Бир неча бош гапли қўшма гаплар. 3. Аралаш мураккаб қўшма гаплар. 4. Қисмлари уюшган мураккаб қўшма гаплар. (27; 68-75)

## 2-§. Бир неча эргаш гапли мураккаб қўшма гап

Бирдан ортиқ эргаш гап бир бош гапга тобеланиб келса, **бир неча эргаш гапли қўшма гап** дейилади. Бундай гаплар таркибидаги эргаш гаплар бош гапдан, шунингдек, бир-биридан вергул билан ажратилади: *Баширжон клубдан чиққанида, қуёш шарқ уфқида терак бўйи кўтарилиб, оқиш булут дарвоза оралиғида чарақлаб турарди.(Н.А.)*

Бу гаплардаги эргаш гаплар бош гапга қуйидагича боғланади:

**1. Тўғридан-тўғри эргашиш** (**биргалик эргашиш**). Эргаш гапларнинг ҳар бири тўғридан-тўғри бош гапга боғланса, **биргалик эргашиш** дейилади. Бундай гаплардаги эргаш гаплар: 1) бир хил эргаш гаплар (уюшган) бўлади: *Мана бу канал битса, янги ер очилса, пахта ҳам кўпаяди.* 2) ҳар хил эргаш гаплар (уюшмаган) бўлади: *Борди-ю, рост бўлса, ҳаммаси эмас, ярми рост бўлганда ҳам, жуда хунук гап-ку!*

**2. Кетма-кет эргашиш**. Ҳар бир эргаш гап тўғридан-тўғри бош гапга боғланмасдан, бири иккинчисига кетма-кет боғланса, **кетма-кет эргашиш** дейилади. Бундай гаплар таркибида турли хил эргаш гаплар қатнашади : *Баҳорда ҳаво ноқулай келиб, ғўзанинг парвариши кечиккан бўлса ҳам, ҳосил мўл бўлди.*

## 3-§. Бир неча бош гапли мураккаб қўшма гап

Бундай гаплар таркибида икки ва ундан ортиқ **бош** гап мавжуд бўлади: *Тоғ ва осмон шундай тиниқки, нафас олиш шундай енгилки, кекса одам ҳам бу ерда мусаффо болалик йилларини эслайди.*

## 4-§. Аралаш мураккаб қўшма гаплар

Таркибида ҳам эргашган қўшма гап, ҳам боғланган қўшма гап ёки боғловчисиз қўшма гап иштирок этган гаплар **аралаш турдаги қўшма гаплар** дейилади. Бундай қўшма гаплар тўрт ва ундан ортиқ содда гаплардан ташкил топади: *Эшик очилди, шунинг учун ҳамма қайрилиб қаради, лекин ҳеч ким кирмади; совуқ ҳаво хонани қоплади.*

## 5-§. Қисмлар уюшган мураккаб қўшма гаплар

Бундай гаплар таркибида учта ва ундан ортиқ содда гап ўзаро боғловчи воситаларсиз, фақат оҳанг ёрдамида боғланган бўлади (юқорида бу гаплар **боғловчиларсиз тузилган мураккаб қўшма гап** деб аталган эди): *Бу саҳрода майсалар ҳам, чечаклар ҳам йўқ, қушлар, булбуллар ҳам сайрамайди, булоқлар қайнаб тошмайди.*

## 6-§. Мураккаб синтактик бутунлик ҳақида маълумот

Биз гапларнинг турли кўринишлари ҳақида маълумот бериб ўтдик. Сиз содда гаплар битта гапдан, қўшма гаплар асосан иккита содда гапдан, мураккаб қўшма гаплар (яъни бир неча

эргаш гапли ва аралаш қўшма гаплар) камида учта содда гапдан иборат бўлишини олдинги мавзуларда кўрдингиз.

Фикрни ифодалашнинг яна шундай тури борки, унда содда гаплар бир-бирига грамматик жиҳатдан боғланмасдан, нисбатан мустақил бўлади, лекин бу гаплар бир мавзу атрофида бирлашган бўлади: *Мен кўчада дўстимни учратиб қолдим. Биз у билан бирга дарс тайёрлашга келишиб олдик. Дўстим ҳам математика ва она тилидан сал қийналади.* “Бир мураккаб фикрни ифодалашга хизмат қиладиган ва турли воситалар билан ўзаро боғланган мустақил гаплардан иборат бўлган бутунлик мураккаб синтактик бутунлик дейилади” (22; 107-108).

## 15 - М А Ъ Р У З А
## ЎЗГАЛАРНИНГ НУТҚИНИ ИФОДАЛАШ УСУЛЛАРИ

**Режа:**

1. Кўчирма гап.
2. Кўчирма гапда тиниш белгиларининг ишлатилиши.
3. Ўзлаштирма гап.
4. Кўчирма ва унда ишлатиладиган тиниш белгилари.
5. Диалог.

Муаллиф ўз нутқида бошқалар ифодалаган фикрлардан ҳам фойдаланиши мумкин. Бундай фикрлар **кўчирма гап**, **ўзлаштирма гап**, **диалог** ва **кўчирма** шаклида берилади.

### 1-§. Кўчирма гап

Ўзгаларнинг ҳеч ўзгаришсиз берилган гапи **кўчирма гап** дейилади. Кўчирма гапда икки хил гап бўлади: **кўчирилган гап** ва **муаллиф гапи.** Иккаласи биргаликда **кўчирма гапли қўшма гапни** ҳосил қилади (20; 66). Муаллиф гапининг кесими *деди, деб сўради, деб жавоб берди, гапирди, сўзлади, айтди* каби феъллар билан ифодаланди. Кўчирма гаплар сўзлашув ва бадиий услубларда кўп ишлатилади. Кўчирилган гап муаллиф гапидан аввал, ундан кейин, унинг ичида, унинг икки томонида келиши мумкин: "*Меҳнат иштаҳа очар", - дейди бобом. Чўпондан сўрадик: "Бу қўйлар кимнинг қўйи?" “Мен, - деди у, - эртага келаман”. Бош инженер ниҳоятда босиқлик билан: - Бу гапга Худойқуловнинг алоқаси йўқ, - деди.(Ж.Абд.)*

| |
|---|
| **Д и қ қ а т !** Айрим дарсликларда кўчирма гап ва кўчирмалар битта умумий **матн** деган ном остида берилган. Матнга қуйидагича таъриф берилади: “Маълум бир шахс томонидан айрим воқеа-ҳодиса, кўриниш, нарса-буюмнинг изчил тасвири ва тавсифи учун тузилган гаплар сираси(гуруҳи) матндир. Бу тасвирни ҳар бир шахс ўз билим савияси, қобилияти, иқтидори ва шароитига мос равишда ифодалаши ижодийликдир” (22; 107-108). Мисоллар: - *Султоним, раҳматни менга эмас, деҳқон бобога айтинг. Кўнглингиз хоҳишини шу киши топди, - деб жавоб берибди Алишер Навоий.* (“Эл деса Навоийни”, 28-бет) |

Матндаги ҳар бир янги фикр, янги ахборот **хатбоши** билан берилади (19; 113).

### 2-§. Кўчирма гапда тиниш белгиларининг ишлатилиши

Кўчирилган гап қўштирноқ ичига олинади, бадиий асарларда тире билан ажратиб берилади.

Кўчирма гапда, кўчирилган гапнинг ўрнига қараб, тиниш белгиларининг ишлатилиши қуйидагича бўлади:

1. Кўчирилган гап дарак гап бўлиб, муаллиф гапидан олдин келса, ундан кейин вергул ва тире қўйилади: *"Юринг, мен ўша томонга бораман", - деди Комила* (бадиий асарларда тире ишлатилади). Сўроқ ва ундов белгилари қўштирноқ ёпилмасдан олдин қўйилади.

2. Кўчирилган гап муаллиф гапидан кейин келса, муаллиф гапидан кейин икки нуқта қўйилади: *Бир кун Ҳусайн Мирзо шипга қараб ётиб, вазирларига шундай дебди: - Олиб келинг! (“Эл деса Навоийни”)*

3. Муаллиф гапи кўчирилган гап ичида келса, тиниш белгилари қуйидагича қўйилади:

1) кўчирилган гапнинг узилиб қолган қисмида ҳеч қандай тиниш белгиси бўлмаса ёки вергул ёхуд икки нуқта бўлса, бу белгилар туширилиб, муаллиф гапи ҳар икки томондан вергул ва тире билан ажратилади: *"Ҳазрат, - дебди Худойберди унга қараб, - тандирни қуролмадим". (“Эл деса Навоийни”)*

2) кўчирилган гапнинг узилиб қолган қисмидан сўнг нуқта қўйиш лозим бўлса, муаллиф гапидан олдин вергул ва тире, муаллиф гапидан сўнг эса нуқта қўйилади: *"Нойиб тўранинг гапларидан билинади ўзи, деди Мирёқуб. – Сиз бўлган гапларни айтиб беринг". (Ч.)*

3) кўчирилган гапнинг узилиб қолган қисмидан сўнг сўроқ ёки ундов белгиси қўйиш лозим бўлса, муаллиф гапидан аввал ўша белги ва тире қўйилади, муаллиф гапидан сўнг нуқта ва тире қўйилиб, кўчирма гапнинг давоми бош ҳарф билан бошланади: *"Хадичахон кўзларини айёрлик билан ўйнатиб туриб, кундошига қаради: - Гапни эшитаётирсизми? – деди. – Эртага бизникига шаҳарлик меҳмонлар келишар экан!".(Ч.)*

4. Кўчирилган гап муаллиф гапининг ўртасида келса, тиниш белгилари қуйидагича қўйилади:

1) муаллиф гапининг узилиб қолган қисмининг охирига икки нуқта қўйилиб, кўчирилган гап қўштирноқ ичига олинади; кўчирилган гапдан кейин вергул ва тире қўйилиб, кейин муаллиф гапининг давоми ёзилади: *Саодат: "Биз ҳам астойдил меҳнат қилдик", - деди.*

2) кўчирилган гап сўроқ ёки ҳис-ҳаяжон гап бўлса, уларнинг белгилари қўштирноқ ичида бўлади: *Ўқитувчимиз : "Сен қайси бадиий китобларни ўқиб чиққансан?" - деб сўрадилар.*

5. Кўчирма гаплар ҳамсуҳбатларнинг луқмаси тарзида ифодаланганида ёзма нутқда ҳар бир луқмадан аввал тире қўйилади. Бу луқмаларда муаллиф гапи бўлмайди: - *Шаҳарда қариндошингиз борми? - Йўқ.*

## 3-§. Ўзлаштирма гап

Ўзгаларнинг шакли ўзгартирилиб, мазмуни ифодаланган гапи **<u>ўзлаштирма гап</u>** дейилади. Ўзлаштирма гап кўчирма гапга айлантирилиши мумкин бўлган гапдир: *Қурбон ота эртага келишини айтди (ўзл. гап) – Қурбон ота деди: “Мен эртага келаман”(кўч. гап).*

Сўроқ, буйруқ мазмунини ифодалаган кўчирма гаплар ўзлаштирма гапга айлантирилганда, дарак гап шаклида баён қилинади.

| Кўчирма гап | ўзлаштирма гап |
|---|---|
| *- Бу қандай бино, нимага мўлжаллайсиз? - деди Ўктам.* | *Ўктам бу қандай бино эканлигини, унинг нимага мўлжалланишини сўради* |

Ундалма, кириш сўз қатнашган кўчирма гаплар ўзлаштирма гапга айлантирилганда, кириш сўзлар тушиб қолади, ундалма воситали тўлдирувчига айлантирилади, 1-, 2-шахсларни кўрсатувчи сўзлар 3-шахсга айлантирилади:

| Кўчирма гап | Ўзлаштирма гап |
|---|---|
| - ***Хўш***, ***Канизакхон***, *қандай янгиликлар бор? - сўради Ўктам.*<br>- ***<u>Мен</u>*** *кетдим, - деди укаси.* | *Ўктам Канизакхондан қандай янгиликлар борлигини сўради.*<br>*Укаси* ***<u>ўзининг</u>*** *кетаётганини айтди.* |

Ўзлаштирма гапнинг кесими *айтмоқ, гапирмоқ, буюрмоқ, сўрамоқ, ундамоқ* (*демоқ* феълидан ташқари) сўзлари билан ифодаланади.

## 4-§. Кўчирма ва унда ишлатиладиган тиниш белгилари

Бирор матндан кўчирилган гаплар **<u>кўчирма</u>** дейилади. Кўчирма икки хил бўлади:

1. Муаллиф гапи билан бирга қўлланган кўчирма: *Алишер Навоий илм олишга даъват қилиб: "Олим бўлсанг, олам сеники", - деган эди .*

2. Муаллиф гаписиз қўлланган кўчирма:

*Коинот гултожи инсондир азал,*
*Ундадир энг олий тафаккур, амал.*
*У ҳатто тубанлик ичра ҳам танҳо,*
*Ё фалак, ижодинг бунча мукаммал.*

*А.Орипов*

Муаллиф гапи билан қўлланган кўчирма баён қилинаётган фикрни асослаш, тасдиқлаш ёки инкор этиш учун келтирилади. Шеърий парчалар кўчирма тарзида келтирилса, қўштирноққа олинмайди. Кўчирма муаллиф гаписиз қўлланса ҳам, қўштирноққа олинмайди. Бу тарздаги кўчирмалар **эпиграф** тарзида қўлланади ва қўштирноққа олинмайди.

## 5-§. Диалог

Икки кишининг нутқи **диалог** деб аталади. Диалогда кўчирма гаплардан фойдаланилади, ҳар бир гап тире билан бошланади. (Бунда муаллиф гапи ишлатилмаслиги ҳам мумкин.): *- Қайси мактабда ўқийсан? - 24-мактабда. – Нечанчи синфда? – Бешинчи синфда.*

**Такрорлаш учун саволлар:**

1. Муаллифнинг нутєида ифодаланган бошєаларнинг фикрлари єандай шаклларда бўлиши мумкин?
2. Кўчирма гапнинг таърифини айтинг.
3. Кўчирилган гап ва муаллиф гаплари іаєида маълумот беринг.
4. Кўчирилган гапнинг жойлашиш ўринлари іаєида гапиринг.

**5. Кўчирилган гап муаллиф гапидан олдин келса,тиниш белгилари єандай єўлланади? 6. Кўчирилган гап муаллиф гапидан кейин келса,тиниш белгилари єандай єўлланади? 7.Муаллиф гапи кўчирилган гап ичида келса,тиниш белгилари єандай єўлланади? 8. Кўчирилган гап муаллиф гапининг ўртасида келса, тиниш бўлгилари єандай єўлланади? 9. Муаллиф нутєида ишлатилган єандай бирликлар єўштирноєєа олинади? 10. Кўчирма гаплар диалогик нутєда луєма тарзида келган бўлса, єандай тиниш белгилари ишлатилади? 11. Ўзлаштирма гапнинг таърифини айтинг. 12. Кўчирма гаплар ўзлаштирма гапларга айлантирилганда, улар таркибидаги гап бўлаклари іисобланмайдиган бирликлар єандай ўзгаришларга учрайди? 13. Кўчирма ва унинг турлари іаєида гапиринг. 14. Кўчирмада тиниш белгилари єандай ишлатилади? 15. Кўчирма гапда ишлатиладиган тиниш белгиларининг барчасини санаб кўрсатинг.**

| Гап таҳлили намунаси | |
|---|---|
| 1. Ифода мақсадига кўра тури.<br>2. Ҳис-ҳаяжон ифодалашига кўра тури.<br>3. Тузилишига кўра тури.<br>4. Гап бўлаклари ва уларнинг турлари. | 5. Уюшиқ ва ажратилган бўлаклар бўлса, аниқланади.<br>6. Гап бўлаклари саналмайдиган бирликлар бўлса, аниқланади.<br>**7. Ўзга гап бўлса, тури аниқланади.** |

## 16 - М А Ъ Р У З А
## УСЛУБИЯТ (СТИЛИСТИКА). НУТҚ УСЛУБЛАРИ

**Режа:**

1. Услубият ҳақида умумий маълумот.
2. Нутқ услублари:
   1) сўзлашув услуби;
   2) илмий услуб;
   3) расмий-идоравий услуб;

4) оммабоп (публицистик) услуб;
5) бадиий услуб.
3. Нутқ маданияти ҳақида.

## 1-§. Услубият ҳақида умумий маълумот

**У с л у б и я т** тилшунослик фанининг бир бўлими бўлиб, нутқ жараёнида тил ҳодисаларининг мақсадга, шароитга ва муҳитга мос равишда фойдаланиш қонуниятлари билан таништиради. Услубиятда услублар, тил воситаларининг нутқда қўлланиш йўллари, фонетик, луғавий, фразеологик ва грамматик бирликларнинг қўлланиш хусусиятлари ўрганилади.

Адабий тилнинг ижтимоий ҳаётдаги маълум бир соҳада қўлланадиган, бир қанча ўзига хос хусусиятларга эга бўлган кўриниши **адабий тил услуби** дейилади. Услуб орқали сўзловчи шахс нарсаларга, воқеаларга шахсий муносабатини акс эттиради.

Ўзбек адабий тилида қуйидаги асосий нутқ услублари бор: **сўзлашув услуби, бадиий услуб, расмий услуб, оммабоп услуб, илмий услуб** (Айрим дарсликларда сўзлашув услубидан бошқа барча услублар **китобий услуб** деган умумий ном остида берилади): *дуруст, метро, кўк, тузук* (сўзлашув услуби); *мовий, метрополитен* (китобий).

Ҳар бир услубни яратувчи воситалар мавжуд. Буларни қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

**1. Лексик воситалар:** Синоним, омоним, антоним, пароним, кўп маънолилик, таг маъно (гапнинг тагида яширинган маъно), сифатлаш, ўхшатишлар, фразеологик бирлик, шева, ноадабий сўзлар (жаргон, арго, сўкиш, қарғиш кабилар) касб-ҳунар сўзлари, муболаға (гипербола), архаик ва тарихий сўзлар, атамалар.

**2. Фонетик воситалар:** нутқ товушлари, оҳанг, урғу.

**3. Грамматик воситалар: а) морфологик воситалар:** ҳар бир сўз туркуми; **б) синтактик воситалар:** гап бўлаклари, риторик сўроқ гаплар, ундалма, кириш сўз, кириш бирикма, содда ва қўшма гаплар, кўчирма ва ўзлаштирма гаплар.

Маълум бир услубга тегишли бўлган сўзлар **услубий хосланган сўзлар** деб юритилади: *янглиғ* сўзи бадиий услубга, *омоним, синоним* сўзлари илмий услубга, *балли, кетворган* каби сўзлар сўзлашув услубига, *фаоллар йиғилиши, сиёсий майдон* каби сўз бирикмалари оммабоп услубга хосдир. Сўзлашув услубида ҳам, китобий услубда ҳам ишлатилаверадиган сўзлар **услубий бетараф** сўзлар ҳисобланади: *сув, тоғ, бола, хат.* Бу сўзлар кўчма маънода қўлланса, маълум бир услубга тегишли бўлиши мумкин.

## 2-§. Нутқ услублари

### 1. Сўзлашув услуби

Уйда, кўчада, инсонларнинг ўзаро сўзлашувида қўлланадиган услуб **сўзлашув** услуби деб аталади. Бу услубнинг адабий тил меъёрларига риоя қиладиган кўриниши **адабий сўзлашув услуби** деб юритилса, бундай меъёрларга риоя қилинмайдиган кўриниши **оддий сўзлашув услуби** деб аталади. Сўзлашув услубидаги нутқ кўпинча диалогик шаклда бўлади. Икки ёки ундан ортиқ шахснинг луқмасидан тузилган нутқ **диалогик нутқ** дейилади.

Сўзлашув услубида кўпинча турли услубий бўёқли сўзлар, грамматик воситалар, товушлар тушиб қолиши, орттирилиши мумкин: ***Кеп** қолинг! **Оббо**, ҳамма ишни дўндирибсиз-да. **Мазза** қилдик. **Кетақо-о-ол**!*

Сўзлашув услубида гапдаги сўзлар тартиби анча эркин бўлади, пичинг, қочириқлар, киноялар кўплаб ишлатилади. Кўпроқ содда гаплар, тўлиқсиз гаплар, ундалмали гаплардан фойдаланилади.

### 2. Илмий услуб

Фан-техниканинг турли тармоқларига доир илмий асарлар, дарсликлар **илмий услубда** ёзилади. Мантиқлилик, аниқлик бу услубга хос хусусиятлардир. Илмий услуб аниқ

маълумотлар асосида чиқарилган илмий хулосалар (қоидалар, таърифлар)га бой бўлиши билан бошқа услублардан фарқ қилади: *Ёмғир - суюқ томчи ҳолидаги атмосфера ёғини. Томчининг диаметри 0,5-0,6 мм бўлади.*

Илмий услубда ҳар бир фаннинг ўзига хос илмий атамаларидан фойдаланилади, бу услубда сўзлар ўз маъносида қўлланади, қоида ёки таърифнинг мазмунини очишга хизмат қиладиган ажратилган бўлаклар, кириш сўзлар, кириш бирикмалар, шунингдек, қўшма гаплардан кўпроқ фойдаланилади.

### 3. Расмий-идоравий услуб

Давлат идоралари томонидан чиқариладиган қарорлар, қонунлар, низомлар, халқаро ҳужжатлар **расмий-идоравий услубда** ёзилади. Ариза, тилхат, маълумотнома, чақирув қоғози, таклифнома, шартнома, таржимаи ҳол, эълон, тавсифнома, далолатнома, ҳисобот кабилар ҳам шу услубда ёзилади. Бундай услубдаги ҳужжатлар қисқа, аниқ, барча учун тушунарли қилиб тузилади. Бу услубнинг асосий белгиси: **жумлаларнинг бир қолипда, бир хил шаклда бўлиши.** Бу услубда ҳам сўзлар ўз маъносида қўлланади, кўпчиликка маълум бўлган айрим қисқартма сўзлар ишлатилади, ҳар бир соҳанинг ўзига хос атамаларидан фойдаланилади, *қарор қилинди, инобатга олинсин, ижро учун қабул қилинсин, тасдиқланади, юклатилсин, тайинлансин* каби сўз ва сўз бирикмалари кўплаб учрайди. Расмий-идоравий услубда кўпинча дарак гаплардан, қарор, буйруқ, кўрсатма кабиларда эса буйруқ гаплардан ҳам фойдаланилади. Бу услубда гап бўлакларининг одатдаги тартибда бўлишига риоя қилинади: *Ўз лавозимини суиистеъмол қилганлиги учун М.Аҳмедовга ҳайфсан эълон қилинсин.*

### 4. Оммабоп (публицистик) услуб

Ташвиқот-тарғибот ишларни олиб боришда қўлланадиган услуб, яъни матбуот услуби **оммабоп услуб** ҳисобланади. Соддалик, тушунарли бўлиш, таъсирчанлик, адабий тил меъёрларига риоя қилиш бу услубнинг асосий белгиларидан ҳисобланади. Оммабоп услубнинг радио, телевидениеда ишлатиладиган кўриниши **оғзаки оммабоп услуб** дейилса, газета, журналларда ишлатиладиган кўриниши **ёзма оммабоп услуб** ҳисобланади. Бу услубда ижтимоий-сиёсий сўзлар кўп қўлланади. Нутқ таъсирчан бўлиши учун таъсирчан сўз ва бирикмалардан, мақол ва ҳикматли сўзлардан ҳам фойдаланилади. Бундай услубда гап бўлаклари одатдаги тартибда бўлади, кесимлар буйруқ ва хабар майлидаги феъллар билан ифодаланади, дарак, ҳис-ҳаяжон ва риторик сўроқ гаплардан, ёйиқ ундалмалардан, такрорий сўз ва бирикмалардан унумли фойдаланилади: *1. Азамат пахтакорларимиз мўл ҳосил етиштириш учун фидокорона меҳнат қилишяпти. 2. Партия фаоллари ўзларининг навбатдаги мажлисига йиғилишди.*

### 5. Бадиий услуб

Воқеликни бадиий образлар (тимсоллар) воситасида акс эттириб, тингловчи ёки ўқувчига эстетик жиҳатдан таъсир қилувчи услуб **бадиий услуб** деб аталади. Бадиий асарлар (назм, наср ва драматик асарлар) бадиий услубда бўлади. Бадиий асар кишига маълумот бериш билан бирга, тимсоллар (образлар) воситасида эстетик таъсир ҳам кўрсатади: *Ўлкамизда фасллар келинчаги бўлмиш баҳор ўз сепини ёймоқда.* Бадиий услубда қаҳрамонлар нутқида оддий нутқ сўзлари, шева, вульгаризмлардан ҳам фойдаланилади.

Бадиий услуб **аралаш услуб** ҳисобланади, чунки бу услубда сўзлашув ва китобий услубларга хос ўринлар ҳам учрайди.

## 3-§. Нутқ маданияти ҳақида

Нутқ тўғри, аниқ ва ёқимли бўлиши лозим. Тўғри, аниқ ва ёқимли гапириш учун мантиқий изчилликка ва адабий меъёрларга риоя қилиш керак.

**Нутқ маданияти** деганда мантиқий изчилликка, адабий тил меъёрларига риоя қилган ҳолда тўғри, аниқ ва ёқимли сўзлаш тушунилади.

**Такрорлаш учун саволлар:**

1. Услубият нима ва бу бўлимда нималар ўрганилади? 2. Адабий тил услубининг таърифини айтинг. 3. Сўзлашув услуби іаєида гапиринг. 4. Сўзлашув услубида кўпроє єандай гаплардан фойдаланилади? 5. Илмий услуб іаєида гапиринг. 6. Илмий услубда кўпроє єандай тил воситаларидан фойдаланилади? 7. Расмий-идоравий услубда нималар ёзилади? 8. Расмий-идоравий услубда єандай гаплардан фойдаланилади? 9. Оммабоп услуб іаєида гапиринг. 10. Оммабоп услубда єандай гап ва тил воситаларидан фойдаланилади? 11. Бадиий услубнинг хусусиятлари іаєида гапиринг. 12. Бадиий услуб нега аралаш услуб дейилади? 13. Нима учун маънодошлик услубиятнинг асоси дейилади? 14. Тўлиє синонимлар іаєида гапиринг. 15. Маъновий синонимлар іаєида сўзланг. 16. Услубий синонимлар іаєида гапиринг. 17. Фразеологик синонимлар іаєида гапиринг. 18. Грамматик синонимлар іаєида сўзланг. 19. Єандай меъёрлар адабий тилнинг іамма кўринишлари учун хос? 20. Єандай меъёрлар адабий тилнинг іамма кўринишлари учун хос эмас? 21. Нутє маданияти іаєида сўзланг.

# 17-МАЪРУЗА
# УСЛУБИЯТ ТУРЛАРИ

**Режа:**

1. Ёзма ва оғзаки нутқ меъёрлари ҳақида
2. Лексик услубият
3. Фонетик услубият

## 1-§. Ёзма ва оғзаки нутқ меъёрлари ҳақида

Луғавий, грамматик, услубий меъёрлар адабий тилнинг ҳ а м м а кўринишлари учун характерли, имло ва тиниш белгиларга оид меъёрлар адабий тилнинг фақат ё з м а шакли учун, тўғри талаффуз меъёрлари эса фақат о ғ з а к и нутқ шакли учун хосдир.

## 2-§. Лексик услубият

***1. Омонимларнинг услубий хусусиятлари***. Нутқда омонимлардан фойдаланган ҳолда турли сўз ўйинлари ҳосил қилинади: *Қўлингдан келганча чиқар яхши от, Яхшилик қил, болам, ёмонликни от, Насиҳатим ёд қилиб ол, фарзандим, Ёлғиз юрса чанг чиқармас яхши от*. Бу ўринда *от* омоним сўзлари турлича маъноларни ифодалаяпти. Омоним сўзлардан фойдаланган ҳолда сўз ўйинларини яратиш **тажнис (жинос)** санъати дейилади. Бадиий адабиётда шу бадиий санъат қўлланиб яратилган тўрт қатор шеър эса **туюқ** деб аталади.

***2.Синонимларнинг услубий хусусиятлари***. Синонимларни қўллашда ҳиссий-таъсирий бўёқ мавжудлиги жиҳатидан фарқланади: *юз, афт, башара, бет, чеҳра, жамол, рухсор, дийдор* синонимик қаторидаги *юз* сўзи маъноси бетараф сўз бўлса, *бет, афт* сўзлари салбий бўёққа эга, *башара* сўзида эса салбий бўёқ янада кучли, *турқ* сўзида *башара* сўзига нисбатан ҳам кучлироқдир; *чеҳра* ижобий бўёққа эга, *жамол* сўзида бу бўёқ янада кучли. Шунингдек, синонимларнинг ишлатилиш доираси чегараланган ёки чегараланмаган бўлиши мумкин: *кекса, қари, оқсоқол, нуроний, мўйсафид* синонимик қаторидаги *қари* сўзининг ишлатилиш доираси кенг, қолганлариники эса чегараланган. Синонимларни ўринсиз ишлатиш оқибатида турли услубий хатолар келиб чиқади: *Бульдозер кўчамизда йиқилай деб турган деворларни бир чеккага суриб йўл очар эди* гапида *йиқилай* сўзи ноўрин қўлланган, чунки бу сўз одамларга нисбатан ишлатилади; бу гапда деворга нисбатан *қуламоқ* сўзи ишлатилиши керак эди.

***3. Антонимларнинг услубий хусусиятлари***. Антонимлардан тўғри фойдалана олмаслик ҳам услубий хатоликларни келтириб чиқаради: *Чойхона мудири Юсуфжон Нозимов турмушнинг иссиқ-чучугини тотиган кишига ўхшайди.* Бу гапдаги *иссиқ-чучугини* жуфтлиги ўрнида *аччиқ-*

*чучугини* жуфтлиги ишлатилиши керак эди. Антонимлардан фойдаланган ҳолда яратиладиган бадиий санъат **тазод (антитеза)** деб аталади.
***4. Паронимларнинг услубий хусусиятлари.*** Паронимларни тўғри қўлламаслик натижасида ҳам хатоликлар келиб чиқади: *Чаноқлардаги лўппи очилган пахталар қуёшда ярқираб кумушдек тобланади.* Бу гапдаги *тобланади* сўзи ўрнида *товланади* сўзи ишлатилиши керак эди.
***5. Турли сабабларга кўра қўлланиши чегараланган сўзларнинг услубий хусусиятлари.*** Бундай сўзларга эскирган ва янги сўзлар, шева, касб-ҳунарга оид сўзлар, атамалар, жаргонлар киради. Нутқда бу каби сўзлар ҳам муҳим услубий вазифалар бажаради. Архаизмлардан бадиий ёки оммабоп асарларда нутққа киноя, ҳажв руҳини киритиш учун фойдаланилса, тарихий сўзлардан ўтмиш воқелигини ифодалаш мақсадида фойдаланилади. Шева сўзлари маҳаллий руҳни ифодалашда ишлатилса, атамалар илмий ва бадиий асарларда фан-техникага оид тушунчаларни ифодалаш учун ишлатилади, жаргонлар эса маълум тоифага мансуб кишилар нутқини бериш учун зарурдир.

Албатта, бу гуруҳ сўзлардан фойдаланганда, чегарадан чиқмаслик лозим, акс ҳолда нутқда ғализлик пайдо бўлади:
*1. Терилган пахтани ташиб туриш учун кўтаримчи ажратилди.*
*2. Бунинг устига токарлик станогининг резцодержатели ўрнига махсус мослама тайёрланиб унга гребенларни тозаловчи фрез ўрнатилди.* Биринчи гапда *кўтаримчи* деган ўринсиз ясалган янги сўз ишлатилган бўлса, иккинчи гапда атамалар меъёрдан ортиқ ишлатилган.

Нутқда ибора, тасвирий ифода ва мақоллар ҳам маълум услубий вазифа бажаради. Ибораларадаги омонимлик, синонимлик, антонимлик хусусиятлари, тасвирий ифодалардаги баландпарвозлик, мақоллардаги мазмуний ихчамлик катта услубий имкониятлар яратади: *Бир ёқадан бош чиқармоқ* ибораси бадиий нутққа мансуб бўлса, *бир жон, бир тан бўлмоқ* ибораси умумнутққа хосдир. Ёзувчи ва шоирларимиз ҳам ибора ва мақоллар ижод қилишади: *Ўликнинг ёғини, тирикнинг тирноғини ейди бу. (Абдулла Қаҳҳор) Ўқсиз солдат – қиличсиз қин. (Ойбек)*
***6. Муболага (**ёки **гипербола)*** услубий восита бўлиб, ифодаланган тушунчанинг кўпиртириб, орттирилиб тасвирланишидир. Муболаға халқ достонларида, эртакларда, айтишув ва лофларда фаол ишлатилади: *Тўқсон молнинг терисидан кавуши...* (“Алпомиш” достонидан)
*7. **Сифатлаш (**ёки **эпитет)*** нарса, шахс, ҳодисаларнинг белгисини ифодалаш воситасидир. Бу вазифада тилимиздаги белги билдирувчи сўз туркумлари (асосан, сифатлар) қўлланади: ***Золим*** *жаллод, билмаганим билдиргин...* (“Кунтуғмиш” достонидан)

## 3-§. Фонетик услубият

### 1. Нутқ товушларининг услубий хусусиятлари

1) *асир, девон* каби сўзлардаги товушларнинг нотўғри (*аср, диван* каби) талаффуз қилиниши оқибатида нутқда тушунмовчилик юзага келади.
2) *–да, -ва, -қа (ёки -қ)* каби бўғинлардан кейин яна шундай товушлар билан бошланадиган сўзларни келтириш нутқий ғализликни келтириб чиқаради: *Сўзларнинг гапда қўлланиши ва вазифалари...*

### 2. Урғунинг услубий хусусиятлари

Сўз урғусининг кўчиши шу сўз маъносини ўзгартириши мумкин: *янгú кийим*(сифат) - *я́нги дамланди* (равиш). Гапда оҳангнинг ўзгариши ҳам янги услубий мазмун пайдо бўлишига олиб келади: *Сиз аҳмоқ одам эмассиз* жумласида ***аҳмоқ*** сўзидан кейин тўхтам (пауза) қилинса, фикр қаратилган шахснинг ҳам аҳмоқ, ҳам одам эмаслиги ифодаланиши мумкин: *Сиз аҳмоқ, одам эмассиз.*

## 18–МАЪРУЗА

## ГРАММАТИК УСЛУБИЯТ. МОРФОЛОГИК УСЛУБИЯТ

**Режа:**

1. От туркумига хос услубий хусусиятлар.
2. Сифат туркумига хос услубий хусусиятлар.
3. Олмош туркумига хос услубий хусусиятлар.
4. Феълларга хос услубий хусусиятлар.

### 1-§. От туркумига хос услубий хусусиятлар

***1. Келишик қўшимчаларининг услубий хусусиятлари.***

Келишик қўшимчалари ўзаро алмашиб қўлланиши мумкин:

1) *–ни* ва *–дан* қўшимчалари алмашиб қўлланиши мумкин: *Қани, ошдан (ни) олинг, меҳмон.*

2) *–ни* ва *–га* қўшимчалари алмашиб қўлланиши мумкин: *Гапингизга (гапингизни) тушунмадим.*

3) *–ни* ва *–да* қўшимчалари алмашиб қўлланиши мумкин: *Далани (да) айландим.*

**4)** *–нинг* ва *–дан* қўшимчалари алмашиб қўлланиши мумкин: *келганларнинг бири – келганлардан бири.*

5) келишик қўшимчалари ва кўмакчилар алмашиб қўлланади:

а) *–га* қўшимчаси ўрнида ***учун*** кўмакчиси қўлланади: *Укамга олдим – Укам учун олдим.*

б) *–да* қўшимчаси ўрнида билан кўмакчиси қўлланади: *Хатни қаламда ёзди – Хатни қалам билан ёзди.*

в) *–дан* қўшимчаси ўрнида *орқали* кўмакчиси қўлланади: *Хабарни радиодан эшитдик – Хабарни радио орқали эшитдик.*

г) *–ни* қўшимчаси ўрнида *ҳақида* кўмакчиси қўлланади: *Акаси келганини гапирди – Акаси келгани ҳақида гапирди.*

***2. Эгалик қўшимчаларининг услубий хусусиятлари.***

1) отларда қўлланган эгалик қўшимчаси қаратқич келишиги қўшимчасининг мавжудлигини, қаратқич келишиги қўшимчаси эса эгалик қўшимчасининг мавжудлигини кўрсатиб туради: *мактаб ҳовлиси, бизнинг мактаб.*

2) эгалик (қарашлилик маъноси) *–ники* қўшимчаси ёрдамида ҳам ифодаланиши ҳам мумкин, фақат бу қўшимча шахс-сон кўрсатмайди: *Бизнинг мактаб – мактаб бизники.*

3) қаратқичли бирикмаларда шахс алмашиб қўлланиши ҳам мумкин: *Менинг уйим шу ерда – Каминанинг уйи шу ерда.*

***3. От ясовчи қўшимчаларнинг услубий хусусиятлари***. Бу қўшимчалар орасида ўзаро синоним бўлган қўшимчалар ҳам учрайди: *адабиётшунос – адабиётчи, меҳнаткаш – меҳнатчи.*

### 2-§. Сифат туркумига хос услубий хусусиятлар

1. Сифатлардаги қиёсий даражани ясовчи *–роқ* қўшимчаси ўрнида *–мтир, -имтил, -иш* қўшимчалари қўлланиши мумкин: *кўкроқ – кўкиш, қорароқ – қорамтир.*
2. Сифат ясовчи қўшимчалар орасида синонимлик ҳодисаси кўплаб учрайди: *айбдор – айбли, серғайрат – ғайратли, чопқир – чопағон, беғубор – ғуборсиз, бамаъни – маънили.*
3. Бу қўшимчалар орасида антонимлик ҳодисаси ҳам учрайди: *сувли – сувсиз.*

### 3-§. Олмош туркумига хос услубий хусусиятлар

1. *У, бу, шу* олмошлари ўрнида *бир* сўзи (ёки *бир хил* сўзлари) қўлланади: *Бир (шундай) чаманки, атрофида булбуллар гирён. Бир хил (шундай) одамлар тушунмайди.*
2. *Мен* олмоши ўрнида *камина* сўзи, *сиз* ўрнида *ўзлари* сўзи қўлланади: *Бу ишда каминанинг заррача тажрибаси йўқ. Сиз ваъда берган эдингиз – Ўзлари ваъда берган эдилар.*

3. Илмий ишларда, расмий ҳужжатларда, йиғилишларда *мен* олмошининг ўрнида *биз* олмоши ишлатилади: *Бизнинг (менинг) бу илмий ишимизда кўрсатиш олмошларининг хусусиятлари ҳақида сўз юритилади.*
4. Ҳурматни ифодалаш учун *сен* олмоши ўрнида *сиз* олмоши ишлатилади. *Сиз бугун келасизми?* Аксинча ҳурматсизликни ифодалаш учун эса *сен* олмошига кўплик қўшимчаси қўшилади: *Сенлар буни тушунмайсанлар.*
5. Кўрсатиш олмошлари таъкидлаш, ажратиш маъноларини ифодалайди: *Китоб – бу доно маслаҳатчи.*

## 4-§. Феълларга хос услубий хусусиятлар

***1. Шахс-сон қўшимчаларининг синонимияси:***
1) феълнинг 2-шахс бирлик қўшимчаси ўрнида 2-шахс кўплик қўшимчаси қўлланади: *Амаки, эртага келасизми?*
2) феълнинг 1-шахс бирлик қўшимчаси ўрнида 2-шахс бирлик қўшимчаси ишлатилади: *Табиатнинг ишларига ҳайрон қоласан киши.*
3) 2-шахс кўплик ўрнида 1-шахс кўплик қўшимчаси қўлланади: *Болалар, бугун диктант ёзамиз.*
4) 2-шахс кўплик ўрнида 3-шахс бирлик қўшимчаси ишлатилади: *У норози оҳангда деди: - Шунақа иш билан ҳазиллашиб бўладими?*
***2. Замон қўшимчаларининг синонимияси:***
1) ҳозирги замон давом феъли ўрнида ҳозирги-келаси замон шакли қўлла-нади: *Бутун қишлоқ улар ҳақида гаплашишади (гаплашишяпти).*
2) келаси замон ўрнида ҳозирги замон шакли қўлланади: *Эртага теримга тушяпмиз.*
3) ҳозирги замон ўрнида ўтган замон шакли келади: *Қарасам, югуриб келаётибди.*
***3. Майл қўшимчалари синонимияси:***
1) ижро майлидаги феъл буйруқ майли ўрнида келади: *Қани, кетдик, болалар.*
2) ижро майли шарт майли ўрнида келади: *Келаман дедингми, келиш керак.*
***4. Нисбат қўшимчалари синонимияси:***
1) биргалик нисбати қўшимчаси кўплик қўшимчасига синонимдир: *Улар келишди – Улар келдилар.*
2) нисбат қўшимчалари ичида ўзаро синонимликни ҳосил қиладиганлари ҳам бор: *-л, ил,-н, -ин, -ш, -иш; -т, -тир, -дир, -ир, -гиз; -киз, -каз, -қиз, -қаз.*
***5. Феъл ясовчи қўшимчалар синонимияси:***
1) баъзи ясама феъллар ибораларга синоним бўлади: *гуллади – гулга кирди.*
2) қўшимча ёрдамида ясалган феъллар қўшма феълларга синоним бўлади: *ҳимоялади – ҳимоя қилди.*
3) феъл ясовчилар ўзаро синоним бўлади: *сизламоқ – сизсирамоқ, сувсамоқ- сувсирамоқ.*

## 19–МАЪРУЗА
## СИНТАКТИК УСЛУБИЯТ
### Режа:

1. Гап бўлакларининг услубий хусусиятлари
2. Айрим гап турлари ўртасидаги синонимия
3. Қўшма гапларнинг услубий хусусиятлари
4. Кўчирма ва ўзлаштирма гапларнинг услубий хусусиятлари

## 1-§. Гап бўлакларининг услубий хусусиятлари

**1) сифатловчи аниқловчилар** от билан ифодаланса, мажозий маъно ифодалайдиган бўлиб қолади: ***Кумуш*** *чойшаб ёпиб далалар, қор қўйнида ухлаб ётади. (Уйғун)*

**2) сифатловчи аниқловчилар** турли сўз туркумларидан тузилиб, сифатлаш вазифасини бажарган ибора ва сўз бирикмалари билан ифодаланади: *Осмон ўпар тоғлар, бағри кенг инсон, чеки йўқ қирлар, фикри тиниқ инсонлар.*
**3) сифатловчи-аниқловчи** такрорий сўзлар билан ифодаланганда маъно кучайиши юз беради: ***Баланд-баланд*** *бинолар тез учрай бошлади.*
**4) изоҳловчи** ҳам услубий вазифа бажаради. Маълумки, изоҳловчи лақаб, қариндошлик, ўхшатиш каби маъноларни ифодалаш учун хизмат қилади. Бунда маълум шахсга нисбатан муносабат сезилади, яъни услубий маъно юзага келади: *Мамажон қуруқ, Али тажанг, Соли совуқ* ва ҳ. Ўхшашлик маъносидаги изоҳловчи жумлага кўтаринкилик(пафос) хусусиятини киритади: *она-Ватан, гулчалар-қизчалар.*
**5) ажратилган бўлаклар** жумла таркибидаги айрим бўлакларга урғу бериш, уларни алоҳида ажратиб кўрсатиш, шахс ва нарса ҳақида қўшимча маълумот бериш, белги-хусуситларни таъкидлаш каби вазифаларни бажаради: *Биз,* ***ёшлар,*** *ота-боболаримиз меросини кўз қорачиғидай асрашимиз лозим.*
**6) ундалмалар** ҳам турли услубий вазифаларни бажаради. Улар гап бошида ва ўртасида келса, чақириқ ва мурожаатни ифодалайди: ***Ука,*** *менинг йўқлигимни билинтирма.* Гап охирида келган ундалма тингловчига нисбатан ҳурмат, муҳаббатни ифодалайди: *Тупроғингни зар биларман,* ***она-Ватаним!*** Булардан ташқари ундалмалар илтимосни, сўзловчининг ҳис-туйғусини, кучли эҳтиросини, кўтаринки ҳолатни, пичинг ва кинояни ифодалаш учун ҳам хизмат қилади.
7) **кириш сўз** ва **кириш бирикмалар** сўзловчининг ўз фикрига бўлган муносабатини билдиради. Бу муносабат сифат, сон, олмош, феъл ва модал сўзлар ёрдамида ифодаланиб, гумон, тасдиқ, инкор, фикр тартиби, фикр изоҳи, эътиборни тортиш, хулоса, икки фикрни ўзаро боғлаш каби маъноларни акс эттиради: *У бугун келмайди,* ***шекилли.***

## 2-§. Айрим гап турлари ўртасидаги синонимия

1) айни бир фикр гапнинг ҳар хил турлари билан ифодаланади:
а) содда гап билан: *Ҳар ким экканини ўради.* б) қўшма гап билан: *Ким нимани экса, шуни ўради.*
2) бир бош бўлакли ва икки бош бўлакли гаплар ўзаро синоним бўлади: *Бугун кетамиз – Биз бугун кетамиз.*
3) дарак ва сўроқ гап синоним бўлади: *Ватанни ким севмайди – Ватанни ҳамма севади.*

## 3-§. Қўшма гапларнинг услубий хусусиятлари

1) боғланган қўшма гаплар таркибида бириктирув ва зидлов боғловчилари ўрнида *–у, -ю, -да* юкламалари синоним ҳолатда қўлланиши мумкин: *Ҳаво булутлашди ва ёмғир ёға бошлади. Ҳаво булутлашди-ю, ёмғир ёға бошлади.*
2) эга, кесим, тўлдирувчи, аниқловчи эргаш гапли қўшма гаплар содда гапларга синоним бўлади: *Шуниси аниқки, биз бугун йўлга чиқа олмаймиз - Бизнинг бугун йўлга чиқа олмаслигимиз аниқ.*
3) сабаб, мақсад, ўхшатиш эргаш гапларнинг кесимлари сифатдош, ҳаракат номи, от билан ифодаланса, содда гапларга синоним бўлади: *Тоғ этаги жуда гўзал эди, гўё чиройли гилам тўшалгандай – Чиройли гилам тўшалгандай тоғ этаги жуда гўзал эди.*
4) пайт, сабаб, шарт, тўсиқсиз, натижа, равиш эргаш гапларни ўз доирасида синонимлари билан алмаштириш мумкин:
*У келса (келган пайтда, келар экан), ҳамма кетиб бўлибди.*
5) боғловчисиз қўшма гаплар боғланган ва эргашган қўшма гапларга синоним бўлади: *Қор ёғди – дон ёғди (Қор ёғса, дон ёғади. Қор ёғди-ю, дон ёғди).*

## 4-§. Кўчирма ва ўзлаштирма гапларнинг услубий хусусиятлари

Бировларнинг ҳеч ўзгаришсиз берилган гапи (кўчирма гап) ўзгаларнинг мазмуни сақланиб, шакли ўзгартирилган ҳолда берилган гапи (ўзга гап) билан синонимик ҳолатда бўлади:

*Ўқитувчимиз деди: "Топшириқларни ўз вақтида бажаринг" – Ўқитувчимиз топшириқларни ўз вақтида бажариш лозимлиги ҳақида гапирди.*

Кўчирма гап ўзлаштирма гапга айлантирилганда қуйидаги ўзгаришлар юз беради:

1. Кўчирма гап бирикмали тўлдирувчига айланади: *"Ҳамма йиғилди", - деди навбатчи. Навбатчи хамманинг йиғилганини айтди.*

2. Кўчирма гап таркибидаги ундалма воситали тўлдирувчига айланади*: "**Расулбек**, биз билан юринг", - деб таклиф қилди дўсти.* ***Расулбекка*** *дўсти ўзлари билан юришни таклиф қилди.*

3. Кўчирма гап таркибида кириш сўз вазифасида келган ундовлар, тақлид сўзлар туширилади: *"Вой, қўрқиб кетяпман", - деди хотини. Хотини қўрқиб кетаётганини айтди.*

**Такрорлаш учун саволлар:**

1. Омонимларниннг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 2. Синонимларниннг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 3. Антонимларнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 4. Паронимларнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 5. Турли сабабларга кўра єўлланиши чегараланган сўзларнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 6.Нутє товушларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 7. Урјунинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 8. Келишик єўшимчаларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 9. Эгалик єўшимча-ларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 10. От ясовчи єўшимчаларнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 11. Сифатнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 12. Олмошнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 13. Шахс-сон єўшимчаларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 14. Майл єўшимчаларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 15. Нисбат єўшимчаларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 16.Феъл ясовчи єўшимчаларнинг услу-бий хусусиятлари iаєида гапиринг. 17. Гап бўлакларининг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг. 18. Айрим гап бўлаклари ўртасидаги синонимия iаєида гапиринг. 19. Єўшма гапларнинг услубий хусусиятлари iаєида гапиринг.

## 21 - М А Ъ Р У З А

## ТИНИШ БЕЛГИЛАРНИНГ ИШЛАТИЛИШИ (ПУНКТУАЦИЯ)

**Режа:**

1. Тиниш белгилари ҳақида умумий маълумот.
2. Тиниш белгиларининг турлари ва қўлланиш ўринлари.

Тиниш белгилари ва уларнинг ёзма нутқда қўлланишини ўрганадиган бўлим **пунктуация** деб юритилади.

### 1-§. Нуқта

Нуқта қуйидаги ўринларда қўйилади:

1. Тинч оҳанг билан айтилган дарак, буйруқ ва ундов (ҳис-ҳаяжон) гаплардан кейин: *Олтин куз фасли кириб келди. Дарсларни ўз вақтида тайёрлаб юргин. Кошки унинг кучи етса.*

2. Биринчи қисмида нуқта, кўп нуқта, ундов ёки сўроқ белгиси бўлган кўчирма гап ўртасида келган муаллиф гапидан сўнг: *"Мен ҳозир жўнайман, - деди у. – Сиз эса ярим соатлардан кейин йўлга чиқинг".*

3. Қисқартирилган исм ва фамилияларнинг биринчи ҳарфи ёки қисмидан кейин: *М.Исм. (Мирзакалон Исмоилий)*

4. Санаш ёки айрим фикрнинг қисмларини ифодалаган ва ой, кун, йилларни бир-биридан ажратиш учун қўлланган рақам ёки ҳарфлардан кейин: *27.09.2002* каби.

**Д и қ қ а т !** Қавсга олинган манбадан олдинги гап охиридаги тиниш белгилари ўз ўрнида сақланади ва қавсдан кейин ҳеч қандай тиниш белгиси қўйилмайди: *Кетди. (А.Қ.)* Шунингдек, сарлавҳалардан кейин (дарак гап бўлса) нуқта қўйилмайди.(18; 104).

## 2-§. Сўроқ белгиси

1. Сўроқ белгиси сўроқ гаплардан кейин қўйилади: *Ишга тайёрмисиз?*

2. Сўроқ гаплар биттадан ортиқ бўлиб келиши мумкин: Бундай пайтларда сўроқ белгиси қуйидагича қўйилади:

1) сўроқ гапларнинг ҳар бирига аҳамият бериш лозим топилса ёки ҳар қайси сўроқ гап мазмунига кўра мустақил бўлса, ҳар биридан сўнг сўроқ белгиси қўйилади: *Қишлоқлар қандай? Оғайнилар яхши юришибдими?*

2) агар сўроқ гаплар мазмунан умумий бир фикрни ифодаласа, сўроқ белгиси энг сўнгги сўроқ гапдан кейин қўйилади: - *Тағин меҳмон бошлаб келдингми? Ким келяпти: Савримими, Раҳбарми, ё акангнинг болаларини етаклаб келяпсанми? (Ғ.Ғ.)*

3. Сўз ёки ибора ноаниқ бўлса, унда гумон ифодаланса, сўроқ белгиси қўйилади: *Бу ишларнинг ҳаммасини ярим соат (?) ичида бир ўзи бажардимикин?*

**Д и қ қ а т !** Баъзан қўшма гаплар таркибидаги содда гаплардан бири сўроқ гап шаклида, иккинчиси эса унинг изоҳи сифатида келиши мумкин, бундай ҳолатда улар орасига вергул ёки тире қўйилиши мумкин: *У эртага келадими, келмайдими, бу мен учун қоронғи.*

## 3-§. Ундов белгиси

Ундов белгиси қуйидаги ўринларда қўйилади:

1. Кучли ҳис-ҳаяжонни ифодалаган гаплардан сўнг: *Ёшлигимизда нақадар бахтиёр эдик!*

2. Буюриш, тилак, орзу маъноларини ифодалаган гаплардан сўнг: *Ҳозироқ буларни кўзимдан йўқот! Қани энди қуш каби осмонда парвоз қилса!*

3. Гап бошида келиб, кучли ҳис-ҳаяжон ифодалаган ундалмалардан, ундов ҳамда ***ҳа*** ва ***йўқ*** сўзларидан сўнг: *Йўқ! Рустам бундай қабиҳликка бормайди ҳеч қачон! Азизлар! Сизни мустақиллик байрами билан табриклайман!*

## 4-§. Кўп нуқта

Кўп нуқта қуйидаги ўринларда қўйилади:

1. Фикрнинг тугалланмаганлиги, сўзловчининг ҳаяжонланиб яна нимадир айтмоқчи эканлигини кўрсатиш учун: *Агар ҳозир гапингизни тўхтатмасангиз...*

2. Баъзан кўп нуқта сўзловчининг ўйлаши, мулоҳаза қилишини кўрсатади: *Бугун... бугун олдингизга ўтсам бўладими?*

3. Баъзан кимнингдир саволга жавоб бермай индамай турганини кўрсатиш учун ҳам кўп нуқта қўйилади:

\- *Мендан розимассиз, биламан, кечирмайсиз...*

\- ...

4. Бирор сўз ёки гапнинг туширилганини кўрсатиш учун: *Бугун еттинчи бўлимга келиб, ... фиғони ошди.(Т.Малик)*

## 5-§. Кўп нуқта, ундов ва сўроқ белгиларнинг бириккан ҳолда келиши

1. Сўроқ мазмунига қараганда ҳис-ҳаяжон кучли бўлган сўроқ гаплардан кейин ундов ва сўроқ белгиси бириккан ҳолда (!?) қўйилади: *Гўзаллик оламни қутқаришига ким ишонмайди!?*

2. Кучли ҳис-ҳаяжон билан берилган саволни ифодалайдиган сўроқ гаплардан сўнг сўроқ ва ундов белгиси бириккан ҳолда қўйилади: *- А?! – Хонкелдиева турган ерида сурат бўлиб қолди. - Директоримиз-а?! (Ҳ.Ғ.)*

3. Кучли ҳис-ҳаяжон ифодаланган ва мазмунан тугалланмаган гаплардан кейин ундов белгиси ва кўп нуқта бириккан ҳолда (!..) қўлланади: *-Нафиса!.. Нафисаой!.. – деди Азиз ўпкаси юмшаб, кўзларига қайноқ ёш келди.(Ҳ.Ғ.)*

4. Мазмунан тугалланмаган сўроқ гаплардан сўнг сўроқ белгиси ва кўп нуқта бириккан ҳолда (?..) ишлатилади: *- Нима дедингиз? Буларнинг ҳаммаси мен учун?...*

## 6-§. Вергул

Вергул қуйидаги ўринларда қўйилади:

1. Уюшиқ бўлаклар орасида:

1) боғловчисиз бириккан уюшиқ бўлаклар орасида *Андижон, Наманган, Қўқон, Марғилон – Ўзбекнинг чамани, боғу бўстони. (Ғ.Ғ.)* 2) такрорланувчи боғловчилар билан бириккан уюшиқ бўлаклар орасига: *У гоҳ кулимсирайди, гоҳ чуқур ўйга толади.* 3) зидловчи боғловчилар ёрдамида бириккан уюшиқ бўлаклар орасига: *Замиранинг баланд, аммо майин овози бор эди. (П.Қ.)*

2. Ундалмаларни ажратиш учун: *Эртага, азизим, тоққа жўнаймиз.*

3. Кириш сўзларни ва тузилишига кўра мураккаб бўлмаган кириш гапларни ажратиш учун: ***Хуллас**, эртага шу ерда йиғиладиган бўлдилар. **Мен сизга айтсам**, одамнинг ёмони бўлмайди.*

4. *Ҳа* ва *йўқ* сўзларини гап бўлакларидан ажратиш учун: *Ҳа, бу гапингиз тўғри. Йўқ, эртага кела олмайман.*

5. Гапнинг ажратилган бўлакларини айириб кўрсатиш учун: *"Биз, **ёшлар**, ота-боболаримиз қолдирган бебаҳо меросни кўз қорачиғидай асрашимиз керак".*

6. Боғловчисиз боғланган қўшма гапларда: *Эшик очилди, ичкарига муздай ҳаво ёпирилиб кирди.*

7. *Ва, ҳам, ҳамда, ёки* (ёлғиз келган) боғловчиларидан бошқа боғловчилар билан боғланган қўшма гапларда: *Ҳамма гапирди, лекин у бир четкада хомуш ўтирар эди.*

8. Эргаш гапни бош гаплардан ажратиш учун: *Ҳамма йиғилгач, мажлис бошланди.*

9. Муаллиф гапини кўчирма гапдан ажратиш мумкин:

*- Бугунги қилган эзгу ишларимиз, - деди ота, - келажак учун мустаҳкам пойдевор вазифасини бажаради.*

## 7-§. Нуқтали вергул

Нуқтали вергул қуйидаги ўринларда қўлланади:

1. Ўз ичида вергул бўлган ёйиқ уюшиқ бўлаклар орасида:

*Меҳнат, ижод, одам шарафи;*
*Дил ёруғи, ҳаёт қувончи*
*Ҳаммасининг асли манбаи*
*Сен, Ватаним - тинчлик таянчи. (С.Назар)*

2. Ўз ичида вергули бўлган, мазмунан маълум даражада мустақилликка эга содда гаплар орасида ҳамда ҳар хил турдаги гапларни ўз ичига олган қўшма гапларда: *Дарахтлар, буталар шитирлади; кузнинг салқин нафаси юзига урилди.*

## 8-§. Икки нуқта

1. Уюшиқ бўлаклардан олдин келган умумлаштирувчи сўздан сўнг: *Йиғилишда тажрибали ишчилар: Салим ака, Абдукарим ака ва Собиржонлар сўзга чиқишди.*

Э с л а т м а : Баъзан умумлаштирувчи сўз яшириниши мумкин, лекин икки нуқта қўйилаверади: *Қилиниши керак: тракторлар таъмирдан чиқарилсин, ишчиларга етарли шароит яратилсин.*

2. Қуйидаги маъноларни ифодалаган боғловчисиз қўшма гапларда: 1) бир гап иккинчи бир гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг сабабини кўрсатса: *У икарига шошиб кириб кетди: телефон анчадан бери жиринглаётган экан.*

2) бир гап иккинчи бир гапдан англашилган иш-ҳаракатнинг натижасини кўрсатса: *Шамол жуда зўрайди: дарахтларнинг анча-мунчаси синиб тушди.*

3) агар бирор гап бошқа бир гапнинг мазмунини тўлдирса ёки изоҳласа: *Вазифангиз шу: биронта одам бу хонага кирмаслиги керак.*

3. Кўчирма гапдан олдин, муаллиф гапидан сўнг: *У баланд овозда сўради: - Ким бор?*

## 9-§. Тире

Тире қуйидаги ўринларда қўлланади:

1. От, сон, олмош ва ҳаракат номи билан ифодаланиб, кесим билан боғламасиз бириккан эга ва кесим орасига: *Ўзбекистоннинг пойтахти – Тошкент. Икки ўн беш – бир ўттиз. Буларни амалга оширадиган – сиз. Ўқиш – ҳаётни уқиш.*

2. Уюшиқ бўлаклардан сўнг келган умумлаштирувчи сўздан олдин: *Акам, опам ва синглим – барчаси мени кутиб ўтиришган экан.*

3. Ажратилган бўлак билан изоҳланмиш бўлак орасига: *Мен – Валиев Маҳмуд, 1954 йилда Тошкентда туғилганман.*

4. Кириш гап билан гап бўлаклари орасига: *Тунов кунги овчи – мен уни ўрмонда учратиб қолдим – менга қизиқ бир воқеани сўзлаб берди.*

5. Муаллиф гапи билан кўчирма гап орасида: - *Бугун келасизми? – сўради қизи.*

6. Диалог типидаги кўчирма гапларда: - *Келдими?* - *Келди.*

7. Кутилмаган воқеа-ҳодисаларни ифодалаган гаплардан олдин*: Кеча сизларникига борган эдим – Асқаржон келибди!*

8. Зид маъноли боғловчисиз қўшма гаплар орасида: *Жисмимиз йўқолур* - *ўчмас номимиз.*

## 10-§. Қавс

1. Ифодаланаётган фикрга ёки унинг бирор бўлагига қўшимча изоҳ берувчи сўз ёки иборалар қавсга олинади: *Каримжон (синфимизнинг аълочиси) олий ўқув юртига кирибди.*
Эслатма: Қавсдан олдинги тиниш белгилари (вергул, нуқтали вергул, икки нуқта, тире) қавсдан кейинга кўчирилади: *Чавандоз бу гапларни Эртоевга айтишни ҳам, айтмасликни ҳам билмай (айтса Эртоев хафа бўлади, айтмаса бар жойдан чатоғи чиқиши мумкин), боши қотиб ... турганда... Гулчеҳра можароси чиқса бўладими? (О.Ё.)*

2. Кириш гаплар ёки ремаркалар қавс билан берилади: *Укам (сен уни танийсан) бу йил мактабни битирди. А з и з К а м о л (хаёл оғушида). Ватанимизга қарши кўтарилган руҳий ва иқтисодий ҳужум шу кунларда чўққисига чиқди. (С.Аз.)*

3. Мисол ёки кўчирманинг манбаи: *...Эшик қарс этиб ёпилди.(О.Ё.)*

4. Кириш сўз ёки иборага оид тиниш белгилар қавснинг ичига олинади: *Тўсатдан унинг хаёлига акасининг бундан беш-олти ой олдин... ёзган хати (ўшандан бери ундан дом-дарак йўқ!) ... тушди. (О.Ё.)*

## 11-§. Қўштирноқ

1.Кўчирма гапларни ажратиб кўрсатиш учун: *"Эртага келаман", - деди.*

2. Кўчма маънодаги, шартли ном ёки тахаллус маъносидаги айрим сўз ва сўз бирикмалари ҳам қўштирноққа олиниши мумкин: *"Тоғ асали" сотадиган йигит ... довоннинг нариёғига ўтиб кетган. (С.Аҳм.)*

Э с л а т м а : Қўштирноққа олиниши керак бўлган сўзларда турловчи (келишик) қўшимчалар мавжуд бўлса, бу қўшимчалар қўштирноқдан кейин қўйилади: *Буларни кўрган*

*Азиз ўзи ҳайдаб келаётган «ГАЗ-69” юришини тезлатиб, йўлга чиқди-да, “Жигули” томонга бурилди. (Ҳ.Ғ.)*

**<u>Такрорлаш учун саволлар</u>:**

1. Ўзбек тилида жами нечта тиниш белгиси бор? 2. Нуєта єайси ўринларда єўйилади? 3. Сўроє белгисининг єўйилиш ўринлари іаєида гапиринг. 4. Ундов белгисининг єўйилиш ўринлари іаєида гапиринг. 5. Кўп нуєта

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


| | | |
|---|---|---|
| 1. | G’. Abdurahmonov H.Rustamov. | Ona tili. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 2003 yil. |
| 2. | G’. Abdurahmonov H.Rustamov. | Ona tili. 11-sinf uchun darslik. T., “O’qituvchi” nashriyoti, 2004-yil |
| 3. | Ғ.Абдураҳмонов, А. Сулаймонов, Х. Холиёров, Ж. Омонтурдиев | Ҳозирги ўзбек адабий тили “Ўқитувчи” Т.,1979, Синтаксис. |
| 4. | М. Асқарова, Й. Абдуллаев М.Омилхонова | Она тили. Умумтаълим мактабларининг 8-9 синфлари учун. Т., ”Ўқитувчи” 1995 |
| 5. | М. Асқарова, К.Қосимова | Она тили дарслиги. 5 синф учун Т., “Ўқитувчи”1995 йил. |
| 6. | Э. Бегматов, А. Бобоева, М. Асомиддинова Б.Умирқулов | Ўзбек нутқи маданияти очерклари. “Фан” нашриёти, Т., 1988 й. |
| 7. | М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов | Ўзбек тили. Т., “Ўқитувчи” 1978 йил |
| 8. | Ш. Раҳматуллаев | Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати Т.,1978 йил. |
| 9. | У.Турсунов . Ж. Мухторов | Ҳозирги ўзбек адабий тили Т.,”Ўқитувчи” 1979 йил |
| 10. | Ш. Шоабдураҳмонов . М.Асқарова, А. Хожиев И.Расулов, Х.Дониёров | Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т., “Ўқитувчи” 1980 йил |
| 11. | А.Шомақсудов, И.Расулов Р.Қўнғуров, Х.Рустамов | Ўзбек тили стилистикаси. Т., “Ўқитувчи” 1983 йил |
| 12. | А.Ғуломов, Й.Абдуллаев, З. Маъруфов, М.Омилхонова | Она тили. Ўзбек мактабларининг 6-7 синфлари учун дарслик. Т., “Ўқитувчи” 1993 й. |
| 13. | А.Ғуломов, .Н.Тихонов, Р.Қўнғуров | Ўзбек тили морфем луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1977 й. |
| 14. | Ўзбек тилининг имло луғати. | Т., “Фан” нашриёти 1976 йил |
| 15. | Ўзбек тили грамматикаси. | Т., “Фан” 1975 йил. 1-қисм |
| 16. | Ўзбек тили грамматикаси. | Т.,“Фан” 1976 йил 2-қисм |
| 17. | O`zbek tilining imlo lug’ati. | T., “O`qituvchi”, 1995- yil. |
| 18. | H.Ne’matov va boshqalar | Ona tili. 5-sinf uchun darslik. T., 2001 yil. |
| 19. | H.Ne’matov va boshqalar | Ona tili. 6-sinf uchun darslik. T., 2003-yil. |
| 20. | H.Ne’matov va boshqalar | Ona tili. 7-sinf uchun darslik. T., 2002 yil. |
| 21. | H. Ne’matov va boshqalar | Ona tili. 8-sinf uchun darslik. T., 2003 yil. |
| 22. | H.Ne’matov va boshqalar | Ona tili. 9-sinf uchun darslik. T., 2002 yil. |

| | | |
|---|---|---|
| 23. | N. Mahmudov va boshqalar | Ona tili //Umumiy o`rta ta'lim maktablari-ning 5-sinfi uchun darslik. // T., 2004 yil. |
| 24. | N.Mahmudov va boshqalar | Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. Тошкент, 2005-йил |
| 25. | N.Mahmudov va boshqalar | Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun. T., 2005-yil. |
| 26. | H.Ne'matov va boshqalar. | Ona tili. 8-sinf uchun darslik. Toshkent., 2006-yil. |
| 27. | N.Mahmudov va boshqalar | Ona tili. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun. T., 2006-yil. |
| 28. | | "Qalqon" jurnali. 2004 yil, 7-son. |

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**MUQIMIY NOMIDAGI QO’QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# ONA TILI FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOT ISHLANMALARI

**QO’QON-2007**

**AMALIY MASHG‘ULOTLARNING MAZMUNI**

**Ona tili fanidan amaliy mashg‘ulotlar**

## 9 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Suz birikmasi va uning turlari
**Mashg‘ulot maqsadi:** Talabalarning mavzu yuzasidan olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash kunikmalarini mustahkamlash.
**Mashg‘ulot metodi:** Savol – javob, mashq ishlash.
**Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni tarqatmalar.

### Mashg‘ulot rejasi:

1. Uy vazifasini tekshirish orkali mavzuni mustahkamlash.
2. Savol – javob asosida talabalar bilimini baholash.
3. Mashq ishlash.
4. Mustaqil ishlar asosida mavzuni mustahkamlash.
5. Test sinovii.
6. Mashg‘ulotni yakunlash.

### Mashg‘ulot mazmuni:

1. Talabalarning mavzu yuzasidan bajarib kelgan mashqlarini hamda badiiy asarlardan tayyorlangan kartochkalarini tahlil kilish. Bunda talabalarning ishlari saylanma asosida tekshiriladi. Tekshirilmay kolganlari dars oxirida yigishtirib olinadi.

2. Mavzu mazmuni moxiyatini tulik ochish Maqsadida kuyidagi savollar asosida talabalar bilan savol – javob utkaziladi.

1) Sintaksis grammatikaning 1 qismi ekanligini izohlang.
2) Sintaksis turlari.
3) Suz birikmasi ta’rifi.
4) Xokim va tobe suz munosabatlari.
5) Otliv a fe’lli birikma
6) Suz birikmasining tuzilishiga kura (sodda, murakkab) turlarini tushuntiring.
7) Suz birikmasi zanjirini tushuntirib bering.

3. Savol – javob asosida mavzu moxiyati, mazmuni ochilgach, uni yanada mustahkamlash Maqsadida mashqlar to‘plamidagi 1-2-3 mashqlar shart asosida bajariladi.

4. Mustaqil ishlar amalga oshiriladi.
1-topshirik: Suz birikmalari xosil qiling. Ulardan gaplar tuzing. Suz birikmalarini izohlang.

2-topshirik: Berilgan matndan suz birikmalarini aniklab otli, fe’lli birikmalarga ajrating.

### 5. Testlardan namunalar.

***1. Grekchadan tarjima kilganda "tuzish" degan ma’noni ifodalovchi atama...***
A) morfologiya B) fonetika S) grafika D) sintaksis
***2. Sintaksis nechta bulimga ajratiladi?***
A) 2 B) 3 S) 4 D) 5

*3. Suz birikmasidagi so‘zlar uzaro kanday boglanadi?*
A) teng B) teng va tobe S) tobe D) tugridan tugri
*4. Otli birikmani toping.*
A) baland bino, asalday shirin. B) kitobni ukish, ishni bajarish. S) men ukidim, sen eshit. D) oltin kalam, erta pishgan.
*5. Sodda suz birikmasini aniklang.*
A) akasi haqida suradi B) gayratli yosh bolalar. S) katta mevali daraxt. D) bugun kelgan ishchilar.

**Mashg‘ulotga yakun yasash:** Faol katnashgan talabalarni ragbatlantirish.
**Uyga vazifa:** Badiiy asarlardan kartochkalar tayyorlash, 4-mashqni bajarib kelish. Ilmiy adabiyotlarni tahlil kilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 10 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Suz birikmasi vauning turlari, suz birikmasining Suz, ibora, sintagma va gapdan farki.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalarning bilim darajasini aniklash, mustahkamlash, amalda ifoda etish malakalarini shakllantirish.
**Mashg‘ulot metodi:** Akliy xujum, mashq ishlash.
**Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni, tarqatma materiallar.
**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Savol – javob asosida mavzuni mustahkamlash.
3. Test sinovii o`tkazish .
4. Mashq ishlari yordamida mavzuni mustahkamlash.
5. Mustaqil, ijodiy ishlar.
6. Mashg‘ulotni yakunlash.

**Mashg‘ulot mazmuni:**

1. Uy vazifasining bajarilganligi aniklanadi. Saylanma asosida talabalarning bajargan vazifalari tahlil qilindi. Talabalar tomonidan tayyorlab kelingan kartochkalardagi suz birikmalaridagi xokis va tobe so‘zlar aniklanib ularning birikish usullari tahlil qilindi.

2. Kuyidagi kabi savollar asosida mavzuga doir talabalar bilimi aniklanadi:

1. Suz birikmasi va suzni izohlang.
2. Suz birikmasi va iboraning tafovuti.
3. Suz birikmasi va sintagmA)
4. Suz birikmasi va gap.
5. Suz birikmasi nimalardan tashkil topadi.
6. Suz birikmasi va suzning uxshash va farkli tomonlarini tushuntiring.
7. Gaplar tarkibidagi suz birikmalari sonini aniklashda asosan nimalarga e’tibor karatish lozim?
3. Test sinovi utkaziladi:

Test sinovlaridan namunalar.

***1. Suz birikmasini aniklang.***
A) Ko‘zoynak B) Sotib olmok S) Ukuvchi – a’lochi D) Tez yozish
***2. Ajralmas holatga ilib kolgan birlik bu –***
A) so‘z birikmasi B) ibora S) gap D) murakkab birikma
***3. Ikki suz uzaro birikkanda mazmun etakchi xisoblanmaydigan fonetik xodisa...***
A) ibora B) suz birikmasi S) sintagma D) metafora
***4. Xukmni bildirib, tugallangan oxang bilan aytiladigan birlik...***
A) Gap B) Sintagma S) Suz birikma D) Ibora
***5. Bitta ega bilan kesim ishtirok etgan gaplar tarkibidagi so‘z birikmalar soni mavjud mustaqil so‘zlar sonidagi kancha kam bo‘ladi?***
A) 1 B) 2 S) 3 D) 4

4. Testlar yigishtirib elinib mashqlar to‘plamidan mavzuga oid 1-2-5 mashqlar yozma va ogzaki ravishda bajarilib, mavzu mustahkamlanadi.

5. Talabalarda ijodiy tafakkurni ustirish, mavzuni mustahkamlash Maqsadida Mustaqil ishlar amalga oshiriladi:

1-topshirik: Matn yarating. Matndagi gaplarni sintagmalarga, so‘z birikmalariga ajrating. So‘z birikmalaridagi bosh so‘zlarning qaysi turkum orqali ifodalanganligini aniqlang.

2-topshiriq: Kelishikli birikma, ko‘makchili birikma, qo‘shimchasiz birikmalar yarating. So‘ngra ular asosida gaplar, gaplar asosida matn yarating.

Mashg‘ulotga yakun yasash: talabalarni ragbatlantirish, uyga vazifa berish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 11 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Boshqaruv movlashuv, bitiruv usullari asosida mashq, test.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalarning SB turlari yuzasidan nazariy bilimlarini mutaxkamlash, ularda amaliy kunikmalarni shakllantirish.
**Mashg‘ulot metodi:** Savol-javob, akliy xujum.
**Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni, tarqatma materiallar.
**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Uy vazifasini tekshirish orkali mavzuni mustahkamlash.
2. Savol – javob asosida talabalar bilimini baholash.
3. Mashq ishlash.
4. Test sinovini o`tkazish .
5. Mustaqil, ijodiy ishlar.
6. Mashg‘ulotni yakunlash.

**Mashg‘ulot mazmuni:**

**1.** Talabalar tomonidan badiiy asarlardan tayyorlab kelingan kartochkalar hamda mavzu asosida bajarilgan mashqlar tahlil qilinib mavzu mustahkamlanadi, talabalar baxolanadi.

**2.** Kuyidagi savollar asosida savol-javob qilinib, mavzu moxiyati mazmuni ochiladi, talabalar baxolanadi.

1) So‘z birikmalarida so‘zlarning uzaro boglanishini ta’riflang.
2) Boshqaruv deb nimaga aytiladi?
3) Kelishikli va kumakchili boshqaruvni tushuntiring.
4) Moslashuv deb nimaga aytiladi?
5) Belgisiz boshqaruv va moslashuvni izohlang.
6) Bitishuv deb nimaga aytiladi?
7) Kelishik va kumakchilar yordamida yuzaga keladigan bitishuv munosabatini tushuntiring.
8) So‘z birikmasi tahlili tartibani misol asosida tushuntiring.

**3.** Mavzuni mustahkamlash maqsadida mashqlar to‘plamidagi 4-5 mashqlar shart asosida dastlab ogzaki sungra yozma ravishda bajariladi.

**4.** Talabalar bilimini sinash ularning mavzuga oid nazariy bilim darajasini aniklash Maqsadida test sinovii amalga oshiriladi.

**Test – tarqatmadan namunalar:**

***1. So‘z birikmasi tarkibida bosh va ergash so‘zlarning birikish usullari nechta?***
A) 3 B)4 S) 2 D) 5
***2. Boshqaruv yuli bilan birikkan so‘z birikmasini toping.***
A) birga o‘qimoq B) qishloqdan kelish S) katta ko‘cha D) maktab hovlisi
***3. Moslashuv munosabatli so‘z birikmasini toping.***
A) maktab bogi B) men ketdim S) oynai jaxon D) yolg‘on gapirish
***4. Bitishuvli so‘z birikmasini aniklang.***
A) zavk bilan kuylash B) paxta uchun kurash S) olma terish
D) maktab xovlisi
***5. So‘z birikmasida so‘roq qaysi so‘z orqali beriladi?***
A) bosh so‘z B) ergash so‘z S) farki yo‘k D) so‘z birikmasida so‘roq berilmaydi

**5.** Mavzuni mustahkamlash talabalarda ijodiy ishlash faoliyatini shakllantirish Maqsadida Mustaqil ishlar amalga oshiriladi:

1-topshirik: Berilgan matndan SBlarini boshqaruv, moslashuv, bitishuv munosabatiga kura ajratib yozing. Ularning birikish ususlarini izohlang.

2-topshirik: Mustaqil ravishda boshqaruv, moslashuv, bitishuv munosabatli suz birikmalari tuzing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, matn yarating.

3-topshirik: Belgisiz boshqaruv, moslashuv munosabatli va aksincha kelishish, kumakchili bitishuv munosabatli SB tuzib, ularni izohlang.

Mashg‘ulotni yakunlash, talabalarga vazifa berish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.

4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 12 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Gapning xususiyatlari, darak va so‘roq gaplar buyicha amaliy mashqlar.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalarning mavzu yuzasidan bilimlarini baholash va mustahkamlash, ularda mavzuni ifodalash kunikmalarini shakllantirish.
**Mashg‘ulot metodi:** Savol-javob, akliy xujum, mashq ishlash. **Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni, testlar, kartochkalar.
**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Savol – javob asosida mavzuni mustahkamlash.
3. Mashqlar yordamida talabalarda amaliy kunikmani rivojlantirish.
4. Test sinovii o`tkazish .
5. Mustaqil, ijodiy ishlar bajarish.
6. Mashg‘ulotni yakunlash.

### Mashg‘ulot mazmuni:

**1.** Uyga berilgan barcha topshiriqlarni saylanma tarikasida tekshirib, tahlil kilish (mashqlar, kartochkalar, krossvordlar, testlar).

**2.** Mavzuning mazmuni – moxiyatini ochish Maqsadida kuyidagi savollar asosida ogzaki surov o`tkazish .

1) Gapning ta’rifini keltiring.
2) Gapning xususiyatlarini sanang.
3) Gapning kurilish materiali nima?
4) Gaplarning ifoda Maqsadga kura turlarini tushuntirib bering.
5) Darak gaplarni misollar asosida tushuntiring.
6) So‘roq gaplarni misollar asosida gapiring.
7) So‘roq gaplarning turlarini xosil kiluvchi vositalar haqida suzlang.
8) Litorik so‘roq gaplarni misolar asosida tushuntiring.
9) Oxang yordamida ham so‘roq gap yasalish xususiyatlarini tushuntiring.
10) Darak va so‘roq gaplarda tinish belgilarining ishlatilishini tushuntirib bering.

**3.** Sungra mavzuni mustahkamlash talabalar bilim darajasini mustahkamlash Maqsadida mashqlar to‘plamidan 6-7-8 mashqlar sharti asosida ogzaki va yozma ravishda bajarilib tahlil qilinadi.

**4.** Mavzuni mustahkamlash, talabalar bilimini tekshirish Maqsadida test sinovii utkaziladi:

### Test-tarqatmadan namuna:

1. Gapning asosiy belgisi noto‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.
A) Muomalaning eng kichik birligi. B) Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi. S) Tugallangan ohang bilan aytiladi.
D) Fakat mustaqil so‘zlardan tuziladi.

***2. Ko‘proq dialogda qo‘llanadigan gaplar qaysi qatorda berilgan?***
A) darak B) so‘roq S) buyruq D) his-hayajon

***3. Ritorik so‘roq gapni aniklang.***

A) Vatanni nimaga sevamiz? B) Men kimman? S) Siz musofirmisiz? D) Navoiyni kim bilmaydi?
***4.*** *Ertaga maktabga borishni istayman.* ***Ifoda maqsadiga kura kanday gap?***
A) darak B) so‘roq S) buyruq D) undov
***5.*** *Soat ikki bo‘ldi. Ikki bo‘ldi?* ***Ikkinchi gap qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?***
A) So‘roq gap, oxang yordamida hosil bo‘lgan. B) So‘roq gap, yuklama yordamida xosil bulgan. S) So‘roq gap, olmosh yordamida hosil bulgan. D) So‘roq gap, son yordamida hosil bo‘lgan.

Talabalar faolligini oshirish, ularda ijodiy tafakkurni ustirish Maqsadida Mustaqil ishlar bajariladi:

1-topshirik: 1. Badiiy asar o‘qish (bilan) hordiq chiqaramiz.

2-topshirik: O‘z vaqti(da) bajarildi.

3-topshirik: SHahnoza shahar(ning) qurilishi(ni), u(ning) havosi(ni) maqtadi.

YUkoridagi so‘zlarning bir–biri bilan qanday boglanganini aniklang.

Mashg‘ulotga yakun yasash, rag‘batlantirish, uyga topshiriq berish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 13 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Buyruk, xis-xayajonli va xis-xayajonsiz gaplar yuzasidan mashqlar.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalarning mavzu yuzasidan mavjud bilimlarini tekshirish, mustahkamlash, ulardan amalda foydalanish kunikmasini shakllantirish.
**Mashg‘ulot metodi:** Yo‘naltiruvchi ta’lim metodi.
**Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni, testlar.

**Mashg‘ulot mazmuni:**

**1.** Talabalarga berilgan vazifalar; mashqlar, testlar, kartochkalar, krossvordlar saylanma asosida butun guruxning faol ishtiroki ostida tahlil qilinadi, talabalarga tegishli ballar kuyiladi.

**2.** Uy vazifasi asosida mavzuning ayrim jihatlari ochilgach, uning mazmunini tularok anglash Maqsadida savol-javob utkaziladi:

**Savollardan namunalar:**

1) Gapning o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.
2) Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini misollar asosida tushuntirib bering.
3) Buyruk gapning ta’rifini ayting.
4) Buyruk gaplarda kanday tarzdagi gaplar (yalinish, iltimos, maslaxat, gumon, xayajon, tashvish, gazab, yalinish) bulishi mumkin.
5) Istak gaplar haqida ma’lumot bering.
6) Xis – xayajon gaplarni tushuntiring.

7) Xis-xayajon gaplarda tinish belgilarining ishlatilishini izohlang, misollar keltiring.

**3.** Savol-javob asosida mavzu mustahkamlangach, mashqlar yordamida mustahkamlashga utiladi. Mashqlar to‘plamidagi 9-10 mashqlar mashq sharti asosida ogzaki va yozma ravishda bajariladi. Buyruk va xis-xayajon gaplarning turlari farklanadi.

**4.** Mavzuni mustahkamlash Maqsadida test sinovii utkaziladi:

**Test-tarqatmadan namuna:**

***1.*** *Avval o‘yla, keyin so‘yla.* ***Ushbu buyruq gap qanday ma'no anglatadi?***
A) hayajon B) kurkuv S) maslaxat D) gumon
***2. Orzuni ifodalagan buyruk gapni aniklang.***
A) Ashuladan yana bulsin. B) Naxotki, bu siz bulsangiz.
S) Sovqotib qolma, issiqroq yot. D) Kani hamma odamlar sizday bulsa!
***3. Gaplar ohang, his-tuyg‘uni ifodalashiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?***
A) 2 B) 3 S) 4 D) 5
***4. Ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi gap his-hayajon gap bo‘lishi mumkin?***
A) darak B) so‘roq S) buyruq D) A, B, S.

**5.** Talabalar bilim doirasini sinash hamda ularda ijodiy qobiliyatni shakllantirish maqsadida mustaqil ish amalga oshiriladi:

1-topshiriq: Darak, buyruq, so‘roq gaplar tuzing, tuzgan gaplaringiz asosida matn yarating. Sarlavha toping. Tinish belgilarining ishlatishi o‘rinlarini izohlang.

2-topshiriq: Tuzgan matningizdan otli va fe'lli birikmalarni ajratib, ulardagi bosh va ergash so‘zlarni izohlang, so‘z birikmalarining birikish usulini ayting.

**Uyga vazifa:** Badiiy asarlardan buyruq va his-hayajon gaplar asosida kartochkalar tayyorlang.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 14 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Gap bulaklari, ega va kesimning ifodalanish yuzasidan mashq va test topshiriqlari.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalarning mavjud bilimlarini tekshirish, ularda mavjud bilimlarni ifodalash malakalarini shakllantirish, mustahkamlash.
**Mashg‘ulot metodi:** Akliy xujum, savol-javob, mashq ishlash. **Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar.
**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Savol – javob asosida talabalar bilimini baholash, mavzuni mustahkamlash.
3. Mashqlar bajarish.
4. Mustaqil ishlar.

5. Test sinovii o`tkazish .
6. Mashg‘ulotni yakunlash.

**Mashg‘ulot mazmuni:**

**1.** Uyga berilgan mashqlar hamda testlar, krossvordlar, tarqatma materilalar tekshirilib talabalar bilimi baxolanadi, mavzu mustahkamlanadi.

**2.** Quyidagi sovallar asosida mavzu yuzasidan savol-javob utkaziladi:

1) Gap bulaklari ta’rifi.
2) Gap bulaklari turlarini aniklash vositasini tushuntiring.
3) Bosh va ikkinchi darajali bulaklarni tushuntirib bering.
4) Oddiy va murakkab bulaklarni misollar asosida tushuntirib bering.
5) Eganing ta’rifi va so‘roqlari?
6) Eganing ifodalanishining 6 xil tarkibini (ot, olmosh, otlashgan suz, xarakat nomi, ibora, sintaktik birlik) misolar asosida tushuntirib bering.
7) CHikish kelishigidagi so‘zlar bilan eganing ifodalanishini tushuntiring.

**3.** Mavzuni mustahkamlash maqsadida mashqlar to‘plamidagi 1-2 mashqlar shart asosida bajariladi. Unga asosan gapning bosh bulaklari topib izohlanadi hamda eganing ifodalanishi tushuntiriladi.

**4.** Talabalar faolligini hamda individual xususiyatlarini ochish maqsadida mustaqil ijodiy ish utkaziladi.

1-topshirik: Otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan ega ishtirokida bir nechta gap tuzing. Tuzgan gaplaringiz asosida matn yarating.

2-topshirik: Mashqlar to‘plamidagi matnlardan turli turkumga oid so‘zlar bilan ifodalangan egalarni aniklab, izohlab bering.

**5.** Mavzuni mustahkamlash maqsadida test sinovi utkaziladi.

**Test tarqatmadan namuna:**

***1. Olmosh bilan ifodalangan ega ishtirok etgan gapni toping.***
A) Ular mashg‘ulotda faol qatnashdi. B) O‘qish tugadi. S) Bizdan onasi suradi. D) A,S.
***2. Modal so‘z bilan ifodalangan egani toping.***
A) Ko‘plar qatnashdi. B) Biz yig‘ildik. S) Bor boricha, yo‘q xolicha. D) Yo‘qni yo‘ndirdim.
***3. Gap bulaklari nechta?***
A) 5 B) 4 S) 3 D) 6
4. Egasi taqlid so‘z bilan ifodalangan gapni toping?
A) Uzokdan gumbur-gumburlarni eshitdik. B) To‘plarning gumburi eshitildi. S) Ikkovimiz qorni g‘archillatib bosib ketdik.
D) Milt etib chiroq yondi.

**Mavzuni yakunlash:** Rag‘batlantiriladi, uyga vazifa beriladi, mavzu umumlashtiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent – 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.

3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 15 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Kesim, uning turlari, boglama yuzasidan mashq, test, savol-javob.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalarning bilim darajasini aniklash, ularni amalda ifodalay olish malakasini shakllantirish.
**Mashg‘ulot metodi:** Savol-javob, akliy xujum, mashq ishlash.
**Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni, tarqatma materiallar.
**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Savol – javob o`tkazish .
3. Mashqlar, Mustaqil-ijodiy ishlar tashkil kilish.
4. Test sinovii.
5. Mashg‘ulotni yakunlash.

### Mashg‘ulot mazmuni:

**1.** Uy vazifasi kilib berilgan badiiy asarlardan tayyorlangan kartochkalar, mavzu asosida berilgan mashqlarni tekshirib tahlil kilish, talabalar bilimini baholash.

**2.** Sungra kuyidagi savollar asosida mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish asosida talabalar bilimini baholash.

1) Gap bulaklarining turlari haqida ma’lumot.
2) Kesim ta’rifi, so‘roqlari?
3) Kesimning turlari?
4) Kesimning ifodalanishi.
5) Ot va fe’l kesimlar.
6) Soda va murakkab kesimlar.
7) Boglama haqida ma’lumot.
8) Kesimlik so‘zlar haqida gapiring.

**3.** Sungra mavzuni mustahkamlash Maqsadida mashqlar to‘plamida berilgan 3-4-5 mashqlar sharti asosida bajariladi, ya’ni kesimning ifodalanishi, turlari, boglama mavzuni chuqurroq tahlil qilinadi.

### Mustaqil ish:

1. Dastlab soda sungra murakkab fe’l kesimli gaplar tuzing. SHu gaplar asosida matn yarating. Sarlavxa toping.
2. Sabr tagi – sarik oltin. Muzaffar va’dasiga vafo kildi.
3. Dildora eshikni ochib kirdi.
4. Poyonsiz dalalar ok libos kiydi.

Ushbu gaplar kesimini aniklab, tO‘rini toping.

**4. Test sinovi o‘tkaziladi.**
***1. Kesimlar qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga qarab necha xil bo‘ladi?***
A) 2 B) 3 S) 1 D) 4
***2. Ot kesim ishtirok etgan gapni toping.***

A) Bu sovg‘a ukamga. B) Bu kitob o‘qilgan. S) Men keldim.
D) Bolta tushguncha kunda dam oladi.

***3. Modal so‘z bilan ifodalangan kesim ishtirok etgan gapni aniqlang.***

A) SHaxar go‘zal. B) Uyat o‘limdan qattiq. S) Bu narsa o‘zimniki.
D) Uning ezgu niyatlari bor.

***4. Murakkab fe’l kesimli gapni toping.***

A) Odamlar tarqala boshladi. B) Bu kitob o‘z-o‘zimniki. S) Bu gullar erta bahorda ochiladi. D) A, B.

***5. Bog‘lama ishtirok etgan gapni toping.***

A) Mehnatning noni shirindir. B) U kishi mening ustozim hisoblanadi. S) A, B. D) To‘g‘ri javob yo‘q.

**Mashg‘ulotni yakunlash:** Fikrlar umumlashtiriladi. Uyga vazifa beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroyev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

## 16 – AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Kesimning ega bilan shaxs va sonda mosligi. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi.
**Mashg‘ulot Maqsadi:** Talabalar bilimini baholash, mavzu yuzasidan amaliy kunikmalar xosil kilish.
**Mashg‘ulot metodi:** Savol-javob, akliy xujum.
**Mashg‘ulot jihozi:** Mashqlar to‘plami, ma’ruzalar matni, tarqatma materiallar.
**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Uy vazifasini tekshirish orkali mavzuni mustahkamlash.
2. Savol – javob yordamida talabalar bilimini baholash.
3. Mashq va Mustaqil ish.
4. Test sinovini o`tkazish .
5. Mashg‘ulotni yakunlash.

### Mashg‘ulot mazmuni:

**1.** Uyga berilgan mashqlar va badiiy asarlardan tayyorlangan kartochkalar saylanma tarikasida ukilib, kesimlar tahlil qilinadi. Ragbatlantiriladi.

**2.** Uy vazifasi tekshirilib mavzu moxiyati ochilgach, kuyidagi savollar asosida mustahkamlanadi:

1) Ega bilan kesimning shaxsda mosligi. Xayron kolasan kishi.
2) Ularning sonda mosligini tushuntiring.
3) Ega bilan kesimning sonda moslashmaslik holatini tushuntiring.
4) Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilish xollarini misolar asosida izohlang.
5) Ular orasiga tire kuyilmaslik xollarini tushuntiring.

Savol-javobdan sung mavzuni mustahkamlash Maqsadida mashqlar to‘plamidagi 6-7-8 mashqlar shart asosida bajarilib ega va kesimning shaxs va sonda mosligi, tirening ishlatilish sabablari aniklanadi.

**Mustaqil ish:**

1-topshirik: Ega bilan kesim mos kelmagan gaplar tuzib, izohlang.

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaptarkibidagi kesimlarning shakllanishiga ko‘ra turlari.
4. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Mashg‘ulot maqsadi:**

1. Talabalarning bog‘lovchisiz qo‘shma gap haqida olgan bilimlarini tekshirish.
2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni boshqa qo‘shma gaplardan farqlash.
3. Talabalar faolligini nazorat qilib borish.

**Mashg‘ulot jihozi:** ma’ruza matni, mashqlar to‘plami, ko‘rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, test savollar va boshqalar.

**Mashg‘ulot mazmuni**

Qo‘shma gap qismlarining o‘zaro bog‘lovchi vositalarsiz birikuvidvn tuzilgan turiga bog‘lovchisiz qo‘shma gap deyiladi. Mas, YAxshi o‘g‘il pand edirar, yomon o‘g‘il pand edirar. (Maqol)

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlarining o‘zaro mazmun munosabatiga ko‘ra quyidagi turlar mavjud:
1) bir paytda yuz beradigan voqea-hodisani ifodalaydi: Qo‘ng‘iroq chalindi, dars boshlandi.
2) ketma-ket yuz beradigan voqea-hodisani bildiradi: Atlas ko‘ylak kiygan qizlar savatlarda meva teryaptilpr, yigitlar tashiyaptilar. (S.Nurov)
3) bir-biriga chog‘ishtirilgan, zid qo‘yilgan voqea-hodisani ifodalaydi: *Havo bulut bo‘ldi, yomg‘ir yog‘madi.*

4) payt mazmuni ifodalanadi: *Qish keldi-sovuq kunlar boshlandi.*
5) shart mazmuni ifodalanadi: *Qo'shning tinch-sen tinch.*
6) izoh mazmuni ifodalanadi: *Faqat shu esida: ertasiga Gulsarani olib ketishdi. (CH.Aytmatov)*
7) to'siqsizlik mazmuni ifodalanadi: *O'zim har joydaman, ko'nglim sendadur.(Qo'shiqdan)*
8) sabab mazmuni ifodalanadi: *Onaxonning yuragi shuv etib ketdi, to'pponchani o'z ko'zi bilan birinchi ko'rishi edi. (A)M)*
9) natija mazmuni ifodalanadi: *U shunchalik berilib termildi, soyning o'rtasida suv ichayotgan otining pishillashi ham sezilmadi. (O.)*
10) o'xshatish mazmuni ifodalanadi: *Qor yog'di - don yog'di. (Maqol)*

**Savol- topshiriqlar:**

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap nima?
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap bog'langan va ergashgan qo'shma gaplardan qanday farq qiladi?
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmun munosabatiga ko'ra qanday turlari bor?
4. Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap nima?
5. Turli tipdagi qismlardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap nima?
6. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi kesimlarning shakllanishiga ko'ra turlarini ayting?
7. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasiga qo'yiladigan tinish belgilar qaysilar, ular qachon qo'yiladi?

### Mashqlar ishlash

**1-mashq.** O'qing. Bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplarni aniqlang.
Namuna: **Agar** u jim yur**ganda**, men ham jim yurardim. (Ergashgan qo'shma gap)
6-mashq.. Quyidagi bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan qo'shma gaplarga sinonim bo'ladigan va bog'lovchili qo'shma gaplarga sinonim bo'lmaydigan guruhlarga ajrating va har bir turiga bittadan misol ko'chiring.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. U.Tursunov, N. Muxtorov, SH.Rahmatullayev Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1992.
2. SH.SHoabdurahmonov, M. Asqarova, A)Hojiev Hozirga o'zbek adabiy tili. 1-qism. 2-qism. T., O'qituvchi, 1980.
3. A)G'ulomov, M. AsqarovA) Hozirga o'zbek adabiy tili. SintaksiS) T., O'qituvchi, 1987.
4. M. Hamroyev O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. T., 2006.
5. M. Hamroyev O'zbek tilidan mashqlar to'plamii. T., 2003.

## 5-AMALIY MASHG'ULOT

**Mashg'ulot mavzusi:** Murakkab qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar.

**Mashg'ulot rejasi :**

1. Murakkab qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot.
2. Murakkab qo'shma gap turlari.

**Mashg'ulot maqsadi:**

1. Murakkab qo'shma gaplarga tegishli ma'lumotni tekshirish.
2. Turli Amaliy ishlar bilan mavzuni mustahkamlash.
3. Talabalarning ishini tekshirib baholab borish.

**Mashg'ulot jihozi:** ma'ruza matni, mashqlar to'plami, ko'rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, test savollar va boshqalar.

**Mashg'ulot mazmuni**

Qo'shm gap lar komponentlarning soniga ko'ra ikki xil bo'ladi:
1.Ikki komponentli qo'shma gaplar. (bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar bahsiga qarang)
2.Ko'p komponentli(murakkab) qo'shma gaplar.
Ko'p komponentli(murakkab) qo'shma gaplar uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va grammatik jihatidan birikishidan hosil bo'ladi. Mas, Askarlar bedapoyaga to'planib, o'zlari bazm qura boshlaganlarida , qishloq aholisi birin-ketin tomoshaga kelishdi. Ushbu gap uchta komponentdan

iborat, birinchi komponent ikkinchisiga ravishdoshning -ib affiksi, ikkinchi komponent uchinchisiga fe'lning sifatdosh shakli –gan shakli vositasida tobelanish munosabatida bog'langan.

Ko'p komponentli qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:
1.Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan ko'p komponentli qo'shma gaplar.
2.Ergashish yo'li bilan tuzilgan ko'p komponentli qo'shma gaplar.
3.Bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan ko'p komponentli qo'shma gaplar.
4.Aralash tipda tuzilgan ko'p komponentli qo'shma gaplar.

**Savol- topshiriqlar:**
1. Murakkab qo'shma gap nima?
2. Murakkab qo'shma gaplarning qanday turlarini bilasiz7
3. Murakkab qo'shma gap ikki komponentli qo'shma gapdan qanday farq qiladi?
4. Murakkab qo'shma gap turlariga ajratishda nima asos qilib olinadi?

**Mashqlar ishlash**

**7-mashq.** O'qing. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarni aniqlang.
Namuna: Asfalьt tuga**b**, traktor g'ildiraklari o'yib yuborgan yo'l boshlan**gach**, mashina bir-ikki silkinib to'xtadi.

8-mashq.. O'qing quyidagi bir necha ergash gapli qo'shma gaplarni to'g'ridan-to'g'ri ergashish yo'li bilan va ketma-ket ergashish yo'li bilan tuzilgan guruhlarga ajratinb, ikkitadan gap yozing.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. U.Tursunov, N. Muxtorov, SH.Rahmatullayev Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1992.
2. SH.SHoabdurahmonov, M. Asqarova, A)Hojiev Hozirga o'zbek adabiy tili. 1-qism. 2-qism. T., O'qituvchi, 1980.
3. A)G'ulomov, M. AsqarovA) Hozirga o'zbek adabiy tili. SintaksiS) T., O'qituvchi, 1987.
4. M. Hamroyev O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. T., 2006.
5. M. Hamroyev O'zbek tilidan mashqlar to'plamii. T., 2003.

## 6-AMALIY MASHG'ULOT

**Mashg'ulot mavzusi:** O'zga gap, uning turlari yuzasidan mashqlar.

**Mashg'ulot rejasi :**
1. O'zga gap haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zga gapning grammatik xususiyatlariga ko'ra turlari:
a) ko'chirma gap;
b) o'zlashtirma gap.

**Mashg'ulot maqsadi:**
1. O'zga gap haqidagi bilimlarni mustahkamlash.
2. Ko'chirma gapga oid ma'lumotlarni tahlil qilish.
3. Ko'chirma gapni o'zlashtima gapga aylantirish yo'li bo'yicha bilimlarni kuchaytirish.

**Mashg'ulot jihozi:** ma'ruza matni, mashqlar to'plami, ko'rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, test savollar va boshqalar.

**Mashg'ulot mazmuni**

O'zga gap grammatik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:
1.Ko'chirma gap.
2.O'zlashtirma gap

Ko'chirma gap muallif gapi Bilan bog'lovchi vazifasidagi deb, Deya, degan so'zlari vositasida , shuningdek, bog'lovchisiz-intonatsiya orqali aloqaga kirishadi. Mas, Uning xayolidan Arastuning gapi o'tdi: "Bizning kulmagan kunimiz-yashamagan kunimizdir..."(Mirmuxsin)

Ushbu misolda muallif gapi (Uning xayolidan Arastuning gapi o'tdi) ko'chirma gap (Bizning kulmagan kunimiz-yashamagan kunimizdir) bilan ohang orqali grammatik aloqaga kirishgan.

O‘zga gapning ko‘chirma gap turi muallif gapi Bilan birga qo‘shma gapning alohida turi hisoblanadi, ammo uning tarkibidagi qismlar (mullif gapi va ko‘chirma gap) joylashish tartibi jihatidan erkin bo‘ladi. SHuning uchun ham ko‘chirma gap nutqda muallif gapiga nisbatan xilma xil qo‘llanishi mumkin.

Muaalif gapi , odatda, soda (ba’zan qo‘shma) gap tarzida qo‘llansa, ko‘chirma gap sodda, qo‘shma gap tarzida ham, shuningdek, alohida-alohida bir necha gap dan tashkil topgan nutqiy parcha sifatida ham qo‘llana oladi.Mas, Ming xayol Bilan borar ekan, ustozlaridan biri takror-takror aytadigan shu gapni hozir eslab qoldi: “YOmon yozuvchi bo‘lishi mumkin, yomon rasm bo‘lishi mumkin, ammo yomon shifokor bo‘lish aslo mumkin emas!” (To‘lqin)

**Savol- topshiriqlar:**

1. O‘zga gap nima?
2. O‘zga gapning qanday turlari mavjud?
3. Muallif gapi nima-yu, ko‘chirma gap nima?
4. O‘zlashtirma gap nima va ko‘chirma gapdan nimasi bilan farq qiladi?
5. Ko‘chirma gap va muallif gapi o‘zaro qanday bog‘lanadi?
6. Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirish yo‘llrini ayting.

**Mashqlar ishlash**

**1-mashq.** O‘qing. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni aniqlang.
Namuna: *Ko‘chirma gap:* Bektemir ularga qaramasdan sekin dedi: -Qopqonga tushibmiz, bu qalay?
*O‘zlashtirma gap:* Navoiy bu o‘lkaga hushyor odamlardan yuborib, ular orqali butun vaziyatdan ogoh bo‘lib turish mumkinligini bayon qildi.
2-mashq. O‘qing. Ko‘chirma gaplarning tinish belgilarini qo‘ygan holda beshta gap ko‘chiring.
Namuna: - Aniqroq ayt, nima gap o‘zi? – dedi Aziz nihoyat.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. U.Tursunov, N. Muxtorov, SH.Rahmatullayev Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1992.
2. SH.SHoabdurahmonov, M. Asqarova, A)Hojiev Hozirga o‘zbek adabiy tili. 1-qism. 2-qism. T., O‘qituvchi, 1980.
3. A)G‘ulomov, M. AsqarovA) Hozirga o‘zbek adabiy tili. SintaksiS) T., O‘qituvchi, 1987.
4. M. Hamroyev O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. T., 2006.
5. M. Hamroyev O‘zbek tilidan mashqlar to‘plamii. T., 2003.

## 7-AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Punktuatsiya yuzasidan mashqlar.

**Mashg‘ulot rejasi :**

1. Qo‘shma gap haqida umumiy ma’lumot.
2. Qo‘shma gap turlari
3. Bog‘langan qo‘shma gap, uning turlar.
4. Bog‘langan qo‘shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Mashg‘ulot maqsadi:**

1. Punktuatsiya haqida egallagan bilimlarni umumlashtirish.
2. Tinish belgilarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish.
3. Olgan bilimlarni turli usullar bilan tekshirish.

**Mashg‘ulot jihozi:** ma’ruza matni, mashqlar to‘plami, ko‘rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, test savollar va boshqalar.

**Mashg‘ulot mazmuni**

Nuqta quyidagi o‘rinlarga qo‘yiladi:

1. Tinch ohang Bilan aytiladigan darak, buyruq va undov gvplardan keyin: Oltin kuz kirib keldi.
2. Birinchi qismida nuqta, ko‘p nuqta, undov yoki so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidan so‘ng: “men hozir jo‘nayman, - dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo‘lga chiqing”
3. Qisqartirilgan ism, familiyalarning birinchi harfi va qismlidan keyin: M. IS) (Mirzakalon Ismoiliy)

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo‘llangan raqam va harflardan keyin : 24.08.2007 kabi.

**Savol- topshiriqlar:**

1. O‘zbek tilida jami nechta tinish belgisi bor?
2. Nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?
3. so‘roq belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
4. Tinish belgilarining birikkan holda ishlatilishi haqida gapiring. Nuqtali vergulning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
5. Qavs qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?
6. Qaysi tinish belgisi nisbatan ko‘p qo‘llaniladi?
7.Qaysi o‘rinlarda vergul doimo ikki marta qo‘llanadi?
8. Raqamlar bilan birga ishlatiladigan tinish belgilarini sanang.
9. Inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘rinlarda ishlatiladigan tinish belgilarini sanang.
10. Qaysi o‘rinlarda tire doimo ikki marta qo‘llanadi?

**Mashqlar ishlash**

1-mashq. O‘qing. Kerakli o‘rinlarga so‘roq va undov belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.
Namuna: *-Voy, bu Nodiraginam-ku? – titroq ovoz eshitildi ichkaridan.*

3-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibida qo‘llangan vergul va nuqtali vergullarning qo‘yilish sababini izohlang.
Namuna: *Faqat klub, oshxonagina emas, baraklarga ham har xil chaqiriqlar , shiorlar yopishtirib qo‘yilidi.* (uyushgan bo‘laklar (hol, ega) orasiga vergul qo‘yilgan)

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. U.Tursunov, N. Muxtorov, SH.Rahmatullayev Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1992.
2. SH.SHoabdurahmonov, M. Asqarova, A)Hojiev Hozirga o‘zbek adabiy tili. 1-qism. 2-qism. T., O‘qituvchi, 1980.
3. A)G‘ulomov, M. AsqarovA) Hozirga o‘zbek adabiy tili. SintaksiS) T., O‘qituvchi, 1987.
4. M. Hamroyev O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. T., 2006.
5. M. Hamroyev O‘zbek tilidan mashqlar to‘plamii. T., 2003.

## 8-AMALIY MASHG‘ULOT

**Mashg‘ulot mavzusi:** Qo‘shma gap, o‘zga gap, punktuatsiya yuzasidan mashqlar.

**Mashg‘ulot rejasi :**

1. Qo‘shma gap haqida umumiy ma’lumot.
2. Qo‘shma gap turlari
3. Bog‘langan qo‘shma gap, uning turlar.
4. Bog‘langan qo‘shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Mashg‘ulot maqsadi:**

1. O‘tilganlarni takrorlash.
2. Talabalarni faollashtirish.
3. Egallangan bilimlarni turli yo‘llar bilan sinash.

**Mashg‘ulot jihozi:** ma’ruza matni, mashqlar to‘plami, ko‘rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, test savollar va boshqalar.

**Savol- topshiriqlar:**

1. Monologik nutq ichida qo‘llangan ko‘chirma gapda qanday tinish belgilari ishlatiladi?
2. Ko‘chirma gap muallif gapidan qaysi tinish belgilari orqali ajratiladi?
3. Qiyoslash munosabatidagi bog‘langan qo‘shma gapni qanday yordamchilar shakllantiradi?
4. yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasida qanday munosabatlar o‘rnatiladi?
5. Bog‘lovchilarning qaysi turlari ergash gapni bosh gapga biriktiradi?
6. F’lning qaysi vazifadosh shakllarini yasovchilar ergashgan qo‘shma gapni shakllantiradi?

7. Ko‘makchilar yoki yuklamalar vositasida ergash gap bosh gapga bog‘lanadi? Fe’lning qanday tuslanishli shakllari ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi?
8. Fe’lga xos bo‘lmagan qanday affiks ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vosita sifatida qatnashadi?
9. Ega va to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarning qanday xususiyatlarini bilasiz?
10. Kesim ergash gapli qo‘shma gap qanday qo‘shma gap?

**Mashqlar ishlash**

**3-mashq. (93-bet)** O‘qing. Quyidagi ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib, to‘rtta gap yozing.
Namuna: - *Men ketyapman, o‘g‘lim, - dedi --- Otasi o‘g‘liga o‘zining ketayotganini aytdi.*
**4-mashq.(93-bet)** O‘qing. Quyidagi o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib beshta gap yozing.
Namuna: *Nashriyot xizmatchisidan so‘radi: - Bu yaqin orada qaerda hammom bor?*
**9-mashq**.(92-bet) O‘qing. Aralash turdagi qo‘shma gaplarni topib, to‘rtta gap ko‘chiring, tarkibida nechta va qanday gaplar borligini izohlang.
**4-mashq. (90-bet)** O‘qing. Ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarni aniqlab, to‘rtta gap ko‘chiring, bog‘lovchi vositalarni doiraga oling.
**5-mashq. (90-bet)** O‘qing. Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarni aniqlab, to‘rtta gap ko‘chiring, bog‘lovchi vositalarni doiraga oling.
**9-mashq.** (88-bet) O‘qing. Natija va miqdor-daraja ergash gapli qo‘shma gaplarni topib, ikkitadan gap ko‘chiring, ergash gaplarning tagiga to‘lqinli, bosh gapning tagiga to‘g‘ri chiziq chizing, bog‘lovchi vositani doiraga oling.
**Namuna:** *Saidiyning e’tibori qancha ort**sa**, daromadi ham shuncha orta berdi.*

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. U.Tursunov, J. Muxtorov, Sh.Rahmatullayev Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1992.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A.Hojiev Hozirga o‘zbek adabiy tili. 1-qism. 2-qism. T., O‘qituvchi, 1980.
3. A)G‘ulomov, M. AsqarovA) Hozirga o‘zbek adabiy tili. SintaksiS) T., O‘qituvchi, 1987.
4. M. Hamroyev O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. T., 2006.
5. M. Hamroyev O‘zbek tilidan mashqlar to‘plamii. T., 2003.

## 6-mavzu: So‘z birikmasi.

**Dars maqsadi:**
***Ta’limiy:*** talabalarning so‘z birikmasi bo‘yicha olgan bilimlarini yana ham boyitish.
***Tarbiyaviy:*** ***“mustaqil O‘zbekiston”, “orzu qilingan istiqlol”, “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi”*** toifasidagi so‘z birikmalari va gaplar vositasida talabalarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik kabi tuyg‘ularni tarbiyalash.
***Rivojlantiruvchi:*** talabalarning badiiy va ilmiy tafakkurini rivojlantirish.
**Dars tipi:** ko`nikma va malakalarni shakllantirish.
**Dars shakli:** laboratoriya mashg`uloti.
**Dars metodi:** og`zaki savol-javob, amaliy ish, ko‘rgazmali, grammatik tahlil.
**Fanlararo bog`lanish:** adabiyot, pedagogika, psixologiya, uslubiyat.
**Jihozlanishi:** badiiy asarlar, so‘z birikmasiga doir jadvallar, kartochkalar.

**Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. O`zbek tili grammatikasi. -T.:"Fan", 1976, 2-qism.
2. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis,
- T,: 2006.
3. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova,
M. Maqsudova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
4. M.A.Hamroyev O'zbek tilidan ma'ruzalar majmasi. T., 2007.

**Dars o`tish yuzasidan metodik tavsiyalar**

Bu mavzu bo`yicha laboratoriya mashg`ulotini o`tkazishda quyidagilar tavsiya qilinadi:
1) so`z birikmasiga doir jadvallar ko`rinarli joyga osilgan bo`lishi kerak;
2) so`z birikmasi masalasi tilshunoslikdagi murakkab masalalardan bo`lganligi sababli uning asosiy xususiyatlarini talabalarga tushuntirish lozim;
3) so`z birikmalarining qo`shma so`z, ajralmas birikma, ibora va gaplardan farqlari talabalarga yana bir marta eslatilish lozim;

Darsning borishi

**I. Tashkiliy qism.** *(5 minut)*
Oqituvchi davomatni tekshiriladi, auditoriyaning mashg`ulot o`tkazishga tayyorligi aniqlanadi.

**II. O`tgan dars mavzusi va yangi mavzu materiallarini takrorlash.** *(10 minut)*
O`tgan dars mavzusi bo`yicha savol-javob o`tkaziladi, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar hosil qilish metodlari kabi yangi pedtexnologiyalarni qo`llagan holda talabalar bilimi nazorat qilinadi.
**III. Yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar.** *(50 minut)*

Reja:
1. Talabalar bilimini tekshirish.
2. Amaliy topshiriqlar.

**1. Talabalar bilimini tekshirish.**
Javob beruvchi talaba dastavval badiiy asardan o`zi ko`chirib kelgan gap tarkibidagi barcha so`z birikmalarini aniqlab beradi. Buning uchun gap tarkibidagi mustaqil so`zlar sonini sanab chiqadi. Shunga qarab so`z birikmalar sonini aniqlaydi. Keyin so`z birikmalarini tahlil qila boshlaydi. Tajribadan ma'lumki, ko`pchilik talabalar bi gap tarkibida bittagina so`z birikmasi mavjud bo`ladi deb hisoblashadi. Ana shu noto`g`ri tushunchaga barham berish lozim. Agar talabalarning ko`pchiligi gaplar tarkibidagi so`z birikmalarni to`liq topa olmagan bo`lishsa, ularga buni amalgam oshirish uchun ma'lum vaqt berish lozim bo`ladi.

Bu ishlar bajarilgandan keyin talabalar so`z birikmalarini to`liq tahlil qilishda davom etadilar. Bunda ular so`z birikmalari tarkibidagi hokim va tobe so`zlarni aniqlashadi, so`z birikmalarining hokim so`z turkumi jihatidan, tobe so`zning sintaktik vazifasi jihatidan turlarini belgilashadi, hokim va tobe so`zlarning birikish usullarini va so`z birikmasining tuzilish jihatdan tirlarini aytib berishadi.

Shu tariqa har bir talaba o'z misollaridan namunalar o'qib, ularni izohlab berishadi. Talabalar to'plagan barcha misollarni baholash uchun o'qituvchi ularni keyingi mashg'ulotgacha tekshirib va baholab qo'yadi.
**2. Amaliy topshiriqlar.**
Bunda guruh talabalari dars davomida mavzu bo'yicha topgan misollarini o'qib berishadi. Guruhdagi barcha talabalar o'z misollarini o'qib ulgurishlari uchun o'qituvchi har bir talabaga bir marta o'qishga imkon beradi. Yangi topilgan misollar ham yig'ishtirib olinadi va o'qituvchi tomonidan keyingi darsgacha tekshirilib, baholanadi.

**IV. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.** *(10 minut)*

Topshiriqlarning baholanishiga alohida ahamiyat berish lozim. Biz bunda talabaning bir kunda to‘plashi mumkin bo‘lgan ball miqdoridan (1,5 ball) kelib chiqishni taklif qilamiz.

O‘qituvchi talabalar yo‘l qo‘ygan umumiy xarakterdagi xatolar ustida to‘xtab o‘tadi va ularni bartaraf qilish yo‘llarini bayon qiladi.

**V. Darsni yakunlash.** *(5 minut)*

O‘qituvchi keyingi laboratoriya mashg‘uloti uchun topshiriq beradi. Keyingi mavzu gapning uyushiq bo‘laklari ekanligini hisobga olib, talabalarga bu mavzu bo‘yicha qisqacha ma’lumot beradi, qaysi o‘rinlarga e’tibor berish lozimligini uqtiradi va darsni yakunlaydi.

## 7-mavzu: Gapning uyushiq bo‘laklari.

**Dars maqsadi:**

***Ta’limiy:*** talabalarning uyushiq bo‘laklar va ularning xususiyatlari borasidagi bilimlar hajmini yana ham kengaytirish va boyitish.

***Tarbiyaviy:*** Tarkibida uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan “Goh esa quyoshdek porloq va yiroq Haqqa, haqiqatga tashna o‘tdik biz”, “Singdi ruhimizga, mangu barhayot, Alisher she’ri-yu, Pushkin bayoti”, “O‘zi uchun emas, xalq uchun, yurt uchun, jamiki alamzadalar, alamdiydalar uchun qon to‘kdi”, “Qizim, akng mard yigit edi, nomusli yigit edi” kabi misollar keltirish bilan talabalarda o‘z tug‘ilgan o‘lkasiga muhabbat, buyuk ota-bobolari bilan g‘ururlanish, istiqlolni avaylab-asrashga intilish tuyg‘ularini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** talabalarning badiiy va ilmiy tafakkurini rivojlantirish.

**Dars tipi:** ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

**Dars shakli:** laboratoriya mashg`uloti.

**Dars metodi:** og`zaki savol-javob, amaliy ish, ko‘rgazmali, grammatik tahlil.

**Fanlararo bog`lanish:** adabiyot, psixologiya, pedagogika, uslubiyat.

**Jihozlanishi:** badiiy asarlar, uyushiq bo‘laklarga doir jadvallar, kartochkalar.

### Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:


1. O`zbek tili grammatikasi. -T.:“Fan”, 1976, 2-qism.
2. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis, - T,: 2006.
3. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova, X. G’ulomova. Hozirgi o’zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
4. M.A.Hamroyev O’zbek tilidan ma’ruzalar majmasi. T., 2007.


### Dars o`tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzu bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotini o‘tkazishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

1) uyushiq bo‘laklarga oid jadvalni osib qo‘yish kerak;

2) uyushiq bo‘lakli gaplarning qo‘shma gaplardan farqini talabalarga tushuntirish lozim;

3) misollarni badiiy asarlardan ko‘chirib olish jarayonida tinish belgilarining qo‘yilishiga alohida ahamiyat berish lozimligi uqtiriladi;
4) uyushgan va uyushmagan sifatlovchi aniqlovchilarga doir misollar topishda ularning farqlarini tushunib olgan holda ishga kirishish lozimligi aytiladi.

Darsning borishi

**I. Tashkiliy qism.** *(5 minut)*
Oqituvchi davomatni tekshiriladi, auditoriyaning mashg`ulot o`tkazishga tayyorligi aniqlanadi.

**II. O`tgan dars mavzusi va yangi mavzu materiallarini takrorlash.** *(10 minut)*
O`tgan dars mavzusi bo`yicha savol-javob o`tkaziladi, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar hosil qilish metodlari kabi yangi pedtexnologiyalarni qo`llagan holda talabalar bilimi nazorat qilinadi.
**III. Yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar.** *(50 minut)*

Reja:
1. Talabalar bilimini tekshirish.
2. Amaliy topshiriqlar.

**1. Talabalar bilimini tekshirish.**

Talabalar uyushiq bo‘laklar bo‘yicha topgan misollarini o‘qishni uyushiq bosh bo‘laklardan boshlashadi. Uyushgan ega bo‘yicha topilgan misollar bir xilda – bir turkum bilan ifodalangan egaga oid misollar o‘qilmasdan, deyarli barcha turkumlar bilan ifodalangan egalar ishtirok etgan misollarning o‘qilishiga e’tibor berish lozim: turdosh otning barcha turlari, atoqli otning barcha turlari, olmoshning barcha turlari, otlashgan so‘zlarning barcha turlari ishtirok etgan gaplarni o‘qitishga harakat qilish lozim. Uyushgan kesim bo‘yicha topilgan misollar ichida ham kesimning barcha turlari – fe’l kesim va uning turlari, ot kesim va uning barcha xillari qatnashgan gaplardan o‘qitish kerak.
Keyingi navbatda uyushgan ikkinchi darajali bo‘laklar bo‘yicha to‘plangan misollar ham rang-barang bo‘lishiga erishish lozim.
Shu tariqa har bir talaba o‘z misollaridan namunalar o‘qib, ularni izohlab berishadi. Talabalar to‘plagan barcha misollarni baholash uchun o‘qituvchi ularni keyingi mashg‘ulotgacha tekshirib va baholab qo‘yadi.

**2. Amaliy topshiriqlar.**

Bunda guruh talabalari dars davomida mavzu bo‘yicha topgan misollarini o‘qib berishadi. Guruhdagi barcha talabalar o‘z misollarini o‘qib ulgurishlari uchun o‘qituvchi har bir talabaga bir marta o‘qishga imkon beradi. YAngi topilgan misollar ham yig‘ishtirib olinadi va o‘qituvchi tomonidan keyingi darsgacha tekshirilib, baholanadi.
**IV. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.** *(10 minut)*
Topshiriqlarning baholanishiga alohida ahamiyat berish lozim. Biz bunda talabaning bir kunda to‘plashi mumkin bo‘lgan ball miqdoridan (1,5 ball) kelib chiqishni taklif qilamiz.
O‘qituvchi talabalar yo‘l qo‘ygan umumiy xarakterdagi xatolar ustida to‘xtab o‘tadi va ularni bartaraf qilish yo‘llarini bayon qiladi.

**V. Darsni yakunlash.** *(5 minut)*

O‘qituvchi keyingi laboratoriya mashg‘uloti uchun topshiriq va ko‘rsatmalar beradi. Keyingi mavzu ergash gapli qo‘shma gaplarga bag‘ishlanganligini hisobga olib, bu mavzu bo‘yicha qisqacha

ma'lumot beriladi, zarur adabiyotlar ro'yxati yozdiriladi. SHundan keyin o'qituvchi darsni yakunlaydi.

**8-mavzu: Ergash gapli qo'shma gaplar.**

**Dars maqsadi:**
***Ta'limiy:*** talabalarning ergash gapli qo'shma gaplar yuzasidan kengroq va chuqurroq bilim olishlarini ta'minlash.
***Tarbiyaviy:*** *"Biror millatning vakili o'zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg'usi shakllangan bo'ladi", "Faqat bir narsani aytmoq joizki, savob ishlar, ... Vatan ravnaqi yo'lidagi ishlar hech qachon avvaldan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha, birovlarning ko'rsatmasi bilan qilinmaydi"* toifasidagi ergash gapli qo'shma gaplardan misollar keltirib, talabalarda vatanga muhabbat, fidoyilik, millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash.
***Rivojlantiruvchi:*** talabalarning badiiy va ilmiy tafakkurini rivojlantirish.
**Dars tipi:** ko`nikma va malakalarni shakllantirish.
**Dars shakli:** laboratoriya mashg`uloti.
**Dars metodi:** og`zaki savol-javob, amaliy ish, ko'rgazmali, grammatik tahlil.
**Fanlararo bog`lanish:** adabiyot, psixologiya, pedagogika, uslubiyat.
**Jihozlanishi:** badiiy asarlar, ergash gapli qo'shma gaplarga doir jadvallar.

**Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:**


1. O`zbek tili grammatikasi. -T.:"Fan", 1976, 2-qism.
2. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis, - T,: 2006.
3. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
4. M.A.Hamroyev O'zbek tilidan ma'ruzalar majmasi. T., 2007.


**Dars o`tish yuzasidan metodik tavsiyalar**

Bu mavzu bo'yicha laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda quyidagilarga rioya qilish kerak:
1) ergash gapli qo'shma gaplar bo'yicha tayyorlangan jadvallarni, ko'rgazma qurollarni osib qo'yish lozim;
2) Bu mavzu bo'yicha misollar to'plashda Oybek, A. Qodiriy, A.Muxtor, O. YOqubov kabi adiblarning nasriy asarlari tavsiya qilinadi;
3) to'plangan misollarning ergash gaplarga xos barcha turlari va ular ichida barcha bog'lovchi vositalar ishtiroki bo'lgan misollar bo'lishiga erishish lozim.

Darsning borishi

**I. Tashkiliy qism.** *(5 minut)*
Oqituvchi davomatni tekshiriladi, auditoriyaning mashg`ulot o`tkazishga tayyorligi aniqlanadi.

**II. O`tgan dars mavzusi va yangi mavzu materiallarini takrorlash.** *(10 minut)*
O`tgan dars mavzusi bo`yicha savol-javob o`tkaziladi, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar hosil qilish metodlari kabi yangi pedtexnologiyalarni qo`llagan holda talabalar bilimi nazorat qilinadi.

**III. Yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar.** *(50 minut)*

Reja:

1. Talabalar bilimini tekshirish.
2. Amaliy topshiriqlar.

**1. Talabalar bilimini tekshirish.**

Javob beruvchi talabalar ergash gapli qo‘shma gaplar bo‘yicha topgan misollarini ergash gap turlari bo‘yicha tartib bilan o‘qib berishadi va har bir gapni tahlil qilib borishadi. Misol uchun, ***“Hamma to‘plansa, biz darsni boshlaymiz”*** gapidagi vergulgacha bo‘lgan qism ergash gap hisoblanadi, chunki bu gap keyingi gapdagi fikr uchun qo‘yilgan shart tarzida berilgan, shuningdek, bu gapning kesimi tarkibida ***–sa*** qo‘shimchasi mavjudligi ham uning ergash gap ekanligidan dalolat beradi. Xuddi shu qo‘shimcha ***(-sa)*** ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositadir. Bu ergash gapli qo‘shma gap shart ergash gapli qo‘shma gapdir. Bu qo‘shma gapda ergash gap oldin, bosh gap esa keyin kelyapti. Talabalar ergash gapli qo‘shma gap tarkibida qo‘llangan tinish belgilariga ham izoh berib o‘tishadi.

Shu tariqa har bir talaba o‘z misollaridan namunalar o‘qib, ularni izohlab berishadi. Talabalar to‘plagan barcha misollarni baholash uchun o‘qituvchi ularni keyingi mashg‘ulotgacha tekshiradi va baholab qo‘yadi.

**2. Amaliy topshiriqlar.**

Bunda guruh talabalari dars davomida mavzu bo‘yicha topgan misollarini o‘qib berishadi. Guruhdagi barcha talabalar o‘z misollarini o‘qib ulgurishlari uchun o‘qituvchi har bir talabaga bir marta o‘qishga imkon beradi. Yangi topilgan misollar ham yig‘ishtirib olinadi va o‘qituvchi tomonidan keyingi darsgacha tekshirilib, baholanadi.

**IV. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.** *(10 minut)*

Topshiriqlarning baholanishiga alohida ahamiyat berish lozim. Biz bunda talabaning bir kunda to‘plashi mumkin bo‘lgan ball miqdoridan (1,5 ball) kelib chiqishni taklif qilamiz.

O‘qituvchi talabalar yo‘l qo‘ygan umumiy xarakterdagi xatolar ustida to‘xtab o‘tadi va ularni bartaraf qilish yo‘llarini bayon qiladi.

**V. Darsni yakunlash.** *(5 minut)*

O‘qituvchi keyingi laboratoriya mashg‘ulotiga tegishli topshiriqlar beradi. Keyingi mashg‘ulot tinish belgilariga bag‘ishlanganligi sababli, shu mavzu bo‘yicha qisqacha ma’lumot beriladi, teggishli adabiyotlar ro‘yxati yozdiriladi. SHundan keyin o‘qituvchi darsni yakunlaydi.

## 9-mavzu: Tinish belgilari (Punktuatsiya).

**Dars maqsadi:**

***Ta’limiy:*** talabalarning tinish belgilari bo‘yicha kengroq va chuqurroq bilim olishlarini ta’minlash.

***Tarbiyaviy:*** talabalarda savodxonlikka intilish, shuningdek, yozma nutqqa o‘ta mas’uliyat bilan qarash malakalarini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** talabalarning ilmiy, badiiy tafakkurini rivojlantirish, yozma savodli yozish qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars tipi:** ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

**Dars shakli:** laboratoriya mashg`uloti.

**Dars metodi:** og`zaki savol-javob, amaliy ish, ko‘rgazmali, grammatik tahlil.

**Fanlararo bog`lanish:** adabiyot, psixologiya, pedagogika.
**Jihozlanishi:** badiiy asarlar, tinish belgilari bo‘yicha tuzilgan jadvallar.

**Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:**


1. O`zbek tili grammatikasi. -T.:“Fan”, 1976, 2-qism.
2. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis, - T,: 2006.
3. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova, X. G’ulomova. Hozirgi o’zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
4. K.Nazarov. O`zbek tili punktuatsiyasi. – T.: “O`qituvchi”, 1976.
5. M.A.Hamroyev O’zbek tilidan ma’ruzalar majmasi. T., 2007.


**Dars o`tish yuzasidan metodik tavsiyalar**

Bu mavzu bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotini o‘tkazishda quyidagilarga rioya qilish kerak:
1) o`zbek tilidagi tinish belgilariga oid ko`rgazma vositalar osib qo`yiladi;
2) tinish belgilrining ishlatilish qoidalari haqidagi adabiyotlarning tanqisligini hisobga olib, oqituvchi talabalarga adabiyotlar topishda yordam berishi lozim;

Darsning borishi

**I. Tashkiliy qism.** *(5 minut)*
Oqituvchi davomatni tekshiriladi, auditoriyaning mashg`ulot o`tkazishga tayyorligi aniqlanadi.

**II. O`tgan dars mavzusi va yangi mavzu materiallarini takrorlash.** *(10 minut)*
O`tgan dars mavzusi bo`yicha savol-javob o`tkaziladi, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar hosil qilish metodlari kabi yangi pedtexnologiyalarni qo`llagan holda talabalar bilimi nazorat qilinadi.
**III. Yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar.** *(50 minut)*

Reja:
1. Talabalar bilimini tekshirish.
2. Amaliy topshiriqlar.

**1. Talabalar bilimini tekshirish.**

Javob beruvchi talaba barcha tinish belgilari bo`yicha to`plagan misollarini o`qib beradi va har bir tinish belgisining qo`llanish sababini izohlab ketadi.

Jami 10 ta tinish belgisi mavjudligini hisobga olib, har bir talabadan o`qituvchining o`zi tanlagan holda ma’lum bir tinish belgisi bo`yicha topilgan misolni o`qitishi mumkin.

Shu tariqa har bir talaba o‘z misollaridan namunalar o‘qib, ularni izohlab beradi. Talabalar to‘plagan barcha misollarni baholash uchun o‘qituvchi ularni keyingi mashg‘ulotgacha tekshirib va baholab qo‘yadi.

**2. Amaliy topshiriqlar.**

Bunda guruh talabalari dars davomida mavzu bo‘yicha topgan misollarini o‘qib berishadi. Guruhdagi barcha talabalar o‘z misollarini o‘qib ulgurishlari uchun o‘qituvchi har bir talabaga bir

marta  o‘qishga imkon beradi. Yangi topilgan misollar ham yig‘ishtirib olinadi va o‘qituvchi tomonidan keyingi darsgacha tekshirilib, baholanadi.

**IV. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.** *(10 minut)*

Topshiriqlarning baholanishiga alohida ahamiyat berish lozim. Biz bunda talabaning bir kunda to‘plashi mumkin bo‘lgan ball miqdoridan (1,5 ball) kelib chiqishni taklif qilamiz.

O‘qituvchi talabalar yo‘l qo‘ygan umumiy xarakterdagi xatolar ustida to‘xtab o‘tadi va ularni bartaraf qilish yo‘llarini bayon qiladi.

**V. Darsni yakunlash.** *(5 minut)*

Bu mashg`ulot oxirgi mashgulot bo`lib, o`qituvchi barcha o`tilgan laboratoriya mashg`ulotlariga umumiy yakun yasaydi.

7. Ona tili fanidan  kollokvium savollari.

1. Tilshunoslikning sintaksis bo’limida o’rganiladigan bilimlar majmui haqida ma'lumot bering.
2. Boshqaruvda hokim va tobe so’zlarning birikishi xususida fikr yuriting.
3. So’z birikmasining tuzilishiga ko’ra turlarini ifodalang.
4. Gapning tuzilish jihatdan turlari to’g’risida axborot bering. Sodda va qo’shma gaplarning farqini izohlagn.
5. Nominativ (atov) gaplar to’g’risidagi ma'lumotlarni bayon eting.
6. Kiritma gap to’g’risida ma'lumot bering.
7. Ajratilgan bo’laklar, ularning qaysi gap bo’laklariga oidligini tushuntiring.
8. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishini ifodalang.
9. Vositali va vositasiz to’ldiruvchi haqida tushuncha bering.
10. Qaratqich aniqlovchi haqida ma'lumot bering.
11.  So’zlarning gapda necha usul bilan  birikishi haqida ma'lumot bering.
12. Moslashuvda hokim va tobe so’zlarning birikishi xususida fikr yuriting.
13. Gap va gapning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalang.
14. Sodda gaplarning grammatik asosi va  tarkibiga ko’ra turini sanang. Farqini izohlagn.
15. To’liq va to’liqsiz gaplar to’g’risidagi ma'lumotlarni bayon eting.
16. Undalma, kirish so’z, kirish birikma va kiritma gapning gap bo’lagi sanalmasligi to’g’risida ma'lumot bering.
17. Gap bo’laklarining turlarini sanang. Bosh va ikkinchi darajali bo’laklarning farqini ayting. Eganing ifdalanishini tushuntiring.
18. Ajratilgan bo’laklarda tinish belgilarining qo’llanishini tushuntiring.
19. Miqdor-daraja, sabab va  maqsad hollari haqida so’zlang.
20. Holning qaysi xususiyatlari bilan aniqlovchi o’xshashi va farki qilishini izohlagn.
21. Gapda so’zlarni bog’lovchi vosita va usullar haqida ma'lumot bering.
22. Bitishuvda hokim va tobe so’zlarning birikishi xususida fikr yuriting.
23. Gapning ifoda maqsadiga ko’ra turlarini sanang va darak gapning xususiyatlarini ifodalang.
24. Bir bosh bo’lakli gaplarning turlarini sanang. Egasiz va kesimsiz gaplarning farqini izohlagn.
25. Bo’laklarga ajraladigan va ajralmaydigan gaplar haqidagi ma'lumotlarni bayon eting.
26. Kesim va uning ifodalanishi haqida ma'lumot bering.
27. Uyushiq bo’laklarda umumlashtiruvchi birlik to’g’risida fikr yuriting.
28. Yig’ik va yoyiq sodda gaplarning farqini tushuntiring.
29. Ravish, payt, o’rin hollari haqida so’zlang.
30. Gap bo’laklarining joylashish tartibini tushuntiring.
31. Cuz birikmasini ta'riflang. Uning turgun birikma va gapdan farki haqida ma'lumot bering.
32. So’z birikmasida hokim so’zning ifodalanishiga kura turlari xususida fikr yuriting.
33. So`roq va buyruq gaplarning xususiyatlarini ifodalang.
34. Shaxsi aniq, shaxsi noaniq gaplar to’g’risidagi fikrlaringizni izohlang va asoslang.

35. Undalmani ta'riflang. Uning ifodalanishi va egadan farqi haqidagi ma'lumotlarni bayon eting.
36. Kesimning ega bilan moslashuvini bayon eting.
37. Uyushiq bo’laklarning o’zaro bog’lanishini tushuntiring.
38. Sodda kesim hamda uning ifodalanishini izohlagn.
39. Hol va uning ifodalanishi haqida ma'lumot bering.
40. Turli grammatik formalarning uyushiq bo’laklarda qanday qo’llanishini tushuntirib bering.
41. So’z birikmasining birikish usullari haqida ma'lumot bering.
42. So’z birikmasida tobe so’zning qanday gap bo’lagiga kirishiga ko’ra turlari xususida fikr yuriting.
43. His-hayajon gaplarning xususiyatlarini ifodalang.
44. Shaxsi umumlashgan, shaxsi topilmas gaplar to’g’risidagi fikrlaringizni izohlagn va asoslang.
45. Kirish so’z, kirish birikma to’g’risidagi ma'lumotlarni bayon eting.
46. To’ldiruvchi va uning turlari haqida ma'lumotlarni bering.
47. Uyushiq bo’laklar haqida umumiy ma'lumot bering.
48. Sostavli (murakkab) kesimlar va ularning ifodalanishini izohlagn.
49. Sifatlovchi aniqlovchi va izohlovchining farqini tushuntiring.
50. Uyushiq bo’laklarning o’zaro bog’lanishini izohlagn.
51. Qo’shma gap haqida ma'lumot bering. Uning qismlari o’zaro qanday bog’lanishini tushuntiring.
52. To’ldiruvchi va aniqlovchi ergash gaplar haqida ma'lumot bering.
53. Maqsad ergash haqidagi ma'lumotlarni bayon eting.
54. Bog’lovchisiz qo’shma gap to’g’risida fikr yuriting.
55. Aralash turdagi murakkab qo’shma gap haqida fikr yuriting.
56. Bog’langan qo’shma gapda ishlatiladigan tinish belgilari to’g’risida gapiring.
57. Ko’chirma va muallif gapining joylashish urni va tinish belgilari haqida ma'lumot bering.
58. O’zlashtirma gap haqidagi fikrlaringizni bayon eting.
59. Bosh gapni butunligicha izohlaydigan ergash gaplar to’g’risida so’zlang. Uning turlarini sanang.
60. Ergash gapni bosh gapga bog’lovchi vositalarni sanab ko’rsating, misollar keltiring.
61. Bog’langan qo’shma va uning qismlari orasidagi bog’lanishni tushuntiring.
62. Bosh gapni butunligicha izohlaydigan ergash gaplarni sanang. Ravish ergash gap haqida ma'lumot bering.
63. Miqdor-daraja ergash gap haqidagi ma'lumotlarni bayon eting.
64. Murakkab qo’shma gap haqida fikr yuriting.
65. O’zga gapni ta'riflang. Uning turlarini sanang va izohlagn.
66. Ergashgan qo’shma gap tarkibida ergash gapni bosh gapga bog’lovchi vositalarni sanang.
67. Ko’chirma va o’zlashtirma gapning farqini tushuntiring.
68. Shart ergash gap haqida ma'lumot bering.
69. Bog’lanish yo’li bilan tuzilgan murakkab qo’shma gaplarni tushuntiring.
70. Qo’shma gap haqida umumiy ma'lumot bering.
71. Bosh va ergash gaplar, ularning xususiyatlarini tushuntiring.
72 O’rin ergash gap haqida ma'lumot bering.
73. Natija ergash gap haqidagi ma'lumotlarni bayon eting.
74. Bog’lanish yo’li bilan tuzilganmurakkab qo’shma haqida fikr yuriting.
75. O’zlashtirma gapga ta'rif bering. Uning kqchirma gapdan farqini asoslang.
76. Bog’lovchisiz qo’shma gap komponentlari (qismlari) o’zaro qanday mazmun munosabatini ifodalashini izohlagn.
77. Bog’langan qo’shma gap komponentlari (qismlari) zid tushunchani ifodalasa, ularning qanday bog’lanishini tushuntiring.
78. Murakkab qo’shma gap, uning ikki komponentli qo’shma gapdan farqini izohlagn.
79. Monologik nutq ichida qo’llangan ko’chirma gap (yoki gaplar)da tinish belgilarining kullanishini izohlagn.
80. Qo’shma gap haqida umumiy ma'lumot bering.
81. Bosh gapdagi biror bo’lakni izoxlaydigan ergash gap turlarini sanang. Ega va kesim ergash gapni tushuntiring.

82. Sabab ergash gap haqida ma'lumot bering.
83. To'siqsiz va shart ergash gap haqidagi ma'lumotlarni bayon eting.
84. Bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gap haqida fikr yuriting.
85. Ko'chirma va muallif gapi o'zaro qanday tinish belgilari bilan ajratilishini asoslang.
86. Bog'langan qo'shma gap komponentlari (qismlari) ayiruv bog'lovchilari bilan bog'langanda qanday ma'no ifodlanishini tushuntiring.
87. Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida ma'lumot bering.
88. Bosh va ergash gaplarga ta'rif bering. Ular qanday xususiyatga egaligini tushuntiring.
89. Bosh gapning biror bulagini izoxlovchi ergash gaplar, nima uchun ularning shu turga kiritilishini izohlagn.
90. O'zlashtirma gap to'g'risida tushuncha bering.

## 8. ADABIYOTLAR


1. I. Karimov. Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. AAbduazizov. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi, Toshkent, 1992.
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari, «O'qituvchi», Toshkent, 1995-yil.
4. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil
5. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiyot tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent, 2000.
6. R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
7. K.Safaev, R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
12. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
13. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi
14. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
15. R.Yunusov. O`zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
16. O`. Sharipova, I.Yo`ldoshev. Tilshunoslik asoslari. 2006, TDPU.


### Sintaksis bo'limi yuzasidan testlar
### I-variant

1. Qaysi javobda ravish holi ko'makchili shaklda qo'llangan?
*A. Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan o'tib ketdi.*
*B. Yuragi do'stlarning, yaqinlarning, shogirdlarning sog'inchi bilan to'ldi.*
*S. Oraga Asqar polvon bilan Ali tajang ham suqildi.*
*D. Bobosi ko'chada allakim bilan gaplashdi.*
*E. Go'zal vodiydagi Gulsar bog'i ko'klam libosi bilan burkaldi.*
2. *Ota-onaning yomon nomi farzandlarga ham isnod keltiradi*. Ushbu gapning grammatik asosini aniqlang.
*A. Farzandlarga isnod keltiradi.* *B. Yomon nomi isnod keltiradi.*
*S. Nomi isnod keltiradi.* *D. Farzandlarga keltiradi.*
*E. Isnod keltiradi.*

3. Uyushiq ot kesim qo'llangan qatorni toping.
*A. Qiz qah-qah otib kuldi va tezda jo'nab ketdi. B. Odamlar bilan yashash, ishlash, do'stlashish naqadar yaxshi. S. U yer haydadi, chopiq chopdi, suv surdi, dalaga go'ng tashidi, shaharga paxta tashidi. D. Xona ichi issiq, jimjit, dim. E. Darvoza sekin taqirladi-da, ochildi.*

4. Qaysi javobda gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan birliklar nomi to'g'ri berilgan?
*A. Undalma, uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, kiritma gap.*
*B. Kirish so'z, kirish birikma, undalma, kiritma gap.*
*S. Kirish so'z, ajratilgan to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi, undalma.*
*D. Ajratilgan izohlovchi, undalma, uyushiq ega, kirish so'z.*
*E. Hamma javob to'g'ri.*
5. Qaysi javobda bog'langan qo'shma gap berilgan?
*A. Katta ariqning nariga sohili ularniki, berigi sohili esa bizniki.*
*B. Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir.*
*S. Allaqanday poyonsiz, g'arib oqshom.*
*D. Baxt havoda esmaydi, u mehnatda keladi.*
*E. Keksalarning mehnati unum bermasa ham, maslahati unum beradi.*
6. Qaysi javobda shaxsi umumlashgan bir sotsavli (bir bosh bo'lakli) gap berilagan?
*A. Kechaning ilik havosidan nafas oldik.*
*B. Uzoqdan tog'lar qorayib ko'rina boshladi.*
*S. Aql'ni beaql'dan o'rgan.*
*D. Yolg'izlikdan zerikib, xafa bo'lib o'tirgan edim. Ot aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi.*
7. Berilgan gap ergash gaplarning qaysi turiga mansubq
Shunisi ravshanki,ta'lim-tarbiya hayot bilan bog'lik bo'lishi lozim.
*A. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.*
*B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.*
*S. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.*
*D. Ega ergash gapli qo'shma gap.*
*E. Natija ergash gapli qo'shma gap.*

8. Qaysi javobda uyushiq vositali to'ldiruvchi berilganq
*A. Datsavval Surxondaryoda, keyin Qarshi cho'lida ishladim.*
*B. Men oddiy ishchining, ozodlik uchun kurashchining o'g'liman.*
*C. Ortiq avval Avazga, so'ng Turdiga qaradi.*
*D. U neon chiroqlari bilan yoritilgan katta va salqin zalga kirdi.*
*E. Boy sevinch va hayajon bilan shoshilib o'rnidan turdi.*

9. Qaysi javobda shart gapli qo'shma gap berilgan?
*A. Muallim, siz nima desangiz, menga o'sha ma'qul.*
*B. Kimning bilimi kuchli bo'lsa, uning mulohazalari ham chuqur bo'ladi.*
*C. Siz bolani xurmat qilmasangiz, bola ham sizni sevmaydi.*
*D. Maqtashda tantilik qilsam, haqqim bor.*
*E. Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi tamom so'nmagan edi.*

10. Qaysi javobda uyushiq sifatlovchi qatnashgan?
*A. Qarshimizda semiz, serhosil erlar yastanib yotibdi.*
*B. Ular goh kulib, goh jiddiy suhbatlashishardi.*
*S. Ra'no bir necha vaqt boyagicha, harakatsiz o'tirdi.*
*D. Aql' bilan odob egizak.*
*E. Anvarning pichingiga iltifotsiz turdi.*
11. Quyidagi tavsifga mos keladigan gap qaysi javobda berilgan?

Sodda gap, yoyiq gap, aralash tipdagi yoyiq gap, ikki bosh bo'lakli gap.
*A. U o'z kasbi bilan hamisha faxrlanardi.*
*B. Qayiq o'qdek uchib borardi.*
*C. Tabiat qo'ynida erkin nafas olib o'sganman.*
*D. Unda-bunda qushlar sayraydi.*
*E. Yaxshilik yerda qolmaydi, yomonlik unutilmaydi.*
12. Qaysi javobda ajratilgan o'rin holi qatnashgan?
*A. Patslikdan, daryo tomondan, yoqimli shabada esmoqda.*
*B. Yakshanbada, dam olish kunida, ishni davom ettirmoqchimiz.*
*C. Ko'l bo'yida, biz dam olgan qirg'oqda, manzara juda go'zal.*
*D. Bu yerda odamlar, ayniqsa, xotin-qizlar bir-birini taniydilar.*
*E. A va S javoblar to'g'ri.*
13. Qaysi javobda ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalari bitishuv yo'li bilan tuzilgan?
*A. Bir vaqtlar Ispaniyada g'alati gazeta nashr qilingan.*
*Bu gazetaning matni surp datsro'molga bosilgan…*
*B. Insonning hunari – uning boyligi.*
*C. Ibodatlarning eng maqbuli odamlarga yaxshilik qilishdir.*
*D. Inson hayvondan aqli bilan farq qiladi.*
*E. Oltin olma, duo ol.*
14. Qaysi javobda murakkab (ko'p kismli) qo'shma gap berilgan?
*A. Yer-suv, o'rmonlar, daryolar, o'tloqlar, ko'llar xalq boyligidir, tabiatga munosabat - xalq mulkiga munosabat.( As.M.)*
*B. Birov bahorni yaxshi ko'radi, birov kuz manzaralariga maftun, birov bog'larga talpinadi, birov - tog'larga, birovga tong aziz, birovga-shom. (As.M). C. Shahardan qaytib kelib, bir oz dam oldi, keyin o'tirib ishladi.*
*D. Uzun, qorong'u yo'lakka chiqqach, Unsin dam oldi (O).*
*E. Yo'lchi qotgan qorni g'arch-g'urch bosib, toza, muz havoni qamrab keza boshladi (O).*
15. Qaysi javobda berilgan sodda gaplardan shart ergash gapli qo'shma gap hosil qilish mumkin?
*A. O'z darajangga munosib o'rinni bilib o'tir. Bu o'rindan seni hech kim qo'zg'ata olmaydi. B. Bu dunyoda har bir narsa o'zgaradi. Fazilat qonunlari sira ham o'zgarmaydi. C. Til va nutq - aloqa quroli. Uning xizmat doirasi keng, hajmi o'lchovsiz. D. Quyosh yashiringan. Kunduzning yorug'ligi tamom so'nmagan edi. E. Bir piyoladan choy ichildi. Datsurxonga fotiha o'qib tarqaldi.*
16. Tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan javobni aniqlang.
*A. - Sohibaxon, men shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman, - dedi Nazir Nazarovich.*
*B. - Sohibaxon, men shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman, -dedi Nazir Nazarovich.C. «Sohibaxon, men shoirtabiat odamman, chindan ham, hayot shaydosiman», - dedi Nazir Nazarovich.D. «Sohibaxaon, men, shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman», - dedi Nazir Nazarovich.*
*E. «Sohibaxon men shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman» - dedi Nazir Nazarovich.*
17. Darak gap berilgan qatorni toping.
*A. Dushman yuziga kulib boq.*
*B. Dunyoda inson uchun qidirsa topilmaydigan narsa nima?*
*S. Barakali mehnatdan so'ng rohatlanib dam olishi qanday zavqli!*
*D. Aqlli dushman nodon do'stdan yaxshi.*
*E. Do'stlaring sendan yuz o'girsa sababini o'zingdan ko'r.*
18. Shodlik, mamnunlik ma'nosini bildiruvchi his-hayajon gap berilgan qatorni aniqlang.
*A.Tamom umring zoe bo'ldi!*
*B. Yoshi ulug' kishilarni izzat va hurmat qil!*
*S. Hunarsiz kim yetar mol ila taxtga!*
*D. Har qanday hunardan bahramand bo'lish qanday yaxshi!*
*E. Zar qidiruvchi –ozor qidiruvchi!*

19. *Fahmi yo'qning g'ami ko'p bo'ladi.* Ushbu gapda qaratuvchi aniqlovchi qanday so'z bilan ifodalangan?
*A. ibora bilan  B. otlashgan so'z bilan  S. modal so'z bilan*
*D. so'z birikmasi bilan  E. undov so'z bilan*
20. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?
*A. Do'st shunday kishiki, u o'z do'stidan hech qachon hech narsani ayamaydi.  B. G'ulomjon shuni fahmladiki, bu joy qizlarning yig'iladigan makoni ekan.  S. Ma'lum bo'ldiki, Hurinisa qishloqda yashaydigan xolasinikiga ketib qolgan ekan.  D. Shaftoli shunchalik ko'p hosil qiladiki, shoxlarini ko'tara olmay sinib ketadi.  E. Siz qayerni xohlasangiz, o'sha yer menga ko'rkam ko'rinadi..*
21. *Uyning ishlari juda ko'p bo'lmasa ham, Zebi charchagan edi.* Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
*A. shart ergash gapli qo'shma gap.  B. sabab ergash qo'shma gap.*
*S. to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.  D. payt ergash gapli qo'shma gap.*
*E. aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.*
22. Qaysi qatorda shart ergash gapli qo'shma gap berilgan?
*A. Maqsad aniq bulmasa, hech bir ishni ko'ngildagidek bajarib bo'lmaydi.*
*B. Bahor kelsa, olam gulga burkanadi.  S. Insonga suv va havo nechog'lik zarur bo'lsa, mehr-oqibat ham shunchalik zarurdir.  D. Biz tub yangilanishlar jarayonini qanchalik chuqur o'rgansak, qiladigan ishimiz shunchalik aniq bo'ladi.  E. Kimki halol mehnat qilsa, u mehnatidan baraka topadi.*
23. O'zlashtirma gap berilgan qatorni toping.
*A. Shirin so'zlaringiz va daldangiz uchun rahmat.*
*B. Ishlayotganlar bir-birlariga qarab kulib olishdi.*
*S. «Suv vodiyga chopqir otdek kirib boradi», - dedi Bekbo'ta.*
*D. Olimjon Ko'kbuloqdan suv chiqishiga ishonishini aytdi.*
*E. Qo'zlashtirma gap berilmagan.*
24. Boshqaruv usuli bilan birikkan so'z birikmasini aniqlang.
*A. suv ichdi, talabalar bilan gaplashdi.  B. bahor fasli, xat yozdi.*
*S. qo'l qo'ydi, quloq soldi.  D. ishdan keldi, rostdan gapirdi.*
*E. birdan to'xtadi, do'stning yutug'i.*
25. So'roq gap qanday hosil qiladinadi?
*A. so'roq yuklamalari bilan  B. so'roq ohangi yordamida.*
*S. so'roq olmoshlari yordamida.  D. A va B to'g'ri.*
*E. A, B, S to'g'ri.*

26. Qaysi gapning kesimi tarkibida bog'lama qo'llangan?
*A. Hunarni qadrlamagan och qoladi.  B. Serjahlda aql bo'lmaydi.*
*S. Ehtimol uyda hech kim qolmagandir.  D. Hayot eng yaxshi murabbiydir.*
*E. Javobga shoshilgan kishi xatoga yo'l qo'yadi.*

27. Hol ravish bilan ifodalangan qatorni toping.
*A. Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi.*
*B. Ko'p yotadigan odamning umrida baraka bo'lmaydi.*
*S. Unsin Ra'noning gaplarini kula-kula tingladi.*
*D. Navoiy shiringina yasog'lik uyda tanho ishlar edi.*
*E. To'dadan ajralgan to'rga tushar.*
28. *Yigit, yigitdan nimasi bilan ortiq? - Hushyorligi bilan.* Ushbu to'liqsiz gapda qaysi gap bo'la ql'ari ifodalanmagan?
*A. ega  B. kesim.  S. ega, kesim.  D. ega, kesim, to'ldiruvchi.*
*E. To'ldiruvchi va kesim.*
29. Qaysi qatorda ikki bosh bolakli gap berilgan?
*A. Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi.*
*B. Uning kitob o'qib charchamaganiga hayronman.*

*S. Tuz ichar yringdan yuz o'rma.*
*D. Ilmni mehatsiz egall bo'lmaydi.*
*E. Bir tomonga qayrilgan shamni to'g'riladi.*
30. *Aqlning alomati kamtarlik, axmoqlikning alomati esa takabburlikdir.*
Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradiqi?
*A. bog'lovchisiz qo'shma gap. B. bog'langan qo'shma gap*
*S. ergashgan qo'shma gap. D. murakkab qo'shma gap.*
*E. O'zlashtirma gap.*
31. Aralash tipdagi murakkab qo'shma gapni aniqlang.
*A. Suv o'zgarsa, joy o'zgarsa, o'zgaradi odam ham.*
*B. Qish kelsa, atrof oppoq qorga burkangach, bolalarning qishki o'yinlari boshlanadi. S. Tog'asi qanchalik qizishsa, Oyqiz o'zini shunchalik bosishga harakat qilardi. D. Men sizga shuni aytmoqchimanki, agar xo'jaligimiz yiriklashsa, uning hisob-kitob ishlari osonlashadi va xalq hayoti farovonlashadi. E. Kishi o'z-o'zini bilsa, qadr-u qimmatini tanisa, u holda uning aqlli ekani ma'lum bo'ladi.*
32. Ritorik soroq gap berilgan qatorni toping.
*A. Ey hokim, sen falon yerda cho'ponlik qilgan kishi emasmisan?*
*B. Dunyoda sizni jondan aziz ko'rgan kishining yuziga oyoq qo'yishdek og'ir jinoyat bormi? S. Dunyoda sizni qaysi masalalar qiziqtiradi?*
*D. Nechanchi sinfda o'kiysan, o'g'lim? E. Nega uni hamma shunchalik hurmat qiladi?*
33. *Laganbardorning maqtoviga uchgan kishining aql chirogi battarroq xiralashadi.* Ushbu gap qanday gap bo'laklaridan tashkil topgan?
*A. aniqlovchi – aniqlovchi- ega –hol-kesim.*
*B. aniqlovchi – to'ldiruvchi – aniqlovchi – aniqlovchi – ega - kesim.*
*S. aniqlovchi – ega – to'ldiruvchi - kesim.*
*D. aniqlovchi - to'ldiruvchi - ega - aniqlovchi - kesim*
*E. Aniqlovchi - aniqlovchi - ega – hol - kesim.*
34. *Ko'kda, bulutlar orasida, to'lin oy so'zadi.* Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?
*A. to'ldiruvchi B. aniqlovchi. S. payt holi. D. o'rin holi. E. ega.*
35. Chiqish kelishigida kelgan so'zning to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda ifodalangan?
*A. Sultonovning so'zini chin yurakdan quvvatladi.*
*B. Badnafslik kasali ham go'daklikdan boshlanadi.*
*S. Qo'rqoqlik dadillikdan qaytaradi.*
*D. Sovuqdan Yo'ldoshning oyoqlari zirqiray boshladi.*
*E. Uydan xat oldim, sizga ham salom deyishibdi.*
36. O'zlashtirma gap berilgan qatorni toping.
*A. «Odamning kimligini libosidan emas, tilidan biling!», - deyiladi Hikmatlarda. B. Bola: «Harakatdan barakat, undan qochar falokat», - deb yo'lga tushishdi. S. Suqrot hakimdan so'radilar: - Eng yaxshi boylik nima?*
*D. «Qodirov bu tadbirlarni yoqlayapti» - dedi Oyqiz. E. Otalar o'z so'zlarida egri daraxtning soyasi ham egri ekanligini aytishgan.*

## II –variant

1 .*Tun yarmida Tohirning o'kirib yig'lagan ovozi qorong'i bog'ni zir titratdi. (P.Q)* Berilgan gap haqidagi qaysi fikr javoblarda to'g'ri asoslangan?
*A. sodda gap, to'liq gap, yoyik gap, bo'laklarga ajraladigan gap, ikki bosh bulaql'i gap. B. sodda gap, to'liq gap, bir bosh bulaql'i gap, bo'laklarga ajraladigan gap, yoyik gap. C. sodda gap, ikki bosh bulaql'i gap, to'liqsiz gap, yoyik gap. D. ikki bosh bulaql'i gap, to'liq gap, yigik gap, bo'laklarga ajraladigan gap. E. sodda gap, uyushiq bulaql'i gap, bir bosh bulaql'i gap, yoyik gap.*
2. So'z birikmasidagi hokim so'z qaysi so'z turkumidan ekanligiga kura, so'z birikmalari qanday turlarga bo`linadi?
*A. otli, fe'lli va ravishli so'z birikmalariga.*

*B. otli, ravishli, fe'lli, sifatli, olmoshli so'z birikmalariga.*
*C. otli, fe'lli, sifatli, modal so'zli so'z birikmalariga.*
*D. otli, fe'lli, ravishli, modal so'zli so'z so'z birikmalari.*
*E. A va D javoblari to'g'ri.*
3. Qaysi javobda so'z birikmasining boshqaruv usuliga to'g'ri ta'rif berilgan?
*A. Hokim so'zning talabi bilan tobe so'zning ma'lum grammatik vositani olishi boshqaruv deyiladi.B. tobe so'zning hokim so'z talab qiladgan shaklda kelishi boshqaruv deyiladi. C. tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi*

*qo'shimchalari va ko'makchilar orqali so'z birikmasi hosil qilinishi boshqaruv deyiladi. D. A, V javoblar to'g'ri.*
*E. A, V, S javoblar to'g'ri.*
4. Tarkibli kesim ishtirokidagi gap berilgan qatorni aniqlang.
*A. Odamlar orasini isloh qilish uchun yaxshi gap to'kigan kishi yolg'onchi emasdir. B. Inson boshida uchta kulfat bor: o'lim, qarilik, yomon farzand.*
*C. Mirvali sim uchini jiyda tanasiga mahkam bog'ladi.*
*D. Quloch yozib ketmon urayotgan kishilarning chekkalaridan ter quyila* boshladi. E. A va D javoblar to'g'ri.
5. –Sodda gap tarkibida keladi.
- O'ziga aloqador so'zlarning ma'nosini izohlaydi, bo'rttiradi.
- Boshqa bo'laklardan maxsus pauza bilan ajratiladi.
- Logik urg'u oladi.

Ushbu xususiyatlar qanday bo'lalarga xos?
*A. uyushiq bo'laklar. B. bosh bo'laklar*
*C. ikkinchi darajali bo'laklar. D. ajratilgan bo'laklar. E. undalma.*
6. Murakkab so'z birikmalari berilgan qatorni toping.
*A. pulat muqovali qalin kitob, g'ayratli keksa chol, paxta gulli shtapel mato.*
*B. O'zbekiston xalq shoiri bilan uchrashuv, qo'y og'zidan cho'p olmagan yigit, yuragi tor qiz. C. Sinfdoshlar bilan uchrashuv, masala ustida tortishish, mehnat qahramoni bilan suhbat. D. Hafsalasi pir bo'ldi, boshi osmonga etdi, baland bo'yli yigit. E. A va V javoblar to'g'ri.*
7. *Ipak qurti, yoz chog'i, bahor fasli, daraxtning bargi* kabi birikmalardagi so'zlar o'zaro qanday yo'l bilan bog'langan?
*A. boshqaruv usuli bilan. B. bitishuv usuli bilan.*
*C. moslashuv usuli bilan. D. teng bog'lanish orqali.*
*E. kelishikli boshqaruv usuli bilan.*
8. *Bir yo'lim tushganda shohi bilan ipaklarni tashlab o'tarman (O).*
Berilgan gap bir bosh bo'lakli gaplarning qaysi turiga kirishini aniqlang.
*A. shaxsi noaniq gap B. shaxsi topilmas gap.*
*C. shaxsi umumlashgan gap. D. shaxsi aniq gap.*
*E. nominativ gap.*
9. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap berilgan?
*A. Nodonning vaqti foydasiz o'tadi. B. Bilmaslik og'ir aybdir.*
*C. Dushman yuziga kulib boq. D. Sinalmagan do'stga va sinalgan dushmanga ishonmoq katta xato.*
*E. Ishga kirishish o'ylanib o'tirgandan yaxshi.*

10. Yoyiq undalmali gapni aniqlang.
*A. Hoy, qizchalar, muhabbatdan kulmangiz zinhor.*
*B. Kechir meni, oy yuzli malagim, seni maqtay olmasligimm tayin.*
*C. Buvijon, buvijon, nega ko'zlaringiz nam?*
*D. Shamol, qor, yomgir, do'l o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.*
*E. Donolarning aytishicha har kimni ham do'st tutib bo'lavermaydi.*
11. *O'qib o'rganilgan har bitta hunar*

*Hunarmandga bir kun foyda keltirar.* Ushbu gapda ega to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
*A. Foyda. B. Hunarmandga. C. Bir kun. D. Hunar. E. Har bitta hunar.*
12. *Biz shunday ish tutaylikki, butun dunyo lol qolsin.* Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
*A. Miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap.*
*B. Natija ergash gapli qo'shma gap.*
*C. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.*
*D. Ravish ergash gapli qo'shma gap.*
*E. Shart ergash gapli qo'shma gap.*
13. To'ldiruvchining otlashgan so'z bilan ifodalanishi qaysi qatorda berilgan?
*A. Odam nima bilan ravnaq topsa, o'shanga yopishadi.*
*B. O'rganishni istamagan kishiga nasihat qilma.*
*C. Farosatli ukalar, akalar xatolarini takrorlamaydilar.*
*D. Boladagi itse'dod biz tarbiyachilardan alanga kutadi.*
*E. Sergap kishidan ma'no kutma.*
14. Uyushiq aniqlovchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
*A.Ovozlar ham odatdagidan ko'ra jarangliroq va anikroq eshitiladi.*
*B. Aqlli, es-hushli, tadbirkor inson so'z boshlar suhbatdosh jim bo'lgan zamon. C. Moskvadagi ko'rgazmaga Xorazmdan ikki yuz kishi – dehkon, kosib, hunarmandlar yuboriladi. D. Ra'no bir necha vaqt boyagicha, harakatsiz, Anvarning pichingiga iltifotsiz turdi. E. Ulardan biri, ko'zoynakli keksa xotin, hammadan keyin qolib uzoq gaplashdi.*
15. So'z-gap qaysi qatorda berilgan?
*A. Kuz. Yerlarni sap-sariq yaproqlar bezab turibdi. B. – Qaysi fandan dars berar edingiz? - Adabiyotdan. C. – Iftordan so'ng biznikiga o'in, maslahat bor. – Xo'p. D. – Ey o'g'lim! Qiladayotgan ishingda kichkina gunoh bo'lsa ham, uni kichik deb hisoblama. E. – Bugun darsda kimlar javob berdi? - Lola.*
16. Gapning qaysi bo'lagi ajratilganini aniqlang. *Kimdir ichkaridan, to'g'ridagi katta dahlizdan chiqib mehmonxonaga kelayotgan edi.*
*A. ajratilgan payt holi. B. ajratilgan sifatlovchi*
*C. ajratilgan ravish holi. D. ajratilgan urin holi. E. ajratilgan to'ldiruvchi.*

17. Uyushiq bo'laklar qaysi qatordagi gapda ishtirok etgan.
*A. Xanjarni qinsiz, igvogarni qarovsiz qoldirib bo'lmaydi.*
*B. Kimning do'st va kimning dushmanligi og'ir kunlarda bilinadi.*
*S. Aqlli kishi qadru kamol topadi, nodon kishi esa davlat-u mol qidiradi.*
*D. Safardan ko'p tajribalar hosil bo'ladi va behisob foydalar qo'lga kiradi.*
*E. Tarix yaxshini ham yozadi, yomonni ham.*

18. Ishonch va tasdiq ma'nosini bildirgan kirish so'z qaysi qatordagi gapda ishtirok etgan?
*A. Darhaqiqat, Xorazm kovunlariday mazali kovun ko'p shaxa rva ellarda yo'q. B. Nazarimda, dunyoda neki ulug' xislat bor, sinovdan o'tgach, sadoqatga aylanadi. C. Afsuski, qo'limda bunday taqdirlar ifoda etilgan xatlar talaygina. D. Ehtimol, Sodiq ham u chog' nevaralarini yetaklab, bog'larga, xiyobonlarga chiqar. E. Aytishlaricha, kunlar o'tib Shirin Farhod bilan uchrashib qoldi.*

19. *Ayollik nomini pok saql'angiz.* Berilgan gapning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang.
*A. darak gap. B. buyruq gap. C. his-hayajonli gap.*
*D. so'roq gap. E. Ikki bosh bo'lakli gap.*

20. O'zlashtirma gap berilgan qatorni aniqlang.
*A. «Zulmlanayotgan kishining qarg'ishidan saql'aning», -deyiladi hadisda.*

*B. «Otam o'ttiz yil burun, - dedi u, - Kaykovus arig'ining mirobi bo'lib ishlagan». C. Buyuk shaxslardan biri ishyoqmas va tekintomoq odamlarni asalni yeb qo'yuvchi tekintomoq ariga o'xshashini aytgan.*
*D. Hadisi sharifda aytiladi: «Qo'l ostingdagilarga mehribon bo'l».*
*E. Donolarning aytishicha, har kimni ham do'st tutib bo'lavermaydi.*

21. Qaysi qatorda ergash gap bosh gapga chiqish kelishik qo'shimchasini olgan sifatdosh-ko'makchi yordamida bosh gapga bog'langan?
*A. Hojimatning qorasi ko'rinishi bilan ularning har ikkovi nochor ikki tomonga ajralishdi. B. Yo'lchining ko'zlariga gazab quyilsa ham, vaziyatni o'zgartirmadi. C. Shuhrat cho'qqisida turib boshingga kulfat tushganda, do'st kerak bo'lishini unutma. D. Tananing kasali bo'lganidek, xulq-atvorning ham xastaligi bo'ladi. E. Hamma to'plangandan keyin, u o'z ishini davom ettira boshladi.*

22. Vositasiz tuldiruvchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
*A. Insonning hunari – uning boyligi.*
*B. Qarindosh-urug' kishi uchun qanot. C. Ko'ngli oq insonga har narsa oqdek tuyuladi. D. Pok muhabbatning fazilati shundaki, u insonga hayotiylik, quvonch baxsh etadi. E. Kibr-u havo kirgan joydan mehr-u vafo qochadi.*

23. To'liqsiz gap berilgan qatorni toping. *A. -Qayerga ketayapsan? –deb so'radi g'ozdan.*
*-Ko'pning oldiga!- javob berdi g'oz.*
*B. Oilangiz bormi?*
*-Yo'q, - dedi Murod uyalib.*
*C. Uyi sovuqdan emas,dami sovuqdan qoch.*
*D. –Ilgariga qaraganda tuzukmi? - Ha.*
*E. -Olib chiqaymi? – Mayli.*
24. Bog'lovchisiz qo'shma gap berilgan qatorni toping.
*A. Hilola fermaga ishga keldi-yu, ishlar gullab ketdi.*
*B. Mamlakat qancha ulkan bo'lsa, uni idora etish shunchalik qiyinlashadi.*
*C. Tun qorong'usi ustiga osmonni quyuq bulut qopladi, qal'a ichini zulmat bosib ketdi. D. Tashqarida goh shamolning guvillashi, goh yomg'irning sharillashi odamni vahimaga solardi. E. Bahor kelganda, havodan yomg'ir hidi keladi.*

25. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar to'liq ko'rsatilgan qatorni belgilang.
*A. teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar. B. teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar, modal so'zlar, fe'l formalari. C. teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar, modal so'zlar. D. teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar.*
*E. teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'l formalari.*

26. *Ishonch bo'lmasa, quvonch yo'qoladi.* Ushbu qo'shma gap hakidagi qaysi hukm to'g'ri?
*A. payt ergash gapli qo'shma gap. B. shart ergash gapli qo'shma gap*
*C. to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap D. daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gap. E. natija ergash gapli qo'shma gap.*
27. *Daraxt ko'm-ko'k va mevali bo'lsa, undan samara kutish mumkin*. Ushbu gapda uyushiq bo'laklar gapning qaysi bo'lagiga oid?
*A. aniqlovchi. B. tuldiruvchi. C. kesim. D. hol. E. ega.*

28. Qaysi javobda ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalari bitishuv yo'li bilan tuzilgan?
*A. O't-o'lanlar yog'in-sochin bilan o'sadi.*
*B. Yaxshi yigit yurt tuzar, yomon yigit yurt buzar.*

*C. Insonning aqliga, daraxtning yoshiga qarab hurmatlaydilar.*
*D. Navoiy shiringina yasog'lik uyda tanho ishlardi.*
*E. Atrof poyonsiz qir va to'qaydir.*

29. Nodon suhbatidan aylasang hazar, Vujudingga aslo yetmagay zarar. Ushbu gapda holning qaysi turi mavjud?
*A. o'rin holi. B. ravish holi. C. mikdor-daraja holi.*
*D. payt holi. E. sabab holi.*

30. Nominativ gap qo'llangan qatorni toping.
*A. Ey aziz! Bilginki, haqiqiy suhbat odamning qalbiga qarab bo'ladi.*
*B. Iye! Chaqaloq ham bor-ku!*
*C. Yoshingiz nechada? – O'ttiz uchda.*
*D. Tong. Bulbullar sayrashi eshitila boshladi.*
*E. Shogirdim, vujuding yerniki, kechmishing esa elniki.*

31. *Ketishda yigit Ahmadjon bilan quchoqlashib xayrlashgan edi.*
Ushbu gapda payt holi to'g'ri ifodalangan qatorni aniqlang.
*A. fe'lning sifatdosh shakli. B. fe'lning ravishdosh shakli.*
*C. ot bilan. D. sof fe'l bilan. E. fe'lning harakat nomi shakli bilan.*

32. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan birikma qatnashgan gapni toping.
*A. Kishilarga ziynat beradigan narsa, bu – kamtarlik.*
*B. Ko'kda, daraxtlar ustida, g'uj-g'uj yulduzlar yonadi.*
*C. Kitoblarda bayon qilinishicha, ota-onaning farzandga nisbatan saksonta haqi bor. D. Ikki narsa foydasiz: Hikmatsiz so'z va tafakkursiz sukut.*
*E. Mehnat – mehnatning tagi rohat.*

33. Qaysi qatorda ravish holi ot bilan ifodalangan.
*A. O'zing bilan tengdoshlarga insof bilan, o'zingdan ustunlarga aql bilan boq.*
*B. Foydali so'zlasa, kishi tortmas g'am.*
*C. Gapirishda so'zni uzun qilma, o'ylamay gapirma.*
*D. Doimo dono kishilar bilan maslahatlashish kerak.*
*E. Kiyinish va yasan-tusan bilan obro' topishni o'ylama.*

34. *Tabiat oq yopinchig'ini borliqqa yoysa, go'yo bulutlar orasida yurganday bo'lasan.* Ushbu gapda ergash gap bosh gapga qanday vositalar yordamida bog'langan?
*A. fe'lning shart mayli shakli, sabab bog'lovchisi vositasida.*
*B. fe'lning shart mayli shakli, aniqlov bog'lovchisi vositasida.*
*C. fe'lning shart mayli shakli, chog'ishtiruv bog'lovchisi vositasida.*
*D. aniqlov bog'lovchisi, chog'ishtiruv bog'lovchisi vositasida.*
*E. fe'lning ijro mayli shakli, chog'ishtiruv bog'lovchisi vositasida.*

35. Izohlovchi qaysi qatordagi gap tarkibida ishtirok etganini aniqlang.
*A. Oltin umrimizning bebaho mevalari aziz farzandlarimizdir.*
*B. Yaxshi o'qituvchi bo'lmoq uchun bolaning dilini bilmoq zarur.*
*C. Mohir o'qituvchi yosh avlodning qalbida o'z kasbiga qizg'in havas uyg'otadi. D. Kichiklar gunohini kechmoq kattalar uchun chiroyli fe'l.*
*E. Haqiqiy farzand har bir sohada o'z otasining hukmiga tobe bo'ladi.*

36. Aralash tipdagi qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.
*A. Dunyo yo'li tekis emas, birov o'z aqli bilan to'g'ri yurolsa, birov qoqiladi.*

*B. Kishi o'z-o'zini bilsa, qadr-u qimmatini tanisa, u holda uning aqlli ekani ma'lum bo'ladi. C. Itsaymanki, shoirning orzulari, umidlari tush emas, haqiqatga aylansin. D. Kishi qayerda bo'lmasin, tilini yomon so'zdan asrasa, mulohaza bilan gapirsa, doimo foyda topadi.*
*E. Havoni rayhon hidiga to'ldirib shabada yelib o'tdi, ariq bo'yidan oq teraklar daryoday shovilladi, bog'ning qaysi joyida dup-dup olma tushdi.*

## Ona tili fani bo'yicha yakuniy nazorat topshiriqlari yakuniy nazorat ishi(Sintaksis, sodda gap turlari, gap bo'lakari yuzasidan)

### 1-topshiriq

*Ko'chiring. Har bir gap tarkibidagi so'z birikmalarini ajratib yozing. Har bir birikma tarkibidagi hokim so'z tagiga to'gri, tobe so'z tagiga to'lqinli chiziq chizing. Tobe aloqa usulini (boshqaruv, bitishuv, moslashuv kabi) yozib ko'rsating.*

### 1-variant

1. Dunyodagi barcha ne'matlardan faqat yaxshi nom qoladi. (Sa'diy) 2. Shokir ota ariq bo'yidagi atrofiga qalin suv sepilgan eski kigiz ustida xayol surib o'tirardi. (O.) 3. Hisobni bilmagan hamyonidan ayrilar. (Maqol) 4. Bola o'zini sevgan odamni yaxshi ko'radi (Hikmat).
5. Salomatligini ehtiyot qilib yurgan odam o'ziga nima foydaligini har qanday shifokordan ko'ra yaxshiroq biladi. (Suqrot) 6. Daraxtlarning uzun soyalari guzarga ancha fayz kirgizdi. (M.I.) 7. Gulda kishi tabiatini ochadigan bir ajoyib xususiyat bor. (S.N.) 8. Keng xona to'riga quyosh nusxa so'zana tortilgan. (H.G'.)

### 2-variant

1. Har kimning qalbida o'z xalqining jajji qiyofasi yashaydi. (Hikmat) 2. Hamma hayajon bilan ko'prikning o'ng yoniga o'tdi. (H.N.)
3. Dala bag'rini ko'rpa kabi qoplab olgan bo'z o'tlar kundan-kunga bo'y cho'zadi (Sh.R.). 4. Soyning narigi tomonida yalang'och tog'lar vodiy yo'lini to'sib yotibdi. (S.) 5. O'qimishlilik achchiq ildizning shirin mevasidir. (Hikmat) 6. Xolbek bu yil qish oyoqlaganda mana shu tog'da bo'lgan bir voqeani eslab ketdi. (P.Q.) 7. Kishiga faqat hunar iqbol eshigini ochar. (Bedil) 8. Sada tagidagi hovuzning zilol suvida yaproqlar suzadi. (S.Z.)

### 2-topshiriq

*O'qing va ko'chiring. Gaplar tarkibidagi gap bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gap bo'lagi nomini yozib ko'rsating.*

*Gap tarkibidagi kesimlarni matndan so'ng turlarga ajratib (sodda ot-kesim, sodda fe'l-kesim, murakkab ot-kesim, murakkab fe'l-kesim kabi) alohida-alohida ustun shaklida yozib ko'rsating.*

### 1-variant

1. Osmon uzra pag'a-pag'a bulutlar karvoni sayr etadi. (H.G'.)
2. Ahmad Husayin tevarakni sayr eta-eta, asta yurib ketdi (O). 3. Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi (M.Osim). 4. Munozara - haqiqat chirog'i (Maqol). 5. Ular eski, lekin ozodagina ko'rpa yopilgan sandal atrofida sekin-sekin gaplashishardi (S.Z.). 6. Men hammadan burun o'z farzandimning xulk-atvoridan iztirob chekaman (O.Y.). 7. Buvsara baland bo'yli, qoshlari payvatsa, ko'zlari tiyrak, zuvalasi pishiq, oppoqqina, ellik ikki-ellik uch yoshlardagi ayol edi (O). 8. Keyin avtobusning ochiq derazasidan cho'lga ko'z yugurtirdim. (P.Q.)

### 2-variant

1. Soyning narigi tomonida yalang'och tog'lar yuksala-yuksala vodiy yo'lini to'sib yotibdi (S.). 2. Shamol maysa gilamlarni silkiydi (O).
3. Inson yuragi – nozik rubob (H.G'.). 4. Tebranib yonayotgan sham zo'r mo'jizaday hammaning diqqatini jalb qilgan edi (A.Q.). 5. Zumradning tikishi – go'zal, ipakning turlashi ham mohirona. (O) 6. Inson hayvondan aqli bilan farq qiladi (Beruniy). 7. Saidakbar eshon u vaqtlar yosh bola edi (O). 8. Men bu odamni deyarli har yakshanba uchratardim (S.Z.).

**3-topshiriq**

*O'qing va ko'chiring. Uyushiq bo'laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo'lagi uyushib kelganini yozib qo'ying.*

**1-variant**

1. Ot, eshak mingan dehqonlar, qo'ng'iroqlarini jaranglatib salmoqlangan tuyalar, kalava to'la savatlarini boshlariga qo'ygan kampirlar, matolarini qo'ltiqlagan to'quvchilar bozor tomon oshiqadi (O). 2. Oqil kishi dono, olijanob, rotsgo'y odamga do'st bo'ladi (Hikmat). 3. Darvoza sekin tiqirladi-da, ochildi (S.Z.). 4. Sayohatchilar goh atrofdagi xilma-xil o'simlik va gullarga, goh qorli cho'qqiga qarab yuqoriga intilishmoqda. (O)
5. Navoiy gulni, rangni juda sevadi.(O.) 6. Ko'chalar, uylar yam-yashil ko'kat va yaproqlarga qalinroq burkanganday tuyuladi. (Y.Sh.). 8. Qo'shiq to'y va marosimlarning, mehnat va ijodning, qayg'u va quvonchning, hijron, safar, kurash va muhabbatning doimiy yo'ldoshidir (A.Muxtor).
7. Boy sevinch va hayajon bilan shoshilib o'rnidan turdi (O).

**2-variant**

1. Tabiat ham, oy ham, yulduzlar ham to'y libosida yal-yal yonib turgan yangi kelinchakdek dilbar edi (M.Muhammedov). 2. Ilk bahor shamoli hali uyqudan ko'z ochmagan bog'larda, mevazorlarda kezib yuribdi (H.G'.). 3. Navoiyning Hirotga qaytishi xalqning va do'stlarning ko'nglidagi g'am-tashvishni va umidsizlikni ko'tardi (O). 4. Endi Umarali ohista, vazmin so'zga kirishdi (O). 5. Azimboyning va qishloqdagi boshqa boylarning yerlari, ot-ulovlari kambag'al dehqonlarga bo'lib berildi (H.G'.). 6. Sultonmurod qaynagan olomon ichida turtki yeb, bosilib, ezilib uzoq yurdi (O). 7. Yaxshi it – cho'ponning do'sti, qo'riqchisi, dastyori (Sh.Xolmirzayev). 8. Daraxt tepasida kezib yurgan yarimta oy yaproqlar orasidan o'tib, Sanobarning dam yelkasida, dam soch o'rimlarida o'ynaydi (S.).

**4-topshiriq**

*O'qing va ko'chiring. Bir bosh bo'lakli gaplarni topib, tagiga yaxlit bir to'g'ri chiziq chizing, ustiga turini (shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxsi topilmas, nominativ (atov) gap kabi yozib ko'rsating.*

**1-variant**

1. O'zini bilimdon deydigan nodondan qoch (Qobus). 2. Marg'ilonda Qashqarning mayin jiloli ipagidan topsa bo'ladi (X.I.). 3. Ko'klamning eng ko'rkam chog'i. Ayvon oftob. Hovli chinniday toza. Momosuluv xola hovlini qirtishlagani-qirtishlagan (O.). 4. Qarilikning yuzimizdan ko'ra aqlimizda ajinlar hosil qilishidan ehtiyot bo'laylik (Hikmat). 5. Birni kessang, o'nni ek (Maqol). 6. Uning taqdiri haqida g'amxo'rlik qiladilar (Shuhrat). 7. Bir yo'lim tushganda shohi bilan ipaklarni tashlab o'tarman (O). 8. Uchovlari bu to'g'rida qizg'in suhbatlashdi (O).

**2-variant**

1. Yangi ariqqa suv ochish marosimi kechqurun o'tkaziladi (S.N.). 2. Uning kitob o'qib charchamaganiga hayronman (M.O.). 3. Oltin olma, duo ol (Maqol). 4. Fevralning oxirlari. Sovuqning zahri kesilgan (O.).
5. Lekin biz bilan kasalxonaga borishingizga to'g'ri keladi (M.S.). 6. Bir soatdan keyin chiroq nurida charaqlab yotgan to'yxonaga kirib borishdi (O'.H.). 7. Cho'l zahmatkashlarining g'ayrat-shijoatini ko'rdingizmi! (A.Muxtor). 8. O'zganga behad sovg'alar bilan Abu Nasrni elchi qilib yuboraylik (M.Osim).

## Yakuniy nazorat ishi

## (Qo'shma gap turlari, murakkab qo'shma gap, ko'chirma gap yuzasidan)

***1-topshiriq***

*O'qing. Gaplarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, ularni «Sodda gaplar», «Qo'shma gaplar» sarlavhalari bilan ajratib yozing. Har bir gapning bosh bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishli chiziqlarini chizing.*

**1-variant**

1. Yangi do'st orttirsang, eskisidan yuzingni burma (Qobus). 2. Ota-onaga muhabbat barcha yaxshi fazilatlarning asosi (Hikmat). 3. Baxt havoda esmaydi, u mehnatdan keladi (Rudakiy). 4. Oradan uch oy o'tib, hash-pash deguncha issiq kunlar yetib keldi (S.A.). 5. Tilingni aqlingdan oldin ketishiga yo'l qo'yma (Hikmat). 6. Qor yo'q, lekin ertalab yalang'och daraxtlarda va tomlarda qalingina qirov yiltiraydi (O.). 7. Bilim va tushunishga intil kun-u tun (Yusuf Xos Hojib). 8. Gildirakli aravaning bir maromdagi ohangi buzildi: poyezd sekinlay boshladi (S.Z.).

**2-variant**

1. Unda-bunda ko'kimtir suv to'plangan chuqurliklar uchraydi, ularning atrofii qirov tushganday yiltiraydi (H.N.). 2. Atlas ko'ylak, ipak durrachasi, ko'rkam sochlari bilan yonib-yashnab Gulandom kirdi (O.). 3. U dam g'azallar, dam hajvlar, dam xotiralar bilan daftar to'ldirardi (S.A.). 4. It huradi – karvon o'tadi (Maqol). 5. Boy ariqdan tetik hatlab, oldinga yurdi (O.). 6. Uzoq yashamoqchi bo'lsang, kamroq ovqatlan (Hikmat). 7. Darvoza tagidan odam arimas, shivir-shivir to'xtamasdi (S.Z.). 8. U kochada g'oyat mamnun ham har vaqtdagidan kekkayibroq yurdi, chunki u o'zini katta zafarga erishgan hisoblardi (O).

**2-topshiriq**

*O'qing. Avval bog'lovchisiz, keyin bog'langan, undan so'ng ergashgan qo'shma gaplarni ko'chiring. Ergashgan qo'shma gapdagi ergash gapning tagiga to'lqinli chiziq chizing, ustiga turini yozib qo'ying. Sxemalarini chizing.*

**1-variant**

1. Bahor olamga gul keltirganday, Yangi yil keltirsin behisob zafar (Uyg'un). 2. Qirq yosh – yoshlikning intihosi, ellik yosh – qarilikning ibtidosi (Hikmat). 3. Boshqa talabgorlar bor edi, lekin boshliqlar meni yuborishdi (P.Q.). 4. Bekorchilik barvaqt munkillab qolishga olib keladi, mehnat esa yoshlikni saqlab qoladi (Hikmat). 5. Biz bilamizki, tabiatda hali ochilmagan sirlar ko'p (P.Q.). 6. Havo toza, ko'k musaffo, yosh ko'ngillar beg'ubor (Sh.S.). 7. Eshik ochilib, barzangiday yigit chiqdi (O). 8. Sabru bardosh bo'lmasa, odam bolasini g'am yeb qo'yadi (S.).

# Pedagogika fakulteti 3-kurs 5141600-boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun ona tili fani bo'yicha reyting ishlanmasi va baholash mezonlari.

| № | Baholash turlari | Soni | Ajratilgan ball | Jami | Reyting ballarini mezonlash |
|---|---|---|---|---|---|
| I | Joriy baholash | - | - | 50 | |
| 1 | Darsdagi faoliyat | 3 | 2 | 6 | 1. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirganligi-1 b<br>2. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda berilgan savol va muammolarga javobiga – 1 b |
| 2 | Uyga vazifa | 3 | 1 | 3 | 1. Berilgan topshiriqlarni bajarganligi – 0,5b<br>2. Berilgan topshiriqlarni o'zlashtirganligi – 0,5b |
| 3 | Tajriba mashg'ul | 8 | 2 | 16 | 1.Mashg'ulotlarga qatnashib, topshiriq haqidagi nazariy bilimga ega bo'lsa -1b<br>2.Darslarni mustaqil tahlil eta olsa -1b |
| 4 | Amaliy mashg'ul | 3 | 7 | 21 | 1.Fan bo'yicha tafsiya etilgan adbiyotlarni o'rganganligi -3 b |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 2. Fan bo'yicha qiziqarli malumotlarni to'plaganligi uchu -1 b<br>3. Mavzularni to'liq o'zlashtirganligi uchun-3 b |
| II | Oraliq baholash | - | - | 35 | |
| 1 | Test | 2 | 4 | 8 | 1.Test soniga mos holda yo'g'ri javoblar uchun-4 b |
| 2 | Kollokvium | 2 | 6 | 12 | 1.Berilgan mavzuni to'la yoritishi uchun-3 b<br>2.Innovatsion metodlarni qay darajada bilishi – 3 b |
| 3 | Ijodiy ish | 2 | 7,5 | 15 | 1.Dars ishlanmalari tuzishi – 3 b<br>2.Ko'rgazmali qurol tayyorlash -2,5 b<br>3.YA P T dan foydalanishi – 2 b |
| III | Yakuniy baholash | 1 | 15 | 15 | |

**Ona tili fani bo'yicha 3-kurs talabalari uchun baholash mezoni**

| Ball | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100% | A'lo | 1.Sintaksis va so`zlarning sintaktik aloqasini bilishi<br>2. So`zlarning teng va tobe bog'lanishi<br>3. Gap, gapning ifoda va maqsadga ko'ra turlari<br>4. So'z birikmasi tasnifi. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv.<br>5. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar.<br>6. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.<br>7. Kirish so'z, kirish birikma va kirish gap<br>8. Qo'shma gap va uning turlari.<br>9. Murakkab qo'shma gap<br>10. Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo'llanilishi. |
| 71-85% | Yaxshi | 1.Sintaksis va so`zlarning sintaktik aloqasini bilishi<br>2. Gap, gapning ifoda va maqsadga ko'ra turlari<br>3. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar<br>4. Kirish so'z, kirish birikma va kirish gap<br>5.Murakkab qo'shma gap<br>6.Tinish belgilarining qo'llanilishi |
| 55-70% | Qoniqarli | 1.Sintaksis va so`zlarning sintaktik aloqasini bilishi<br>2.So`zlarning teng va tobe bog'lanishi<br>3.So'z birikmasi tasnifi. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv<br>4.Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo'llanilishi |
| 0-54% | Qoniqarsiz | 1.Sintaksis va so`zlarning sintaktik aloqasini bilishi<br>2.Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo'llanilishi |

**3 – kurs talabalri uchun ona tili fanidan reyting ishlanmasi.**

| № | Nazoratlar | I nazorat haftasi | | II nazorat haftasi | | III nazorat haftasi | | Jami ball |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | JB | OB | JB | OB | JB | OB | |
| 1 | Uyga vazifa | - | - | - | - | - | - | - |
| 2 | Darsdagi faoliyat | 4 | - | 3 | - | 3 | - | 10 |
| 3 | Test | 8 | - | 6 | - | 6 | - | 20 |
| 4 | Nazorat ishi | - | - | - | - | - | - | - |
| 5 | Ijodiy ish | 5 | - | 5 | 15 | 10 | - | 35 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Kollokvium | - | 10 | - | - | - | 10 | 20 |
| 7 | Amaliy ish | - | - | - | - | - | - | - |
| 8 | Tajriba ishi | - | - | - | - | - | - | - |
| Jami | | 17 | 10 | 14 | 15 | 19 | 10 | 85 |

## ADABIYOTLAR


1. I. Karimov. Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. AAbduazizov. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi, Toshkent, 1992.
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari, «O'qituvchi», Toshkent, 1995-yil.
4. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil
5. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiyot tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent, 2000.
6. R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
7. K.Safaev, R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
12. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
13. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi
14. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
15. R.Yunusov. O`zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
16. O`. Sharipova, I.Yo`ldoshev. Tilshunoslik asoslari. 2006, TDPU.

## Pedagogika fakulteti 3-kurs 5141600-boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun ona tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha reyting ishlanmasi va baholash mezonlari.

| № | Baholash turlari | Soni | Ajratilgan ball | Jami | Reyting ballarini mezonlash |
|---|---|---|---|---|---|
| I | Joriy baholash | - | - | 50 | |
| 1 | Darsdagi faoliyat | 3 | 2 | 6 | 1. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirganligi-1 b<br>2. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda berilgan savol va muammolarga javobiga – 1 b |
| 2 | Uyga vazifa | 3 | 1 | 3 | 1. Berilgan topshiriqlarni bajarganligi – 0,5b<br>2. Berilgan topshiriqlarni o'zlashtirganligi – 0,5b |
| 3 | Tajriba mashg'ul | 8 | 2 | 16 | 1.Mashg'ulotlarga qatnashib, topshiriq haqidagi nazariy bilimga ega bo'lsa -1b<br>2.Darslarni mustaqil tahlil eta olsa -1b |
| 4 | Amaliy mashg'ul | 3 | 7 | 21 | 1.Fan bo'yicha tafsiya etilgan adbiyotlarni o'rganganligi - 3 b<br>2. Fan bo'yicha qiziqarli malumotlarni to'plaganligi uchu - 1 b<br>3. Mavzularni to'liq o'zlashtirganligi uchun-3 b |
| II | Oraliq baholash | - | - | 35 | |
| 1 | Test | 2 | 4 | 8 | 1.Test soniga mos holda yo'g'ri javoblar uchun-4 b |
| 2 | Kollokvium | 2 | 6 | 12 | 1.Berilgan mavzuni to'la yoritishi uchun-3 b<br>2.Innovatsion metodlarni qay darajada bilishi – 3 b |
| 3 | Ijodiy ish | 2 | 7,5 | 15 | 1.Dars ishlanmalari tuzishi – 3 b<br>2.Ko'rgazmali qurol tayyorlash -2,5 b<br>3.YA P T dan foydalanishi – 2 b |
| III | Yakuniy baholash | 1 | 15 | 15 | |

**Ona tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha 3-kurs talabalari uchun baholash mezoni**

| Ball | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100% | A'lo | 1.So'z turkumlarini o'qitish metodikasini yaxshi o'zlashtirganligi.<br>2.Punktuatsiyani o'rgatish izchinligini bilishi.<br>3.Orfografik malakalarini shakllantirishi.<br>4.Ono tili darslarining turlari va qurilishini bilishi.<br>5.Nutq o'stirish metodikasini o'zlashtirganligi.<br>6.Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llarini bilishi.<br>7.Ona tili va o'qishdan sinfdan tashqati ishlarini tashkil eta olishi.<br>8.Og'zaki va yozma insho turlarini o'tkaza olishi.<br>9.Leksikologiyani o'qitish usullarini bilishi.<br>10.Sintaktik elementlarni o'rgatish yo'llari. |
| 71-85% | Yaxshi | 1.So'z turkumlarini o'qitish metodikasini yaxshi o'zlashtirganligi.<br>2.Punktuatsiyani o'rgatish izchinligini bilishi.<br>3.Orfografik malakalarini shakllantirishi.<br>4.Ono tili darslarining turlari va qurilishini bilishi.<br>5.Nutq o'stirish metodikasini o'zlashtirganligi. |

| | | |
|---|---|---|
| | | 6.Ona tili va o'qishdan sinfdan tashqati ishlarini tashkil eta olishi. |
| 55-70% | Qoniqarli | 1.So'z turkumlarini o'qitish metodikasini yaxshi o'zlashtirganligi.<br>2.Orfografik malakalarini shakllantirishi.<br>3.Ono tili darslarining turlari va qurilishini bilishi.<br>4.Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llarini bilishi.<br>5.Ona tili va o'qishdan sinfdan tashqati ishlarini tashkil eta olishi. |
| 0-54% | Qoniqarsiz | 1.So'z turkumlarini o'qitish metodikasini yaxshi o'zlashtirganligi.<br>2.Orfografik malakalarini shakllantirishi.<br>3.Nutq o'stirish metodikasini o'zlashtirganligi. |

**3 – kurs talabalri uchun ona tili o'qitish metodikasi fanidan reyting ishlanmasi.**

| № | Nazoratlar | I nazorat haftasi | | II nazorat haftasi | | III nazorat haftasi | | Jami ball |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | JB | OB | JB | OB | JB | OB | |
| 1 | Uyga vazifa | - | - | - | - | - | - | - |
| 2 | Darsdagi faoliyat | 4 | - | 3 | - | 3 | - | 10 |
| 3 | Test | 8 | - | 6 | - | 6 | - | 20 |
| 4 | Nazorat ishi | - | - | - | - | - | - | - |
| 5 | Ijodiy ish | 5 | - | 5 | 15 | 10 | - | 35 |
| 6 | Kollokvium | - | 10 | - | - | - | 10 | 20 |
| 7 | Amaliy ish | - | - | - | - | - | - | - |
| 8 | Tajriba ishi | - | - | - | - | - | - | - |
| Jami | | 17 | 10 | 14 | 15 | 19 | 10 | 85 |

**O`qituvchi: F. Mahkamov**